

**2024**

**GBPS**



**9 781957 653457**

**ISBN:- 978-1-957653-45-7**

**PUBLISHED DATE:- 19 JUNE 2024**

**DOI:- <https://doi.org/10.37547/gbps-37>**

**NAZARALIEVA MATLYUBAKHON ANARJANOVNA**

**FORMATION OF INTEGRATED REPRODUCTIVE SKILLS  
IN TEACHING ENGLISH**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
FERGANA POLYTECHNIC INSTITUTE  
"UZBEK LANGUAGE AND LANGUAGES TEACHING" DEPARTMENT**

**NAZARALIEVA MATLYUBAKHON ANARJANOVNA**

**FORMATION OF INTEGRATED  
REPRODUCTIVE SKILLS IN  
TEACHING ENGLISH**

(in the case of non-philological faculties)

**(MONOGRAPH)**

**Scientific editor:**

**ALIMOV SHAROBIDDIN SOLIEVICH**

Candidate of Pedagogical Sciences, professor

**Fergana- 2024**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI  
"O'ZBEK TILI VA TILLARNI O'RGATISH" KAFEDRASI

NAZARALIEVA MATLYUBAXON ANARJANOWNA

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA  
INTEGRATSIYALASHGAN  
REPRODUKTIV MALAKALARНИ  
SHAKLLANTIRISH**

(nofilologik fakultetlar misolida)

**(MONOGRAFIYA)**

**Ilmiy muharir:**

**Alimov Sharobiddin Solievich**

Pedagogika fanlari nomzodi, professor

Farg'ona- 2024

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ФЕРГАНСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ  
КАФЕДРА "УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК И ЯЗЫКОВОЕ ОБУЧЕНИЕ"**

**НАЗАРАЛИЕВА МАТЛЮБАХОН АНАРЖАНОВНА**

**ФОРМИРОВАНИЕ  
ИНТЕГРИРОВАННЫХ  
РЕПРОДУКТИВНЫХ НАВЫКОВ  
ПРИ ОБУЧЕНИИ  
АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

(на примере нефилологических факультетов)

**(МОНОГРАФИЯ)**

**Научный редактор:**

**Алимов Шаробиддин Солевич**

Кандидат педагогических наук, профессор

**Фергана-2024**

**UDC: 373.6:802.0**

M.A. Nazaralieva. Formation of integrated reproductive skills in English language teaching" (in the case of non-philological faculties). Monograph. Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2024, 117 p.

In the monograph, there is given development of students' professional competence in foreign languages, formation of reproductive speech skills in English, formation of innovative activities related to the use of modern pedagogical technologies, the gradual formation of reproductive skills with a differential approach to reading techniques and other types of speech, and the determination of the influence of linguistic and didactic and psychological factors; The methodical support of English language teaching and development of professional competence and the improvement of reproductive speech competence on the basis of systematization of specialized educational materials on the basis of linguodidactic analysis are highlighted.

**Reviewers:**

**Sh.S.Alimov -** Andijan State Institute of Foreign Languages, Ph.D., Professor

**D.A.Ganieva -** Fergana State University, doctor of philological sciences (DSc), Associate Professor

The monograph was reviewed by the Scientific Council of Fergana Polytechnic Institute and recommended for publication. Statement No. 9, May 30, 2024.

**DOI: <https://doi.org/10.37547/gbps-37>**

**ISBN: 978-1-957653-45-7**

**UDK: 373.6:802.0**

M.A. Nazaralieva. “Ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan reproduktiv malakalarini shakllantirish” (nofilologik fakultetlar misolida).. Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2024, 117 b.

Monografiyada talabalarning xorijiy tillar bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ingliz tilidagi reproduktiv nutq malakalarni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir innovatsion faoliyatni shakllantirish, o‘qish texnikasi va nutqning boshqa turlariga nisbatan differentsial yondashgan holda reproduktiv malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, lingvovidaktik va psixologik omillar ta’sirini aniqlash; Ingliz tilini o‘qitishda va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodik ta’minoti va lingvovidaktik tahlil asosida mutaxassislik o‘quv materiallarini tizimlashtirish bo‘yicha reproduktiv nutq kompetentsiyasini o‘stirish va takomillashtirilgani yoritib berilgan.

**Taqrizchilar:**

**Sh.S.Alimov -** Andijon davlat chet tillar instituti, p.f.n., professor

**D.A.Ganieva -** Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc),  
**dotsent**

Monografiya Farg‘ona politexnika instituti ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan. Bayon № 9, 30 may 2024 yil.

**DOI: <https://doi.org/10.37547/gbps-37>**

**ISBN: 978-1-957653-45-7**

**УДК: 373.6:802.0**

М.А.Назаралиева. «Формирование интегрированных репродуктивных навыков при обучении английскому языку» (на примере нефилологических факультетов). Монография. Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2024, 117 с.

В монографии идёт речь о развитии профессиональной компетентности студентов на иностранных языках, формировании репродуктивных речевых умений на английском языке, формирование инновационной активности, связанной с использованием современных педагогических технологий, постепенном формировании репродуктивных навыков с дифференцированным подходом к приёмы чтения и других видов речи, а также определение влияния языковых и дидактических и психологических факторов; Освещены методическое обеспечение обучения английскому языку и развитие профессиональной компетентности и совершенствование репродуктивной речевой компетентности на основе систематизации специализированных учебных материалов на основе лингводидактического анализа.

**Рецензенты:**

**Ш.С. Алимов -** Андижанский государственный институт иностранных языков, доктор философии, профессор

**Д.А. Ганиева -** Ферганский государственный университет, доктор филологических наук, доцент

Монография была рассмотрена Ученым советом Ферганского политехнического института и рекомендована к публикации. Заявление №9 от 30 мая 2024 г.

**DOI: <https://doi.org/10.37547/gbps-37>**

**ISBN: 978-1-957653-45-7**

## CONTENT

<b>INTRODUCTION.....</b>	<b>10</b>
<b>CHAPTER 1. THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF INTEGRATED REPRODUCTIVE SPEECH SKILLS</b>	
1.1. Psychological factors of an integrated approach to foreign language teaching. ....	19
1.2. Linguistic and pedagogical foundations of the formation of integrated speech skills. ....	30
1.3. Reproductive discourse as a goal and tool in English language teaching. ....	43
<b>CHAPTER 2. METHODICAL ORGANIZATION OF THE TECHNOLOGY OF FORMATION OF INTEGRATED SPEECH SKILLS</b>	
2.1. Analysis of the current situation of the level of formation of integrated speech skills among language learners.....	48
2.2. Appropriate use of various strategies in the formation of integrated reproductive speech skills. ....	59
2.3. Technology of formation of integrated reproductive speech competence in English.....	67
<b>CHAPTER 3. ORGANIZATION OF AN EXPERIMENTAL TEST ON THE FORMATION OF REPRODUCTIVE SPEECH COMPETENCE IN ENGLISH AND ANALYSIS OF ITS RESULTS</b>	
3.1. Stages of organizing the experiment.....	75
3.2. Analysis of the results of the formation of integrated reproductive speech skills.....	80
3.3. Instructions and advice on the formation of integrated reproductive speech skills in English.....	83
<b>CONCLUSION.....</b>	<b>93</b>
<b>LIST OF REFERENCES.....</b>	<b>99</b>
<b>APPENDICES.....</b>	<b>106</b>

## MUNDARIJA

<b>SO‘Z BOSHI.....</b>	<b>10</b>
<b>1. BOB. INTEGRATSIYALASHGAN REPRODUKTIV NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</b>	
1.1.Chet til o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuvning psixologik omillari.	19
1.2.Integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllantirishning lingvodidaktik va pedagogik asoslari. ....	30
1.3.Ingliz tiliga o‘rgatishda reproduktiv nutq maqsad va vosita sifatida.	43
.....	.....
<b>2. BOB. INTEGRATSIYALASHGAN NUTQIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI METODIK TASHKILLASHTIRISH</b>	
2.1. Til o‘rganuvchilarda integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllanganlik darajasining xozirgi xolati tahlili.....	48
2.2. Integratsiyalashgan reproduktiv nutq malakalarni shakllantirishda turli strategiyalarni maqsadga muvofiq qo‘llash.....	59
2.3.Ingliz tilidagi integratsiyalashgan reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirish texnoligiyasi. .....	67
.....	.....
<b>3. BOB. INGLIZ TILIDAGI REPRODUKTIV NUTQ KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH YUZASIDAN TAJRIBA SINOVNI TASHKILLASHTIRISH VA UNING NATIJALARI TAHLILI</b>	
3.1. Tajriba sinovni tashkil qilish bosqichlari. .....	75
3.2. Integratsiyalashgan reproduktiv nutq malakalarini shakllantirish yuzasidan tashkil qilingan natijalari tahlili. ....	80
3.3. Ingliz tilida integratsiyalashgan reproduktiv nutq malakalarini shakllantirish yuzasidan ko‘rsatma va maslaxatlar.....	83
.....	.....
<b>XULOSA.....</b>	<b>94</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>99</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>106</b>

## ОГЛАВЛЕНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ.....</b>	10
<b>ГЛАВА 1. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ РЕПРОДУКТИВНЫХ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ</b>	
1.1. Психологические факторы комплексного подхода к обучению иностранному языку .....	19
1.2. Лингво-педагогические основы формирования интегрированных речевых умений. ....	30
1.3. Репродуктивный дискурс как цель и инструмент преподавания английского языка.....	43
<b>ГЛАВА 2. МЕТОДИЧЕСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ</b>	
2.1. Анализ современной ситуации уровня сформированности интегрированных речевых умений у изучающих язык. ....	48
2.2. Грамотное использование различных стратегий в формировании комплексных репродуктивных речевых навыков. ....	59
2.3. Технология формирования интегрированной репродуктивной речевой компетенции на английском языке. ....	67
<b>ГЛАВА 3. ОРГАНИЗАЦИЯ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ТЕСТА ПО ФОРМИРОВАНИЮ РЕПРОДУКТИВНОЙ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И АНАЛИЗ ЕГО РЕЗУЛЬТАТОВ</b>	
3.1. Этапы организации эксперимента. ....	75
3.2. Анализ результатов формирования интегрированных репродуктивных речевых навыков. ....	80
3.3. Инструкции и советы по формированию комплексных репродуктивных речевых навыков на английском языке.....	83
<b>ЗАКЛЮЧЕНИЕ.....</b>	99
<b>СПИСОК БИБЛИОГРАФИИ.....</b>	99
<b>ПРИЛОЖЕНИЯ.....</b>	106

## SO‘Z BOSHI

Jahonda xorijiy tillarni o‘rganish turli soha mutaxassislarining xorijlik hamkasblari bilan fikr almashuvlari, xalqaro anjumanlar va xorijiy manbalardan o‘z sohalariga doir axborot olish kabi jarayonlarda reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirishga bo‘lgan extiyojni yanada kuchaytiradi. AQShning Chikago va Jon Xopkens, Kanadaning Toronto, Angliyaning Lidz, Germaniyaning Frayburg universitetlarida ingliz tilidagi reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirishni e’tiborga olgan holda sohaviy terminologiya, kreativ fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni, hamda ushbu masalaning bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.<sup>1</sup>

Jahon amaliyotida talabalarning xorijiy tillar bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ingliz tilidagi reproduktiv malakalarni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir innovatsion faoliyatni shakllantirish, o‘qish texnikasi va nutqning boshqa turlariga nisbatan differentsial yondashgan holda reproduktiv malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, lingvodidaktik va psixologik omillar ta’sirini aniqlash alohida ahamiyatga molikdir.<sup>2</sup>

Shu jihatdan kompetentsiyaviy yondashuv asosida talabalarda integratsiyallashgan til ko‘nikmalarini shakllantirish orqali reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirish, tinglab va o‘qib axborot olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Garchi o‘qish bilan tinglab tushunish reproduktiv nutq faoliyati turlari bo‘lsada, ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga oid reproduktiv ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda differentsial yondashuv talab etiladi.<sup>3</sup>

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini (4.4.) Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish bandida “uzluksiz ta’lim

<sup>1</sup> Kudryashova O.V. Komponenti kommunikativnoy kompetentsii pri obuchenii pis’mennoy rechi. // «Vestnik YuUrGU», 2007, № 15.

<sup>2</sup> Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: —Niholl nashriyoti, 2016.–279 b.

<sup>3</sup> Muchnik I A Rolb rodnogo yazyika v protsesse obucheniya ustnoy inoyazychnoy rechi. Dis.kand.ied.nauk. -M., 1991.

tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshrish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” kabi muhim vazifalar belgilandi. Bunda Chet tillar fakulteti talabalarida integratsiyalashgan til ko‘nikmalarini shakllantirishda hamda reproduktiv nutq kompetentsiyasini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni ushbu monografiya oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri sifatida talqin qilinishi bugungi kundagi mutaxassislarning kasbiy maxoratini o‘stirish yo‘lidagi vazifalar bilan uyg‘unlashgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini to‘g‘risida”gi PF-4947-sون Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sон qarori,<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 may “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida ”gi 124-sонli qarori,<sup>5</sup> 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sон qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshrishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi paytda chet tillar o‘qitish metodikasiga chet tillar o‘qitishning maqsadlari va mazmuni, qonuniyat, metod, vositalari, yo‘llari, usullari, ta’lim tizimini o‘rganish va o‘rgatish bilan shug‘ullanuvchi, shuningdek chet tili yordamida talabalarlarni tarbiyalashni amalga oshiruvchi fan sifatida qaralmoqda.

Chet tillar o‘qitish metodikasi umumiy va xususiy metodikaga bo‘linadi. Umumiyl metodikada hamma chet tillariga taa’lluqli bo‘lgan ta’lim printsiplari muhokama qilinadi. I.V.Raxmonov, V.C.Tsetlin tahriri ostida nashr qilingan va o‘zbek tiliga tarjima qilingan “O‘rta maktabda chet tillar o‘qitishning umumiy metodikasi”, R.A. Zaripovaning “Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma”, J. Jalolovning “Chet tili o‘qitish metodika” larini umumiy metodika deb xisoblash

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2017 yil, 23 dekabr.

<sup>5</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O‘zbekiston, 1997.-236 b.

mumkin. Xususiy metodika bitta chet tilini o‘qitish masalasi bilan shug‘ullanadi. Bunga G.V.Rogovaning “Methods of teaching English”, O‘.X. Hoshimov, I.Ya. Yoqubovlarning “Ingliz tili o‘qitish metodikasi”, C.F.Shatilovning “Metodika obucheniya nemetskomu yaziku v sredney shkole” qo‘llanmalari misol bo‘la oladi.

Pedagoglarning asosiy vazifasi jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash, ushbu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini etirof etish emas, balki ularga nisbatan ijodiy yondoshuvni shaklantirish va mustaqil fikrlash sifatlarini tarbiyalashdan iborat.

Chet tilni o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad uning jamiyat taraqqiyoti va shaxsni shakllantirishdagi o‘rni bilan aniqlanadi.

O‘rta maktabda chet tillar o‘qitish metodikasi o‘z predmetiga ega. Chet tillar o‘qitish metodikasining predmetini chet tili o‘qitish jarayoni va o‘qib kelayotgan yosh avlodni chet tili orqali tarbiyalash tashkil qiladi. Umumiyligi o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tili o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri shu predmet bo‘yicha ma’lum hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirishdan iboratdir. O‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar asosini o‘quv dasturida ko‘rsatilgan til materiali tashkil qiladi. Til materialini fonetik, leksik va grammatik hodisalarni, materiallarni o‘z ichiga oladi.

PQ-4199-son qaroriga muvofiq, ushbu maktablarda ta’lim jarayoni xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o‘quv rejalarini va dasturlari bo‘yicha ingliz tilida amalga oshirilishi; “STEAM–ta’lim” (Science –tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art –san’at, Mathematics –matematika) dasturi joriy etilishi; maktab bitiruvchilariga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat shahodatnama, attestat) bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlarning etakchi oliy ta’lim muassasalariga kirish imkonini beruvchi xalqaro ko‘rsatkichli darajadagi tegishli dastur diplomi (International Bachalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) berilishi belgilab berildi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da alohida ta’kidlanganidek, “Iqtidorli, yuksak iste’dod sohiblariga va fanning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o‘zlaridagi noyob iste’dodni ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda”.

Talabalarlarning chet til (ingliz tili) faniga nisbatan bo‘lgan qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini inobatga olishning eng maqbul yo‘li (bu ta’lim-tarbiya jarayonini, jumladan, o‘qitishni, tabaqalashtirish (differensiatsiyalash) hisoblanmoqda).<sup>6</sup>

Talabalarlarning o‘quv fanlarini o‘zlashtirish yoki ularning ijodiy qobiliyatları yo‘nalishi va darajasiga ko‘ra tabaqalashtirilgan ta’limni joriy etish, birinchidan, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish davrida qobiliyatli bolalarning imkoniyatlarini yanada rivojlantirish; ikkinchidan, ularning vaqtini behuda isrof qilmaslik; uchinchidan, talabalar o‘rtasidagi munosabatning mo‘tadilligini ta’minalashga imkon beradi.

Ta’lim muassasalarida ijodiy qobiliyatli talabalarni saralash bevosita ular qobiliyatlarining yo‘nalishlari va darajalariga ko‘ra muayyan guruhlarga biriktirish asosida tabaqalashtirilgan ta’lim asosida o‘qitilishini talab qiladi. Albatta, tabaqalashtirilgan ta’lim o‘ziga xos afzalliliklarga egadir.

Tabaqalashtirilgan ta’lim asosida har bir o‘qituvchi qobiliyatli talabalarlarning ichki imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish, ularda ijodkorlik xislatlarini shakllantirishga o‘z hissasini qo‘sha olishi talab etiladi. Ta’lim muassasasining talabalarlarining ijodiy qobiliyatları ta’lim muassasasi jamoasi e’tiborini yagona maqsadga qaratish, shuningdek, bu jarayonga jamoatchilikni faol jalb etish orqali erishiladi.

Tabaqalashtirilgan deganda ta’limning shunday tizimini tushunamizki, bunda har bir talabalar doimiy o‘zgaruvchi hayotiy shart-sharoitlarda minimal

---

<sup>6</sup> Muchnik I A Rol rodnogo yazika v protsesse obucheniya ustnoy inoyazichnoy rechi. Dis.kand.ied.nauk. -M., 1991.

darajadagi umumta’lim tayyorgarligiga ega bo‘lgan holda o‘zining intilishiga afzal darajada diqqat-e’tibor qaratishga huquq va kafolat beradi. Ta’limni tabaqalashtirish, ayniqsa maktab o‘quv fanlaridan biri bo‘lgan ingliz tiliga nisbatan alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ingliz tili bevosita real dunyodagi narsa va hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlardan iboratligi, ularning millatlararo bag‘rikenglikni, o‘zaro hurmat ehtiromni, o‘zga millat urf-odatlarini hamda ularning tilini qadrlash bilan bog‘liq.

Turli dasturlar bo‘yicha o‘qitish jarayonini ixtisosiy tabaqalashtirishning tub mohiyati talabalarlarning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha maksimal darajada rivojlanishlari maqsadida ularning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat ekanligini bildiradi.<sup>7</sup>

Shunga mos ravishda ixtisosiy tabaqalashtirish o‘quv dasturida ko‘rsatilgan o‘quv materiali uni bayon qilishda chuqurlashtirilganligi va kengaytirilganligi, o‘quv ma’lumotlarining hajmi hamda ularni o‘rganish uchun kiritilgan masalalar yo‘naltirilganligi va tatbiqiyligini nazarda tutadi.

Ta’limni tabaqalashtirish, uning ko‘p ixtisosli tuzilmasini shakllantirish davrida umumiyo‘rta ma’lumotning tayanch darajasini aniqlash, talabalarlarning kelgusi kasbiy qiziqishlari, ta’lim yo‘nalishidan qat’iy nazar ta’limni oliv o‘quv yurtlarida davom ettirish imkoniyatini kafolatlovchi, barcha talabalarlar uchun muhim bo‘lgan ta’lim maqsadlari va darajasini oydinlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim metodlarining aniq maqsadlari bir-birlaridan farq qiladi, ya’ni: o‘rganuvchilarning mustaqil, ijodiy bilish faoliyklarini oshirish; shaxsning his qilish xususiyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan ta’lim jarayoni tuzilmasini yaratish; ta’lim mazmunini shaxs individual ehtiyojlari va uning bazaviy tayyorgarligi darajasiga moslashtirish; shaxsning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish; o‘rganuvchilarning moyillik, qiziqish va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish; o‘rganuvchilar faolligini tashkillashtirish; bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning shaxsiy faoliyat

<sup>7</sup> Rumyantseva I.M. Psixologiya rechi i lingvopedagogicheskaya psixologiya. M.:Logos, 2004. –320s.

tavsifida bo‘lishini ta’minlash akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida to‘g‘ri taqsimlangan.

Muloqot qobiliyatları - bu bilim, ko‘nikma, chet tildagi nutq faoliyatining ishlatish ko‘nikmalari yoki kommunikativga mos ravishda o‘rganilayotgan til niyatlarni, fikrlarni ifodalovchi aloqa konteksti. Kommunikativ kompetentsiya - bu kompetentsiyalar to‘plami; ma’lum bir joyda samarali muloqotni ta’minlash uchun mo‘ljallangan kontekst. Mulkchilikning Umum Evropa ta’lim standartiga ko‘ra: o‘rganish, o‘qitish, baholash”, kommunikativ kompetentsiyaning tarkibiy qismlari maqsadiga muvofiq uchta komponentga birlashtiriladi: lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik. Kommunikativ kompetentsiya qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish talabalarni turli sohalarda tilni amaliy qo‘llash va kommunikativ niyatlarga muvofiq muloqot vaziyatlarida chet tillarni o‘rgatishda kommunikativ kompetentsiya "o‘quv jarayonining dominant maqsadi".<sup>8</sup>

Ta’limning ijtimoiy yo‘nalishi oldindan belgilab qo‘yilgan talabalarining kommunikativ kompetentsiyasini ta’kidlash sotsiolingvistik komponent, deyiladi ijtimoiy lingvistik kompetentsiya. Umuman olganda, respublikamiz oliv o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘rganayotgan filolog talabalar ingliz tilidagi vaziyatlar, ijtimoiy muammo mavjud to‘g‘ri nutq xatti-harakati ijtimoiy bilim va tushuncha til vositalarining ikkala variantini tanlashga ta’sir qiluvchi omillar va umuman olganda y yoki bu tilni ijtimoiy jihatdan to‘g‘ri qurish ingliz tilida turli xil kommunikativ muloqotning ijtimoiy-situatsion shartlari bo‘lib xizmat qiladi.

Filologiya yo‘nalishi talabalarining ijtimoiy-lingvistik kompetensiyasi ingliz tilini o‘rganuvchilar, nutq haqiqatdan kelib chiqadi xulq-atvorga turli xil biologik ta’sir ko‘rsatadi (fiziologik) va ijtimoiy omillarni taklif qiladi muayyan og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan vositalarni tanlash aloqa ifodalari (nutq odobi, intonatsiya nutq parametrlari, ijtimoiy belgilangan lug‘at va boshqalar nutq belgilari) ma’lum bir ijtimoiy kontekstda, qaysi va sotsiodiolektlar vakillarining nutq portretini shakllantiradi. Ingliz tilini o‘rganayotgan filologiya talabalari oldida chet til

---

<sup>8</sup> Kudryashova O.V. Komponenti kommunikativnoy kompetentsii pri obuchenii pismennoy rechi. // «Vestnik YuUrGU», 2007, № 15.

o‘qituvchisi bo‘lishni rejalashtirish unga tegishli bo‘lgan asoslarni o‘zlashtirish uchun namunali filolog-o‘qituvchisi bo‘lishi, kelajakda olgan bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llash kasbiy maxoratni o‘sirish talabaning oldida turgan eng katta va ma’suliyatli vazifa hisoblanadi.

Filologiya yo‘nalishini bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar shakllantirish bo‘yicha taqdim etilgan davlat ta’lim standartlarida chet tili lingvistik kompetentsiya, xususan nutqiy kompetentsiya (tinglash, gapirish, o‘qish, yozish) va til kompetensiyalari (fonologik kompetentsiya, leksik kompetentsiya, grammatik kompetentsiya) puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish sifatini takomillashtirish quyidagi omillar bilan bevosita bog‘liqdir:

1) ingliz tilini biladigan yuqori malakali yangi avlod mutaxassislariga ehtiyojning oshib borishi;

2) oliy ta’lim muassasasiga qabul qilingan birinchi kurs talabalarining ingliz tili bo‘yicha savodxonligi pastligi;

3) talabalarning o‘zga tilga xos kommunikativ kompetentsiyalarni turli darajada o‘zlashtir-ganligi;

4) o‘zga tilga xos kommunikativ kompetentsiya-larni o‘zlashtirishda talabalarning o‘quv-metodik individualligini ta’minalashga yo‘naltirilgan o‘quv adabiyotlarining etarli emasligi va h.k.

Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayoni sifatini oshirishning samarali yo‘llarini izlash bir paytning o‘zida turli yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Nofilologik oliy ta’lim muassasalari ingliz tili kurslarida muloqotning kasbiy va ijtimoiy sohalari bilan bog‘liqlikda talabalarni nutqiy faoliyatga maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tayyorlash asosiylar maqsad sifatida belgilangan. Mualliflar turli yo‘nalishlar bilan bog‘liq dasturlarni ishlab chiqishsada, yagona maqsad sifatida C.K.Lelyushkina tomonidan aniqlangan «nostandard echimlar, murakkab so‘zlarni o‘rganish, tilga oid noodatiy nutqiy vosita, usullarni egallah, fikrlashni shakllan-tirish» ga yo‘naltirilgan o‘zga tilga xos nutqiy ko‘nikmalarni samarali o‘zlashtirishni ta’minalash belgilab olingan.

Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishning umumqabul qilingan yo‘nalishlari sifatida kontekstli va kasbiy-yo‘naltirilgan ta’lim aks etadi. Talabalarning bo‘lajak mutaxassislik bilan bog‘liqlikda lingvistik tayyorgarligini shakllantirishda kasbiy yo‘naltirilgan ta’limning tayanch kontsepti sifatida kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirishning kommunikativ indikatorlarini aniqlashtirish uchun “sifat”, “o‘qitish sifati”, “o‘qitish sifati parametrlari” tushunchalari mohiyatini aniq-lashtirib olish zarur.

Sifat tushunchasi falsafiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlarga ega bo‘lib, y keng ma’noli va ko‘p o‘lchamlidir. Unga nisbatan tasavvur esa inson tafakkuri rivojining turli davrlarida o‘zgarib borgan.

Mashhur olim Arastu sifatni predmetlar orasidagi farqlar, “yaxshi-yomon” belgilari bilan ajratish, deb ta’rif bergan. Y sifatning tabiatini tizimli tarzda tadqiq qilib, sifat tasnifini bergen, moddiy narsalar sifatining ierarxik tuzilishi haqidagi tushunchalarni ishlab chiqqan, miqdorga “sifat” jihatidan tavsif bergen.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitish sifatini boshqarish masalasini tadqiq etgan F.Saidova sifat parametrlari va indikatorlari bo‘yicha alohida izlanishlarni amalga oshirmagan bo‘lsada, uni boshqarish bilan bog‘liq xususiyatlarni quyidagi tarzda talqin etgan: “Ta’lim sifatini boshqarish deganda, loyihalashtirishni ta’minalash, ta’lim jarayonlari sharoitlariga erishish va qo‘llab-quvvatlash, uni amalga oshirish va buning natijalari tushuniladi. Ta’lim jarayonining y yoki bu unsurlarini emas, balki bu unsurlarning xususiyatlari, ularning ma’lum me’yorlarga mosligini boshqarish kerak. Ammo bu hodisaning eng aniq va to‘liq ta’rifi ta’lim jarayoni sifat ko‘rsatkichlarini tartibga solishga qaratilgan natijalar orqali ta’lim sifatini boshqarish g‘oyasiga asoslanadi”.

Demak, nofilologik oliy ta’lim muassasalari talabalarining chet tillarni o‘rganish jarayonida ijodiy faolligini rivojlantirish va o‘qitish sifatini baholash uchun quyidagi sharoitlarni amalga oshirish zarur:

- kommunikativ-ta’limiy muhitni yuzaga keltirish;
- ta’lim jarayonida talabalar motivatsiyasini kuchaytirish;

- talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish;
- o‘quv mashg‘ulotlarida zamonaviy interfaol metodlar, texnologiyalarning doimiy qo‘llanilishi;
- o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik vositalar majmuasi bilan jihozlangan o‘quv xonalarda olib borilishi;
- nofilologik oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish bosqichlarining mavjudligi.

## **1. BOB. INTEGRATSIYALASHGAN REPRODUKTIV NUTQ**

### **MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

#### **1.1. Chet til o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuvning psixologik omillari**

Barkamol insonni tarbiyalash vazifalari dolzarbligi xususida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday deganlar: “Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o‘rtaga qo‘yilgan maqsadlarga erishish o‘zlariga bog‘liq ekanligini, ya’ni bu narsa ularni sobit qadam, g‘ayrat shijoatiga, to‘la-to‘kis fidokorligiga va chinakam mehnatsevarligiga bog‘liq ekanini anglab etsin”<sup>9</sup>.

Dunyodagi siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy soxalardagi integratsiyalashuv va globallashuv ingliz tilini xalqaro muloqot tili sifatida shakillanishiga olib keldi. Bu esa mamlakatimizda ham ingliz tilini o‘rganishga alohida e’tiborni shakillantirdi. O‘zbekistonning kelgusidagi taraqqiyotida va xalqaro xamjamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida ingliz tili muxim vosita bo‘lib, xizmat qiladi. Bu esa ta’lim sifatiga yangi, yanada kengroq talablar qo‘ymoqda, hamda tegishli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev ta’kidlaganidek, keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarning mohiyati "iqtisodiy rivojlanishning strategik maqsadlariga erishishda faol ishtirok eta oladigan malakali kadrlar tayyorlash"<sup>10</sup> dan iborat. Ushbu murakkab jarayonda fundamental tizim ta’lim tizimidir, bu erda yuqori malakali va raqobatbardosh o‘qituvchilarni shakllantirish samaradorlikning asosiy omili hamda mamlakatning har qanday sohasini uzoq muddatli rivojlantirish hisoblanadi.

Hozirgi davrda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalashuvi insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqazo etmoqda.

<sup>9</sup> Karimov I.A. Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug‘. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992.-62 b.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagги 610-sonli Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori. Lex.uz.

Yurtimiz dunyoga mashhur buyuk olimlar vatanidir, ularning bu darajaga erishishlari uchun xorijiy tillarni egallaganliklari ham sabab bo‘lgani sir emas, masalan, Abu Rayhon Beruniy 150 ta tilni bilish bilan birga 20 ta iste’moldan chiqqan, ya’ni “o‘lik” hisoblangan tillardan ham foydalangan. Abu Nasr Forobiy 100 dan ortiq tillarni mukammal bilgan va 10 ga yaqin “o‘lik” tilni to‘liq o‘zlashtira olgan. Qomusiy alloma Abu Ali ibn Sino arab, fors, turk, lotin va so‘g‘d tillarining bilimdoni hamda ajoyib tilshunos ham bo‘lgan. Buyuk sohibqiron Amir Temur ona-tili turkiy tildan tashqari fors-tojik va mo‘g‘ul tilini ham bilgan.<sup>11</sup>

Vatandoshimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Oyna” jurnalida millat taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart ekanligini ta’kidlagan. Til o‘rgatish va o‘rganish ildizlari qadimgi tsivilizatsiyaga borib taqaladi. Qadimda til o‘rgatish diniy ta’limotni o‘rganish asosida olib borilgan.

Dunyo miqyosida chet tili o‘qitish metodikasi tarixi ko‘plab tilshunos-metodist olimlar (O.Esperson, L.G. Kelli, V.E.Raushenbax, D.Kristal, A.P.Xovat, J.C.Richards va T.C.Rojers, Ya.Noordegraaf va F.Vonk, A.Mirolyubov) tomonidan tadqiq qilingan va qilinib kelinmoqda.

O‘zbekistonda chet tili o‘qitish tarixining ma’lum bir davri (XIX asrning 70-yillaridan to XX asrning 90-yillarigacha) metodist R.A.Zaripova tomonidan o‘rganilingan.<sup>12</sup>

Yurtimizda chet tili o‘qitish tarixini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganishni lozim deb topdik:

I bosqich – to 1924 yilgacha;

II bosqich – 1924-1961 yillar;

III bosqich – 1961-1991 yillar;

IV bosqich – 1992 yildan hozirgacha.

Dastlabki uch bosqich sobiq sovet tuzumidagi davrni o‘z ichiga oladi. Oxirgi bosqich esa, istiqlol yillaridagi ijtimoiy, siyosiy hayotning turli sohalaridagi ijobiy o‘zgarishlarga asoslanganligi bilan katta ahamiyatga ega. So‘ngi yillarda

<sup>11</sup> G’ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T:O‘qituvchi, 1987. –255 b.

<sup>12</sup> Muxaeva T.V. Metodika provedeniya sinteticheskogo chteniya na angliyskom yazike v 5 klasse. Dis. ... kand. Ped. Nauk.. -M.: 1975.

ta’limda keng qo‘llanilayotgan pedagogik texnogiya xususida so‘z yuritganda eng avvalo ta’lim oluvchi bilan ta’lim beruvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch asosiga qirilgan hamkorlik orqali oldinga qo‘yilgan ta’limiy maqsadga erishishini kafolatlaydigan tizimli yondashuv tushiniladi.

Integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllantirishda tilni o‘rganishda psixologik omillarga ham e’tibor berish muhimdir. Ma’lumki, ta’lim jarayonining samaradorligi talabalarlarni ma’lum faoliyatga undovchi ularni ushbu faoliyatni bajarishga qiziqtiruvchi sabab bu bajarilayotgan ish natijasidan manfaatdorliga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli leksik mashqlarni tanlashda sub’ektiv omillarni inobatga olish zarur. Bundan tashqari, ushbu tanlovda til o‘rganuvchi talabanint yoshi bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlash, tafakkur, eslab qolishga ilinjidagi farqlar ham albatta hisobga olinadi. Ilmiy adabiyotlarda har bir yosh ruhiy shakllanuvchi psixologik xususiyatlar orasida talabalarning barcha psixologik sifatlarini shakllanish bosqichida turuvchi asosiy bog‘lanishni farqlash muhim uslubiy ahamiyat kasb etishligi qayd etilib kelinmokda:

1) Uzluksiz ta’limda talabalarlarning chet tili o‘rganishida o‘zlashggirilayotgan o‘quv materialiga va bajarilayotgan o‘quv faoliyatiga nisbatan bo‘lgan shaxsiy manfaatdorlik va qiziqish darajasiga katta e’tibor beriladi;

2) fikrlash xotirani rivojlantirishda etakchi o‘rin egallashi, ya’ni mantiqiy xotirada saqlab qolishning mexanik yodlashdan ustuvorligi ta’kidlanadi.

O‘rganilayotgan ma’lumotga e’tiborni kuchaytirib, diqqatni shakllantirish va takomillashtirishning o‘ziga hos xususiyatlarini ham kiritish lozim. Bu xususiyat talabalarlarning o‘quv materialini ahamiyatini, uning amaliy natijasini baholashda o‘z aksini topadi. O‘quv materialining ahamiyatini tushungan talabalar uni o‘zlashtirishga faol kirishadi. Agar o‘quv materiali unchalik zarurdek tuyulmasa, unga bo‘lgan munosabat kuchsizlanadi. Ayni shu xildagi psixologik xususiyatlar asosida talabalarning xorijiy leksikani o‘zlashtirishda qo‘l keladigan mantiqiy asoslangan o‘quv faoliyati yuzaga keladi. Talabalarlar tomonidan leksikani o‘zlashtirishda o‘zlarining bilimlarini bir tizimga solishga urinishlari muhimdir.

O‘zlashgirilgan bilimlarni ma’lum bir tizimga solishga intilish ko‘nikmasini shakllantirishning ta’lim jarayonida tutgan o‘rniga alohida e’tibor berish lozimligi olimlar tomonidan alohida ta’kidlangan. Haqiqatdan ham, talabalarlar o‘zlar o‘zlashgirgan bilimlar miqdori hajmidai, ya’ni voqeа-hodisalar to‘g‘isidagi ma’lumotlardan to‘liq qoniqmaydilar va o‘z bilimlar doirasini kengaytirish, to‘ldirish va tartibga solish ehtiyojini sezadilar. Bildirilgan fikrlardan ikki muhim xulosaga kelish mumkin: o‘quv materiali talab qilingan darajada to‘liq, barcha kerakli ma’lumotlarni qamragan holda berilishi lozim; talabalarlarning o‘quv faoliyati esa ularning to‘liq va tizimlashgan ma’lumot olishiga yo‘naltirilishi kerak.<sup>13</sup>

Shuning uchun, talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun maqsadlarni va maqsadga erishuvni belgilash kerak. Bu omillarni o‘rganish uchun muzokaralar va taqdimotlar ko‘rsatish mumkin. Hamda, talabalarning tilni o‘rganishda xatolarni hamkorlik bilan tuzatish va ularni muhokama qilish muhimdir. Bu omillarni o‘rganish uchun guruh ishtirokidagi muhokamalar, bir sahifani birlikda yozish va topshiriqnomalar tayyorlash kerak. Bu asoslar talabalarning tilni o‘rganishda muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydi.

Til o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuvning psixologik omillari hamda asosiy maqsadlari yordamchi bo‘ladi. Bu omillar talabalarning manfaatlarini ko‘paytiradi va ularning tilni o‘rganish protsessidagi muvaffaqiyatini ko‘rsatadi. Ularni quyidagi tasniflarga ajratib chiqish mumkin:<sup>14</sup>

1. Motivatsiya: Integratsiyalashgan yondashuvning birinchi psixologik omili motivatsiyani oshirishdir. Talabalar tilni o‘rganishni boshqa fanlardan ayrishganda, ularning motivatsiyasi kamayishi mumkin. Integratsiyalashgan yondashuvning maqsadlariga to‘g‘ri kengash berilishi yordamida, talabalarning motivatsiyasi oshiriladi.

2. Tez o‘rganish: Integratsiyalashgan yondashuvning ikkinchi psixologik omili tez o‘rganishni ta’minalashdir. Bu, talabalarning tilni o‘rganish protsessini

---

<sup>13</sup> Alimov F.Sh. «Learn writing (kimyo-biologiya fakulteti talabalar uchun). – T.: «Akademnashr, 2010. -118-b

<sup>14</sup> Alimov F. Effective ways of improving the written speech skills of the nonphilological faculty students/Eastern European Scientific Journal. № 3. [www.Auris-Verlag.de](http://www.Auris-Verlag.de) Germany.2016. P. 156-158.

tezlashtiradi va ularning tilni muvaffaqiyatli o‘rganishlari uchun zamon yaqinlashadi.

3. Yangiliklar va amallar: Integratsiyalashgan yondashuvning uchinchi psixologik omili yangiliklar va amallarni o‘rganishni ta’minlashdir. Ushbu yondashuvning maqsadlariga mos kengash berilishi yordamida, talabalar yangiliklar va amallarni o‘rganish orqali tilni o‘rganish protsessini ko‘paytiradi.

4. Aloqa: Integratsiyalashgan yondashuvning to‘rtinchi psixologik omili aloqani oshirishdir. Bu, talabalarning tilni o‘rganish protsessidagi kengash berilishi, muhokama va muloqotlar orqali tilga bog‘liq savollarni yordam berish orqali aloqani oshirishga yordam beradi.

5. Talabalarning manfaatlanishi: Integratsiyalashgan yondashuvning beshinchi psixologik omili talabalarning manfaatlanishini ko‘paytirishdir. Ushbu yondashuv talabalarning tilni o‘rganish protsessidagi muvaffaqiyatlarini ko‘paytiradi va ularning tilni muvaffaqiyatli o‘rganishlari uchun zamon yaqinlashadi.

Taklif qilingan barcha psixologik omillar talabalarning tilni o‘rganish protsessini tezlashtiradi va ularning muvaffaqiyatli o‘rganishlariga yordam beradi. Integratsiyalashgan yondashuvning maqsadlariga mos kengash berilishi, muhokama va muloqotlar orqali tilga bog‘liq savollarni yordam berish orqali aloqani oshirishga yordam beradi. Bu omillar talabalarning tilni o‘rganish protsessidagi muvaffaqiyatlarini ko‘paytiradi va ularning tilni muvaffaqiyatli o‘rganishlari uchun zamon yaqinlashadi.

Chet tili o‘qitish metodikasining psixologik negizini tashkil qiluvchi faktlar bilan aloqasini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Psixologiya jonli mavjudotni ruhiy (psixik) faoliyatini shakllanishi rivojlanishi bilan bog‘liq ekan, shug‘ullanar ekan, uning metodika bilan aloqada bo‘ladi.

Yosh psixologiyasi talabalarlarni yoshiga qarab ruhiy xolatini bizga o‘rgatadi. Nutq psixologiyasi esa, talabalarga nutqni o‘rgatishda sodir bo‘ladigan psixologik xolatlarni o‘rgatadi. Pedagogik psixologiyada talabalarlarga ta’lim

tarbiya berishdagi psixologik xususiyatlar, xolatlar bilan tanishtiriladi. Psixolingvistika tilshunoslikni bir qismi bo‘lib, y fikr, gapni nutqqa kommunikativ fikr (informatsiya) olmoshiga fikrga to‘g‘ri kelish - kelmaslik jaraenlarini o‘rgatadi. Uning ma’lumotlari metodikaga nutqni hosil bo‘lish va qabul qilish qonuniyatlarini tushuntirib beradi, nutqni o‘rgatishda usul, yo‘llarni, metodlarni mashqlarni tanlashda èrdam beradi. Psixolingvistika nutq- mexanizmini uning shakllanishi, nutqni taniy olish, tushuna olish masalasi bilan shug‘ullanadi. Metodikaga psixologiya til materiallarni esda saqlash holat, xususiyatlari bilan tanishtiradi. Yuqorida aytilgan psixologik holatlar metodikaga, o‘qituvchiga ingliz tilini o‘rgatishda, tashkil qilishda èrdam beradi. Unga qarab o‘kituvchi metodni tanlaydi, xatoni oldini oladi.

Chet tili o‘rgatish psixologiyasi ham metodika bilan chambarchas aloqadordir. Bu fan chet tillarni o‘rgatishda o‘rganuvchida sodir bo‘ladigan psixologik holat, xususiyatlar bilan tanishtiradi, bu esa o‘z vaqtida metodikani tashkil qilishda yordam beradi. Bu fan bo‘yicha B.V.Belyaev, V.A, Artemev shug‘ullanganlar. Hozir esa I.V.Zimnyaya va boshqa olimlar shug‘ullanayaptilar.

Psixologik nuqtai nazardan nutq faoliyatlarini reproduktiv va reproduktiv nutq faoliyatlariga bo‘linadi. Umuman og‘zaki nutq, èzma nutq, ichki nutk, tashqi nutq bo‘lishi mumkin. Nutq til nuqtai nazaridan kambag‘aldir, chunki nutqda tilni kam materiallini ishlataladi. (Agar yozuvchi o‘z asarlarida 15-20 ming til materialini ishlatsa, y eng taniqli so‘z ustasi hisoblanadi. Vaholanki V.A. Artemovni aniqlashicha ingliz tilida 200000 ta so‘z bor. O‘zbekistonning tilshunos yosh olimi, 10 ta lug‘at muallifi Begzod Mo‘ydinovning monografiyalariga suyansak ingliz tilida 3 million 600 ming ta so‘z hamda so‘z brikmalar mavjud.)<sup>15</sup>

Nutkda informatsiya manbai insondir, y insonsiz sodir bo‘lishi qiyin, tilsiz aloqa qilib bo‘lmaydi, lekin y har tilda har xil bo‘lishi mumkin.

Og‘zaki nutq tinglab tushunish va gapishtishga bo‘linadi, o‘zining tuzilishni bo‘yicha y yozma nutqdan ko‘p farq qilmaydi. Lekin og‘zaki nutq xususiyatlariga

---

<sup>15</sup> Piofovskiy R.G., Bilan V.N., Borkun M.N ,Bobkov A.K. Metodi avtomaticheskogo analiza i sinteza teksta. - Minsk: Vùsheyshaya shkola, 1985.

ega bo‘lgan so‘zlar ko‘pincha yozma nutq xususiyatiga ega emasdir va teskarisi. Og‘zaki nutq og‘zaki shaklda, yozma nutq yozma shaklda sodir bo‘ladi.

Chet til o‘rganayotgan talaba so‘zlovchining nutqini tinglab anglaydi, tushunishga intiladi, o‘zining nutqini ichki nutqida ifodalagani uchun tashqi nutq qilmaydi.

Retseptiv nutq tinglab tushunish va tekstni o‘qiganda ma’lumotni qabul qilishga asoslangan nutq faoliyatları tushuniladi.<sup>16</sup>

Reproduktiv nutqda esa gapirish va yozma nutq orqali hosil qilinadigan nutq faoliyati tushuniladi.

Nutq faoliyatlarini sodir bo‘lishida qabul qilish, tushunish, esda saqlash muhim o‘rin tutadi.

Bu nutq faoliyatlarini shakllantirishda, o‘rgatishda ko‘nikma malaka hosil kilinishi kerak, bularni hosil qilinish xususiyatlarini psixologiya aniqlab beradi.

Bular psixologik atamalar tushunchalardir. Talabalarlar qabul qilgan materiallarni fikrlaydi, qaytaradi, esda saqlashga harakat qiladi. Ular qaytarilib, avtomatlashtiriladi, ko‘nikma malakaga, bilimga aylanadi. Habits - Ko‘nikma yoki rasm, odat deganda bir-biri bilan bog‘langan harakatlarini, ish turlarini, faoliyatlarini bajarib, til materiallarni ko‘p qaytarilishida talabalarlarni til materiallarini amaliy qo‘llay oladigan qilib o‘rganib olish degani.

Mahorat, ustalik, malaka deganda esa (skills) ko‘nikmani, materillarni ko‘p qaytarilishi natijasida avtomatlashtirishdir ya’ni til materialini talabalar avtomatik tarzda qo‘llay oladigan bo‘lishidir. Ko‘nikma malaka hosil qilingandan keyin y bilimga aylanadi.<sup>17</sup>


Demak: nutqni reproduktiv egallash: Habits -Ko‘nikma Skills; Nutqni reproduktiv egallash: Malaka Knowledge – Bilim deb qarashimiz mumkin.

Pedagogik psixologiya ko‘nikma-malakalarini hosil bo‘lish, shakllanish xususiyatlarini o‘rgatadi.

### Nutqni reproduktiv egallash

<sup>16</sup> Raxmonov I.V. Problema reproduktivnogo i reproduktivnogo ovladeniya inostrannim yazikom v sredney shkole. / / IYaSH. -1954. - №3. 83.Raxmanov I.V. Metodika prepodovaniya nemetskogo yazika. -M.:Izd-vo APN RSFSR, 1956.

<sup>17</sup> G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T:O‘qituvchi, 1987. –255 b.



O‘quv faoliyatining o‘qitishi natijasida talaba egallashi va bajarishi lozim bo‘lgan harakatlar, ular tomondan erishilgan natijalarni ob’ektiv baholash va belgilangan maqsadga mosligini aniqlash imkonini beradi, aniq, lo‘nda va fe’l shaklida shakllantiriladi, tugallangan harakatni bildiradi. Bu qo‘yilgan vazifalarga erishish yo‘lida, ta’lim oluvchilar uchun muhim va aniq foydalanuvchiga mo‘ljallangan maxsulot ko‘rinishida rasmiylashtirilgan, muammoni echish yo‘lidagi ta’lim oluvchilarning belgilangan izchillikdagi harakatlarini ifodalaydi. Tilni egallah psixologiyasini ko‘zda tutadi ya’ni turli nutq faoliyatining lingvopsixologik xususiyatlari va uning mexanizmlarini, til muhiti bo‘lmagan sharoitda chet tili egallah qonuniyatları, turli xil xotiralarning, motivatsiyaning o‘rinlarini ko‘zda tutadi. Psixologiya nutq faoliyatini realizatsiyasi (amalga oshirilishi) usullari deb gapirishni, tinglab tushunishni, o‘qishni, yozuvni tushunadi. Psixofiziologiya esa nutq mexanizmi deb analizatorlarning yig‘indisini ya’ni tinglash, nutq-mator, ko‘rish, xarakat (dvigatelniy) analizatorlarni tushunadi. Gapirayotgan ham, tinglayotgan ham gapiradi, lekin birinchisi ovoz chikarib ikkinchisi esa ichida ovoz chiqarmay gapiradi.

Har bir insonning ijtimoiy olam bilan aloqasi avvalo uning reproduktiv faoliyati bilan bog‘liq. Tashqi olamni bilish insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq me’yorlari doirasidagi harakatlarida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy muhit-bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida

faoliyat ko‘rsatadigan dunyosidir. Psixologiya ilmining namoyondalari bo‘lmish olimlarning butun bir avlodni ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobi, A. Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham ko‘rib qabul qilish, eshitish (tinglab) qabul qilish bilan bog‘liq masalalarni ish faoliyatlarida yoritib berishgan hamda ilmiy asoslab berganlar. Bu o‘zaro bog‘liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o‘zlarining eng durdona asarlarini bag‘ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo‘lgan narsa shu bo‘lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o‘rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqeい, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rni bilan belgilanishi kerak.<sup>18</sup>

Lekin, shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil echimga kelinmagan. Bu o‘zaro munosabatlar asosan ikki qutub nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Yangilanayotgan jamiyatning eng muhim muammolaridan biri inson tafakkurini shu jamiyat taraqqiyoti bilan psixologik uyg‘unligini ta’minlash orqali ijodiy qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmlari isonlarning ijodkorligi, faolligini kuchaytirishga qaratilgan. O‘z qobiliyati va ijodkorligiga tayanib ish tutish farovonlikning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li ekanligini barcha anglab etmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda “..inson va fuqaroning fikrlashi va dunyoqarashi o‘zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to‘xtovsiz o‘sib bormoqda”. Mustaqillik tufayli tafakkur tarbiyasi, ong ustivorligi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Darhaqiqat, inson ongi va tafakkurida o‘zgarishlar yuz bermaguncha, uning dunyoqarashi yangi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mazmunini o‘zida ifoda etmaguncha, samarali faoliyat ko‘rsatib bo‘lmaydi.<sup>19</sup>

<sup>18</sup> Raxmonov I.V. Problema reproduktivnogo i reproduktivnogo ovladeniya inostrannym yazikom v sredney shkole. // IYaSH. -1954. - №3. 83.Raxmanov I.V. Metodika prepodovaniya nemetsskogo yazika. -M.:Izd-vo APN RSFSR, 1956.

<sup>19</sup> Qodirov B.R. Aqliy iste’dod XXI asrning eng qimmatli mulkidir. TDPU. 1999. // O’zb. Resp. Psixologlari. T.: 2001. – 99 b.

Retseptiv faoliyatni inson hayotida tutgan o‘rni hususidagi sharq allomalarining fikrlari ham ushbu masalani yanada chuqurroq o‘rganib, tahlil qilishga yordamberadi.

“Ikkinchi muallim” nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Forobiy “Har qanday bilish dastavval, o‘zini qurshab turgan olamdagি narsa va hodisalarни kuzatishdan boshlanadi. Chunki tafakkur faoliyati bilan hosil qilingan mohiyat o‘zining tabiiy asosidan oldin bo‘lishi mumkin emas. Bilishdan maqsad haqiqatga erishmoqdir”, degan edi.

Bilish – voqelikning inson tafakkurida aks etish va takror hosil bo‘lishni o‘z ichiga olgan reproduktiv jarayondir. Bilishning maqsadi ob’ektiv haqiqatga erishishdir. Bilish jarayonida kishilar real hodisalar haqida bilimlar tushunchalar orttiradilar, olamni anglaydilar va eng muhimi bu bilimlardan amaliy faoliyatda o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanadilar. Retseptiv faoliyatda inson sezgi organlari orqali narsalarning xossasini, xususiyatlarini his qiladi, aqliy bilish tufayli ularning moddiy asosini, mohiyatini anglaydi. Ong faqat ob’ektiv olamning in’ikosini emas, balki insonning o‘z ruhiy faoliyatini anglashini ham o‘z ichiga oladi.

Integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllantirishning lingvodidaktik asoslari talabalarga tilni o‘rganish va undagi muammolarni hal qilish uchun kerakli bo‘ladi. Bu asoslar yuqorida keltirilgan savollarga javob beradi va tilni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi.

1. Tilni o‘rganishda tezkorlikni ta’minalash: Integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllantirishda tezkorlikni ta’minalash muhimdir. Tilni o‘rganishda dasturlar va usullardan foydalanish mumkin, masalan, tilni bir necha jihatdan o‘rganish, testlar va ma’lumotlar bazalaridan foydalanish kabi.

2. Tilni o‘rganishda aktivlikni oshirish: Integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllantirishda faollikni oshirish muhimdir. Tilni o‘rganishda mashqlar, rolli o‘yinlar va muzokaralardan foydalanish mumkin.

3. Tilni o‘rganishda harakatlarni dasturlash: Integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllantirishda tilni o‘rganishda harakatlarni dasturlash muhimdir.

Masalan, tilni o‘rganish uchun video, audio va tekst materiallaridan foydalanish mumkin.

4. Tilni o‘rganishda ta’limning tartibi: Integratsiyalashgan nutqiy malakalarini shakllantirishda tilni o‘rganishda ta’limning tartibi muhimdir. Masalan, tilni boshlab o‘rganish, so‘zlarni yod qilish, grammatikani o‘rganish, amaliy mashqlarni bajarish kabi.

5. Tilni o‘rganishda o‘ylash va taqqoslash: Integratsiyalashgan nutqiy malakalarini shakllantirishda tilni o‘rganishda o‘ylash va taqqoslash muhimdir. Masalan, tilni o‘rganish uchun muammolarni yozib, ularga yozish va undagi tartibni o‘rganish kabi.

Shuni ta’kidlashimiz lozimki, ingliz tili o‘qitish vazifasiga katta ma’suliyat bilan yondashish talab qilinayotgan ayni vaqtda, bu ma’suliyat eng avvalo, ko‘proq yosh kadrlarning zimmasiga tushadi. Buning uchun bo‘lajak kadr va ingliz tili o‘qituvchilarining metodik va pedagogik malakalarini oshirish va ularni kerakli metodik baza bilan ta’minalash zarur. Buning barobarida, respublikamizdagi barcha o‘rta maxsus o‘quv muassasalarida, litseylarda, oliy o‘quv yurtlarida talabalarga metodika darslari soatlarini ko‘paytirish, mavjud lingvistik bilimlarni bolalarga, talabalarga berishni psixologiya va pedagogika fanlari bilan uyg‘un holda olib borish ko‘zda tutiladi.

Nutq malakalarini shakllantirishning nazariy asoslari atrofida, ko‘pchilik hamda bir nechta asosiy qo‘sishchalar mavjud:

1. Tahliliy modellashtirish: Bu modellashtirishda, nutq malakasi tahlil qilinadi va uning muhim xususiyatlari, masalan, tezlik, quvvat, energiya sarfi, tahliliy qiymat va boshqalarni aniqlash uchun matematik modellar qo‘llaniladi.

2. Texnologik modellashtirish: Bu modellashtirishda, nutq malakasining shakli va xususiyatlari, uning ishlash tizimi, texnologiyasi va uning ishlov qo‘yish tartibi bo‘yicha modellar qo‘llaniladi.

3. Kompyuter modellashtirish: Bu modellashtirishda, kompyuter dasturlaridan foydalanadi va uning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha nutq malakasini shakllantiriladi.

4. Tasvirlash: Bu modellashtirishda, nutq malakasini tasvirlashda qo'llaniladi. Unda, nutq malakasining shakli, quvvati, tezligi va boshqa xususiyatlari tasvirlanadi.

5. Eksperimental modellashtirish: Bu modellashtirishda, nutq malakasining ishlash tizimi va xususiyatlari bo'yicha o'zgartirishlarni ko'rib chiqish uchun eksperimentlar o'tkaziladi.

Ushbu asoslar boshqa amallar bilan birga qo'llaniladi va nutq malakalarini shakllantirishda ko'proq yordam beradi.

## **1.2. Integratsiyalashgan nutqiy malakalarini shakllantirishning lingvovidaktik va pedagogik asoslari**

Ta'limdagi an'anaviy o'qitish bilan innovatsion yondashuvni qiyosiy tahlil qilish orqali innovatsion yondashuvning samaradorligi aniqlab berildi. Nutqiy mexanizmni shakllantirish, nutqiy faoliyat nazariyasi, tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishning psixologik xususiyatlari, mazkur monografiyaning psixologik asosini tashkil qildi. O'quv jarayonini kuzatish, o'qish strategiyalarining unumli qo'llanishi va talabalar bilan suhbat reproduktiv nutq malakalarini shakllantirish jarayonidagi psixologik qiyinchiliklar (orfografik qoidalarni bilmaslik, xato qilishdan qo'rqish, motivatsiyani yo'qligi)ni aniqlashga, tahlil qilishga va ularni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqishga yordam berdi.<sup>20</sup>

Nutq faoliyati turlari quyidagilardan iborat:

1. Ma'naviy nutq faoliyati - bu ma'naviy masalalarga bog'liq nutq faoliyatidir. Masalan, ma'naviy muammolar, ibodat, moral va etikadorlik kabi masalalarga bog'liq nutq faoliyati.

2. Siyosiy nutq faoliyati - bu siyosiy masalalarga bog'liq nutq faoliyatidir. Masalan, davlat siyosati, milliy tartibot, munosabatlar va boshqa siyosiy masalalarga bog'liq nutq faoliyati.

---

<sup>20</sup> Alimov F.SH. «Learn writing (kimyo-biologiya fakuliteti talabalari uchun). – T.: «Akademnashr, 2010. -118-b

3. Iqtisodiy nutq faoliyati - bu iqtisodiy masalalarga bog‘liq nutq faoliyatidir. Masalan, iqtisodiy rivojlanish, tijorat, investitsiyalar, savdo va boshqa iqtisodiy masalalarga bog‘liq nutq faoliyati.

4. Ilmiy nutq faoliyati - bu ilmiy masalalarga bog‘liq nutq faoliyatidir. Masalan, ilmiy izlanishlar, nauka va texnologiya, monografiya va boshqa ilmiy masalalarga bog‘liq nutq faoliyati.

5. Tarixiy nutq faoliyati - bu tarixiy masalalarga bog‘liq nutq faoliyatidir. Masalan, tarixiy hodisalar, milliy tarix, davlat tarixi va boshqa tarixiy masalalarga bog‘liq nutq faoliyati.

Ta’lim, monografiya, ishlanma, tatbiq etish jarayonlarining aniq integratsiyasi ta’lim jarayonini yangilash sohasidagi asosiy mo‘ljal bo‘lib qoladi. Buning uchun o‘quv dasturlarini anchagina qayta ishlash, ta’limning loyiha shakllarini tatbiq etish talab qilinadi.<sup>21</sup>

Sir emaski, barcha pedagog kadrlar, ayniqsa, ingliz tili fanidan etishib chiqayotgan kadrlar va har bir ta’lim muassasa professor-o‘qituvchilari qaror qabul qilinishining sabablari, qarordan ko‘zlangan maqsad, qaror doirasida bajariladigan ishlar xususida batafsil ma’lumotga ega. Shu bilan birga qaror ijrosini ta’minalash yuzasidan o‘z mutaxassisliklari bilan uzviy holda o‘z javoblarini berib kelmoqdalar.<sup>22</sup>

Taklif etiladigan lingvodidaktik asoslar buyicha integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllantirishda tilni o‘rganishda talabalarga ko‘maklashadi va ularning tilni o‘rganishda tezkorlikni, faollikni oshirish, harakatlarni dasturlash, ta’limning tartibi, o‘ylash va taqqoslash kabi muhim amallarni bajarishga yordam beradi.

Didaktika o‘quv materialini tanlash, ta’lim tamoyillarini belgilash, ta’lim texnikasi va vositalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

---

<sup>21</sup> Qodirov B.R. Aqliy iste’dod XXI asrning eng qimmatli mulkidir. TDPU. 1999. // O‘zb. Resp. Psixologlari. T.: 2001. – 99 b.

<sup>22</sup> Sattarov T. Bo’lajak chet til o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. – T., 2003. –47-b.

“Didaktika” atamasi XVII-asr boshida nemis tilshunosi Wolfgang Ratixi-Ratke tomonidan “ta’lim san’ati” degan ma’noni anglatish uchun kiritilgan. Didaktika yunoncha “didaktikos” atamasidan olingan. “didaskalayon”, “o‘qitish” va “didaskaliya” o‘qituvchiga nisbatan ta’limni bildiradi "didaskalos" kabi so‘zlar ishlatilgan. "Lingvovidaktika" so‘zi 20-asrning ikkinchi yarmida til ta’limiga bag‘ishlangan ilmiy-metodik adabiyotlarda qo‘llanilgan.

Lingvovidaktika amaliyoti o‘zbek tilida “til ta’limi” deb ham ataladi. Lingvovidaktika tillarni o‘rganishning nazariy asoslarini, qonuniyatlarini ishlab chiquvchi fan hisoblanadi. U ko‘p tilli ta’lim, talabalarning til bilimi, til nazariysi, nutq funksiyasi va o‘qitish haqidagi fan sifatida shakllangan bo‘lib u ilk bor akademik A.M.Shatskiy tomonidan qo‘llanilgan<sup>23</sup>.

Tillarni o‘qitishning umumiy nazariyasi tilshunoslikdir.

Talabalarning uchta tilda - ona tili, ikkinchi til va chet tilidagi nutq faoliyati juda qizg‘in bo‘ladi. Ularning asosiy mas’uliyati talabalarga ma’lumotni uzatish va qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni ushbu tillarda o‘rgatishdir.

Lingvovidaktikaning o‘quv jarayonining maqsadlari, o‘zlashtirilgan mavzu va o‘qitish uslubi hamma narsada aniq ko‘rinadi.

Leksik ko‘nikmalarining shakllantirish masalasiga C.F.Shatilov diqqatga sazovor fikrlar bildirgan. Y ishlab chiqqan kontseptsiya asosida ham L.B.Itelson ta’limotidagi asosiy g‘oyalar yotadi: ya’ni til aspektlarini o‘rganishda talabalarda ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lishining asosiy bosqichi ko‘rsatiladi. Ammo, L.B.Itelsondan farqli o‘laroq C.F.Shatilov bu uch bosqichga qo‘yidagilarni kiritadi<sup>24</sup>:

- 1) nutq birliklari bilan talabalarni tanishtirish;
- 2) talabalarni nugq birliklari qo‘llaniladigan vaziyat bilan tanishtirish;
- 3) nutq birliklari situativ-variativ ko‘rinishlarini talabalarga "hazm" qildirish.

<sup>23</sup> Jalolov J.J. Jaxon lingvovidaktikasining zamонавиј контсептуал јангиланиш босқичи ҳусусида. Xоријиј филологија. Til-adabiyot-ta’lim. № 1.(30), 2009.

<sup>24</sup> Shatilov Sh.F. Metodika obucheniya nemetskomu yaziku v sredney shkole. Ucheb.posobie dlya studentov ped.in-tov po spets. № 2103 «Inostr.yaz.» 2-e izd., dorab-M.: 1986-223 s.

Metodika ilmining yirik namoyondasi C.F.Shatilov fonetik, leksik, grammatik ko'nikma va malakalarni hosil qilishga qaratilgan mashqlar ana shu uch bosqichga mushtarak holda tuzilishi kerak degan fikrni olg'a suradi. Masalan, leksikani o'rganishda standartizatsiyalash (bir qolipga tushirish) bosqichining mazmuni oxirigacha tushunarli emas, zero C.F. Shatilov standartizatsiyalash atamasi orqali o'zlashtirilayotgan so'zning namunaviy qurshovini ko'zda tugganmi, yoki alohida so'zni o'zlashtirishni nazarda tugganmi, ya'ni qaysi bir bosqich haqida gap ketayotganligini bilib olish qiyin. Agar ikkinchi holat ko'zda tutilgan bo'lsa, y holda uning o'zi leksik ko'nikmalarni hosil kilishda alohida bosqichni tashkil qilmaydi. Leksikani konekstual (situativ) qo'llanidishi esa uni o'rganishning ibtidosidayoq namoyon bo'lib, undan ko'nikma hosil qilining barcha bos qichlarida foydalaniladi. Ta'kidlash joizki, grammatikani o'rgatishda o'zini oqlagan uslublarni to'g'ridan-to'g'ri leksikani o'rgatishga ko'chirish hamma vaqt ham o'zini oqlay bermaydi. C.F.Shatilov ta'limotiga binoan leksik ko'nikma ikki qismdan iborat: nutqda so'zni qo'llash va nutq jarayonida so'z yasash. Y buni nutqiy leksik ko'nikmalar sirasiga kiritadi. Bu leksik ko'nikmalar takomillashib lisoniy leksik ko'nikmalarga aylanadi. Lisoniy leksik ko'nikma, olimning fikricha, nutqiy leksik ko'nikmaga qarama-qarshi o'laroq talabada noverbal lisoniy fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi, muloqot jarayonida esa unga tezkorlik va keng qamrovli jumlalar tuzish imkoniyatlarini beradi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan leksik ko'nikmalarni shakllantirish kontseptsiyalarining yagona umumiy, so'zsiz ijobiy tomoni bor: ularning negizida, ochiqcha e'tirof etilganmi, bundan qat'iy nazar, so'z aloqalari mikrosistemasini kengayuvchan evolyutsiyasi yotadi. Bu evolyutsiyada leksik ko'nikmalar shakllanishining psixologik va psixofiziologik mohiyati o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, y yoki bu so'z boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishganligi tufayli nutkda ishtirok etadi. Bu jarayonni psixofiziologik nuqtai nazardan talqin etadigan bo'lsak y yoki bu so'zning har safar nugkda ishlatilishi boshqa so'z va so'z birikmalari bilan muayyan grammatik va semantik aloqalarga kirishuvini guvohi bo'lamiz.

So‘z - o‘z potentsial aloqalar tiziminiing harakatga kelishi tufayli nugkda faollashadi. Shuning uchun ham leksikani o‘zlashtirish jarayoni oxir oqibat ularning semantik va grammatik aloqalarini o‘zlashtirishga, aniqrog‘i talaba ongida ma’lum bir tushunchalar hosil kilishga yordam beradi. Nutk, jarayonini o‘rganuvchi psixologlar va psixofiziologlar so‘z aloqalarining rang-barang turlari borligini ta’kidlaydilar va aloqalarning bir qancha turlarini aniqlaganlar. By aloqalar nugkda faolashishi uchun talaba ongida shakllanishi, stereotip nugq namunasi tusini olishi kerak. Shuning uchun ham leksik birliklarning asosiy grammatik va semantik aloqalariga nutqning asosiy stereotiplari to‘g‘ri keladi. Binobarin, leksik ko‘nikmalarini hosil qilish so‘z va so‘zga teng birikmalarning muayyan nutqiy stereotiplarini shakllantirishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.<sup>25</sup>

Ayrim psixolog va psixofizioglarning fikricha alohida olingan so‘zlarning (so‘z formalarining) stereotiplari, eng avvalo nominatsiya uchun, ya’ni moddiy borliqdagи predmet va xodisalarni nomlash uchun kerak. Nutq jarayonida so‘zlar alohida ajratilgan holatida ishlatilmasada, fikrning verballahish amaliyotida til paradigmatisida alohida-alohida mavjud bo‘lgan leksik birliga ham duch keladi. O‘tkazilgan qator monografiyalarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tildan o‘zlashtirilgan lug‘at boyligidan so‘zlashuv jarayonida erkin foydalanishning zarur shart-sharoitlardan biri xotiraga hech bir vostasiz (eslatishsiz) alohida so‘zлarni kelgirish va ularni ona tilidagi muqobilarga yashin tezligida bog‘laydigan "mikrotarjima stereotiplari"ni qo‘llashni taqozo etadi. Bunday stereotiplarni yaratish va qo‘llash nechog‘lik muhim ekanligini e’tiborga olmaslik shuni ko‘rsatdiki, talabalarda ana shunday ko‘nikmalar shakllanmasdan qoladi va bu erkin muloqot jarayonining yuzaga kelishiga to‘g‘anoq bo‘libgina qolmay, ko‘pgina hollarda nutq jarayonida so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirishidagi mantiqsiz holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Xorijiy tilni o‘rgatishning psixologik

<sup>25</sup> Rogova G.V., Rabinovich F.M., Saxarova T.11 Metodika obucheniya inostrannim yazikam v sredney shkole. -M.: Prosveshenie, 1991.

<sup>25</sup> Rogova G.V., Rabinovich F.M., Saxarova T.11 Metodika obucheniya inostrannim yazikam v sredney shkole. -M.: Prosveshenie, 1991.

va psixofizik asoslarini tadtirishga yo‘naltirilgan usul va vositalarni tanlashni talab qiladi.

Demak, Shatilov kontseptsiyasiga muvofiq nutq, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun quyidagi yondashuvlardan foydalanish kerak:

1. Til va madaniy kontekstlarning integratsiyasi. O‘qituvchi talabalarga ushbu til rasmiy bo‘lgan mamlakatning tili va madaniyatini tushunishga yordam beradigan materiallardan foydalanishi kerak. Masalan, mamlakat madaniyati va an’analarini aks ettiruvchi kitoblar, filmlar, musiqa va boshqa materiallardan foydalanish.

2. Kommunikativ yondashuv. O‘qituvchi talabalarning chet tilda gapirish, tinglash, o‘qish va yozish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan mashg‘ulotlardan foydalanishi kerak. Masalan, munozaralar, o‘yinlar, dialoglar o‘tkazish, matnlarni o‘qish va muhokama qilish va hokazo.

3. Mashg‘ulotlarni individuallashtirish. O‘qituvchi darslarni rejorashtirish va materiallarni tanlashda talabalarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olishi kerak. Masalan, talabalarning bilim darajasi va qiziqishlariga mos keladigan topshiriqlardan foydalanish.

4. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. O‘qituvchi qiziqarli va samarali dars yaratishda kompyuter dasturlari, interfaol doska va boshqa vositalardan foydalanishi kerak. Masalan, onlayn resurslardan foydalanish, video darsliklar, audio yozuvlar va boshqalar.

5. Tizimli yondashuv. O‘qituvchi til o‘rganishni kichik bosqichlarga bo‘lib, keyingi bosqichga o‘tishdan oldin har bir bosqich talabalar tomonidan o‘zlashtirilganligiga ishonch hosil qilishi kerak. Masalan, tizimli bilim sinovlari, testlar va boshqalarni o‘tkazish.

Chet tillarini o‘qitishda psixolingvistika va til didaktikasi qonunlari e’tiborga olinadi, chunki ta’lim jarayoni qanday tashkil etilishiga ko‘plab psixologik jihatlar ta’sir qiladi. Talaba va o‘quv jarayoni, ayniqsa, ushbu fanning izlanishlari markazidir. Shunday qilib, lingvodialektika til o‘qitishda qo‘llaniladigan keng qamrovli nazariyadir.

Eng avvalo, didaktik ko‘rsatmalarni chet tilini o‘qitishga moslashtirish uchun “chet tili” o‘quv predmetini boshqalardan ajratib olish muhim ahamiyatga ega.

Didaktik omillarning ta’limdagi ijobiy roli rad etib bo‘lmaydigan aksiomadir, chunki ular bilim olish va nutq faoliyatiga mos ko‘nikma va malakalar hosil qilish manbai hisoblanadi. Ularning asosiy funktsiyasi axborot berish, o‘qitish va nazorat qilishdir.

Didaktik omillar o‘quv-tarbiyaviy jarayonning eng muhim komponentlaridan biri bo‘lib, ularning vazifasi talabalar uchun qiyinchilik tug‘diruvchi o‘quv materiallarini o‘zlashtirib olishni osonlashtirish, ularning faolligini oshirish, faoliyatini boshqarish orqali o‘quv jarayoni samaradorligini oshi-rishdan iborat.

Talabalarning reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirishda yordam beruvchi didaktik vositalar o‘quv maqsadidan kelib chiqib, ya’ni yozuv yoki yozma nutqqa o‘rgatish maqsadlariga differential yondashgan holda tanlab olinishi lozim. Agar reproduktiv nutqqa o‘rgatuvchi vositalarni bir kompleks holda oladigan bo‘lsak, uning birinchi qismini o‘qish va tinglab-tushunishga o‘rgatuvchi didaktik vositalar, ikkinchi qismini esa gapirish va yozma nutqqa o‘rgatuvchi vositalar tashkil qiladi.<sup>26</sup>

Reproduktiv nutqqa o‘rgatishda foydalilanidigan texnik vositalar ham shu asosda tasniflanmog‘i maqsadga muvofiq. Bundan ko‘rinib turibdiki, yozma nutq kompetentsiya-sini shakllantirishdagi kompleks yondashuv turli imkoniyat, vazifa va didaktik funktsiyaga ega bo‘lib, y o‘qituvchi va talabaning o‘quv jarayonidagi faoliyatini tashkil qilishga yordam beradi.

Muassasada o‘qitiladigan har bir kursni shartli tavsiflash uchun quyidagilardan foydalanish mumkin. Ta’limni o‘rgatish fanlari (chizish, musiqa, qo‘sish qabi), faoliyatni o‘rgatuvchi amaliy o‘quv fanlari (jismoniy tarbiya, mehnat ta’limi) va til fanlari (ona tili, ikkinchi til, chet tili) asoslarini o‘rgatadigan o‘quv mavzulari qatoriga kiradi. ilm-fan ta’lim jarayonini qanday tashkil etish

---

<sup>26</sup> Muchnik I A Rol rodnogo yazika v protsesse obucheniya ustnoy inoyazichnoy rechi. Dis.kand.ied.nauk. -M., 1991.

kerakligiga ta'sir qiluvchi turli psixologik jihatlar mavjudligini ham hisobga oladi. Xususan, talaba va o'qituvchi bu fanning monografiya sub'ekti hisoblanadi.

Lingvota'limshunoslik ob'ekti bo'lmish ona tili ikkinchi til va chet til o'quv predmetlarini tahlil etganda ular orasida mushtaraklik va bir qancha tafovut borligi namoyon bo'ladi.

Tillar orasidagi umumiylig shundan iboratki, har uchchalasini (ona tili ikkinchi til va chet til) o'rganishda ham talaba nutq faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi. Ushbu tillarda shakllangan nutq ko'nikma va malakalari tufayli boshqa fanlar jumladan xorijiy tillarga oid bilimlar o'zlashtiriladi. Akademik L.V.Sherba o'zi bilan aytganda til o'quv predmetlari muloqot (kommunikativ) vazifasini bajaradi. Chet tilda muloqot, amaliy qo'llanish etakchi funktsiya bajaradi.

Ta'lim va tarbiya vazifalari unga bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Chunki ona tilini talaba maktabgacha amaliy egallaydi. Endi ona tilida yozuv va o'qish malakalari shakllanadi va og'zaki nutq malakalari takomillashtiradi. Ta'limiy tomonini maxsus e'tibor bilan o'rgatiladi. Tillarning asosiy o'quv maqomidagi yana bir xususiyati shundaki ona tili tajribasi ikkinchi til o'rganishda so'ngra ularning ikkinchi chet tilini egallahda ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavjud ko'nikmalarning yangi xodisani o'zlashtirishga salbiy ko'chishi (interferentsiya) ko'proq kuzatiladi. Chet tili o'qitish atamasi, chet tilda nutqni o'rgatish ma'nosini bildiradi. Til deganda muayan jamoa ongida o'rin olgan kod (belgi)lar vosita va ularning qo'llanilishi qoidalar yig'indisi tushuniladi. Tilning asosiy vazifasi kishilik jamiyatida aloqa vositasi bo'lib, y belgilar sistemasidan tarkib topadi. Til tafakkurni rivojlantiruvchi avvloddan-avlodga o'tadigan madaniy-tarixiy merosni etkazish vositasi hamdir. Til bo'lmasa nutqiy aloqa bo'lmaydi. Muloqot bo'lmasa, jamiyat ham binobarin odam ham bo'lmashligi aniq. Nutq tilning bevosita voqeligidir. Chet til o'qitishni tashkil etish uchun til va nutq tushunchalarining farqiga etish, g'oyat muximdir. Tildagi birliklar ayniqsa leksika, xajmi ko'p miqdorni tashkil qiladi. Kishi nutqida esa ikki-uch ming atrofida so'z qo'llaniladi. Chet tilida talabalar mingtagacha so'zni aktiv egallaydilar. Til ijtimoiy nutq esa xususiy xodisadir. Til sodda qilib aytganda, birliklar va ularning aloqasi

sistemasisidir. Nutq esa og‘zaki va yozma matndir. Tilni faqat nutq orqali o‘rganish mumkin. Tilda xarflar tovushlardan tarkib tortib to morfema, so‘z birikmalari, gap va tekstgacha bo‘lgan lingvistik belgilar, nutqda esa ushbu belgilarni qo‘llash tufayli axborot etkazish imkoniyati bordir. Nutq doimo yo maxsulot yo jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Nutq namunasi chet til o‘rgatishda asosiy birlik maqomini kasb etadi. Nutq namunasi tillarning leksik grammatik va talaffuz tomonlarini mujassamlantiradi va qo‘llash yoki idrok etish uchun tayyor xodisa hisoblanadi. Til xodisasi sifatida nutqda yaxlit birlik darajasida qo‘llaniladi uning tarkibidagi lisoniy kichik birliklar aloxida-aloxida mashq qilinadi. Til xodisalarini kompleks o‘rganish va elementlarida qiyinchilik tug‘diradiganlarini maxsus mashqlarda qaytarish va mustaxkamlamlashga erishiladi.

Nutqda qo‘llanilgan til birliklarining funksional, rasmiy (shakl) va semantik (ma’no) komponentlari bilan bog‘liq chet tili masalalari egalikda yuzaga keladi. Til birligi rasmiy (qurilish va tuzilishda) yoki funktional (foydalanishdagi kontseptsiya darajasida) yoki semantik (hisobotdagi ma’no) qiyin bo‘lishi mumkin. Qanday namoyon bo‘lishidan qat’i nazar, bu partiylar ittifoqchilardir har biri qiyin yoki tushunarli bo‘lishi mumkin.

Metodist nuqtai nazaridan, til o‘rganish birliklari ikkita asosiy toifaga bo‘linadi: qattiq va oddiy.

Talabalarning til tajribasi sodda birlik jumlalariga kiritilgan.

Hodisa umumiy (o‘xhash) komponentlardan iborat. Ikkinci til leksikasidagi bir xil ildizga ega bo‘lgan so‘zlar yordamida ona tili yoki chet tilini ko‘rsatish mumkin (xalqaro): Tennis, dollar va biznes toifalarida grammatik jihatdan yetarlicha sodda hodisalar mavjud.

Masalan, [p], [t], [k], [s], [tʃ] kabi fonemalarning talaffuz materiallarida umumiylklari bo‘lsa ham, fe’l zamonlarining funksional xususiyatlari yoki sifatning sodda daroji nisbatan yangi tushunchalardir.

Potensial til materiali (potentsial leksika/grammatika/talaffuz birliklari) “boshqa tillar tajribasida umumiy hodisalarni ko‘rsatish va metodologiyasi” atamasi bilan ifodalanishi mumkin. Tegishli til tajribasi va vaqt o‘tkazish orqali

o‘rganish qobiliyati mavjudligi tufayli talabalar ichki salohiyatga ega yoki kamroq potentsial birliklarga ega. Potentsial hodisalarning tipologiyasini (toifalarini) ham kiriting.

Qiyin materialni metodik tipologiyalashtirish til o‘qitish samaradorligini oshirishga bevosita dahldor. Qiyinchilik bilan o‘zlashtiriladigan til materialni o‘qitishda xatolarning kelib chiqishi muqarrardir. Demak, xatolar qiyinchiliklar bilan oqibat va sababiyat munosabatida bo‘ladi. Binobarin, qiyinchiliklarni bartarf etish orqali xatolar oldi olinadi. Qiyinchiliklarni oldindan aniqlab olish tadbirlari qator bosqichlardan iborat. Dastlab talabalar ongida aloqaga kiradigan til materiali (leksika, grammatika, talaffuz hodisalari) qiyosiy tahlil etiladi. Til tajribasining tarkibiy qismlari (ona tili, ikkinchi va chet tili) taqqoslanadi. Qiyoslashdagi metatil (asosiy til) muammosi til materialining reproduktiv yoki reproduktiv o‘zlashtirilishiga bog‘liq.<sup>27</sup> Chet til hodisasi reproduktsiyada o‘rganilsa, metatil qilib ona tili (funktsiya, semantika, forma) tanlanadi. Ona tilidan keyin ikkinchi til hodisalari, uchinchi o‘rinda chet til birliklari qiyosiy tahlilga jalb etiladi, aks holda - retseptsiyada chet tilning o‘zi metatil vazifasini o‘taydi. Sof tilshunoslik uchun matetilning farqi yo‘q. Linvovidaktikada esa buning tafovuti katta chunki talaba gapisish va yozuvda funktsiyadan semantikaga, so‘ngra shaklga qarab fikran harakat qiladi. Retseptiv nutq (tinglash va o‘qish) da esa tilning formal tarafiga tayanib, semantika va funktsiya keltirib chiqariladi. Aloqaga kirayotgan tillardagi mushtaraklik va tafovutlarini ochishda qiyoslash (kontrastiv) bosqichi natijalari kifoya qilmaydi. Undan keyin komparativ (til ichki qislanishi) tahlili o‘tkaziladi. Tilning ichki hodisalari orasidagi salbiy ta’sir (interferentsiya) ochiladi. Ikkala (kontrastiv va komparativ) qiyoslash statik (holatdagi) qiyinchiliklar tipologiyasini, boshqacha qilib aytganda, lingvistik tipologiyani yaratadi. Muallimlar ish tajribasi ko‘rsatishicha, statik tipologiya bilan cheklanish amaliyotda o‘zini to‘liq oqlamaydi. Ayrim qiyin hisoblangan hodisalar oson o‘rganiladi, ba’zilari esa

---

<sup>27</sup> Piofovskiy R.G., Bilan V.N., Borkun M.N ,Bobkov A.K. Metodi avtomaticheskogo analiza i sinteza teksta. - Minsk: Vl'sheyshaya shkola, 1985.

aksincha - statik tipologiyada qiyin deyilgan birlik o‘quv jarayonida engil o‘zlashtiriladi.

Talabalarining qiziqishlarini hisobga olgan holda, ular bilan alohida ishslash va darsda yangi usul bilan yondoshish zarur. Hafta davomida o‘rganilgan har bir mavzuni noan’anaviy usullar orqali takrorlash yaxshi samara beradi. Bunda talabalar har bir takrorlash darsiga tayyorlanib keladilar. Oldindan uyga vazifa qilib berilgan savolnomalar, tarqatma materiallar va testlardan foydalanish ham maqsadga muofiq. O‘quv jarayonida reproduktiv nutq malakalarini shakllantirishda juft-juft va gurux-gurux bo‘lib ishslash kabi usullardan foydalanish talabalarda faollikning davomiyligini saqlab turuvchi omillardan hisoblanadi. Noan’anaviy takrorlash darsining yana bir muhim xususiyatlardan biri dars guruhlarga bo‘lingan tarzda olib boriladi va faqat ingliz tilida gapiriladi. Dars o‘qituvchi tomonidan shunday tashkillanishi lozimki, faqat erkin va qulay, quvnoq muhit bo‘lsin. Noan’anaviy usullarni qo‘llashning asosiy yutuqlari shundaki, talabalar faqat ingliz tilidagi reproduktiv nutq orqali berilgan axborotni tushunib olishda ma’suliyat xis qiladilar va qiziqadilar, o‘tilgan mavzu aynan shu dars va unda qo‘llanilgan metodlar orqali mustahkamlanadi, guruhda ishslash orqali passiv talabalar ham birmuncha faollashadi. Noan’anaviy usullarni qo‘llashda o‘qituvchi eng faol, bilimli, qiziqishi kuchli talabalarini saralab olish va kasbga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yana bir muhim xususiyatlardan biri shundaki, noan’anaviy nutq faoliyati turlarining (so‘zlashuv, tinglab tushunish, o‘qish va yozish) integratsiyalashuvi kuzatiladi.

Noan’anaviy dars usullarini qo‘llash orqali kerakli samaraga erishishimiz mumkin, chunki dars jarayonida talabalar o‘z bilimlarini o‘zlarini baholaydilar hamda reproduktiv faoliyatda tushunib olishning yangi yo‘llarini yaratishga intiladilar, dars so‘ngida esa, “Bobni eng chuqr o‘zlashtirgan guruh” nominatsiyasini olish uchun astoydil o‘qib, tayyorgarlik ko‘radilar. Aynan shu metod orqali ingliz tilida so‘zlashish muhiti yaratiladi.

Kishi idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki shu bilan birga, hayotdagi y yoki bu narsalarga,

qanday bo‘lmasin, munosabat bildiradi, unda bularga nisbatan y yoki bu tarzda his-tuyg‘u paydo bo‘ladi. His-tuyg‘ular kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘ziga turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. «Hissiyot» tushunchasi kundalik turmushda va ilmiy psixologik manbalarda har xil ma’noda qo‘llaniladi. Jumladan, hissiyat o‘rnida sezgilar, anglanilmagan mayllar, anglanilmagan xohishlar, tilaklar, maqsadlar, talablar kabi tushunchalardan foydalaniladi. His-tuyg‘ularning kechishi sub’ekt alohida his etayotgan psixik holat sifatida gavdalanadi. Bunda biron-bir narsani idrok etish va tushunish, biron-bir narsa to‘g‘risida bilib olish idrok etilayotgan, tushunib olinayotgan, ma’lum yoki noma’lum narsalarga nisbatan shaxsiy munosabat bilan birgalikda ro‘y beradi. Ana shu hollarning barchasida his-tuyg‘ularning boshdan kechirilishi xususida, kishining alohida emotsional holati haqida gapiriladi. Shu bilan birga, his-tuyg‘ular o‘z rivojlanishiga ega bo‘lgan, o‘zgarib turadigan va individual hususiyatga ega bo‘lgan psixik jarayondir.

Kattalarga nisbatan yosh bolalarning ayniqsa, kichik mакtab yoshidagi talabalarning diqqati chegaralanganligi tufayli o‘quv jarayonining har 5-7 daqiqa-sida chet tilida muloqat qilish orqali og‘zaki va yozma nutqqa e’tiborni qaratgan holda o‘quv jarayonining asosiy qismini talaffuz, grafik, orfografiq, leksik va grammatik ko‘nikmalarni integratsiyalashuviga qaratish maqsadga muofiq.

Mutaxassis olimlarning ta’kidlashlaricha, 9 yoshgacha bo‘lgan bolaning xorijiy tillarni nisbatan oson o‘zlashtirishini imprinting xodisasi bilan bog‘lagan holda bo‘lib, bu xodisa reproduktiv faoliyatda integratsiyalashuvni, ya’ni so‘zlardan birikmalar va jumlalar hosil qilishga qaratilgan integratsiyani shakllantirish uchun asos (zamin) yaratadi deyish mumkin.

Odatda ham maktabgacha va kichik mакtab yoshidan boshlab xorijiy tillarni o‘rgatish katta yoshda til o‘rgatishdan ko‘ra tezroq va mustahkamroq bo‘ladi. Bolalarning fonematik eshitish qobiliyatları juda rivojlanganligi sababli ularda gapirish bilan tinglab-tushunishning integratsiyalashuvi oson kechadi. Shu sababli

kichik yoshdagи bolalar nafaqat so‘zlarni, balki ularning xususiyatini ham anglay oladilar. Ular o‘qituvchi bilan xorijiy tilda muloqot qilish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan qo‘rquv, ikkilanishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik qiyinchiliklarni oson engib o‘tadilar. Bolalikda xorijiy tillarni o‘rganish jarayoni orqali rivojlanadigan analistik layoqatlar bolaning kommunikativ qobiliyatları rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ham alohida ta’kidlash lozim.

Hozirda oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini zamon talablariga javob bera oladigan tarzda tashkil qilish, xorijiy manbalardan axborot olishga qaratilgan reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirish muhim axamiyatga ega. Nafaqat professor-o‘qituvchilar balki ta’lim sub’ektlari bo‘lmish talabalar ham reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirishi zarurligini to‘g‘ri qabul qilishlari va zarurat sifatida tushunib etishlari lozim. Hozirgi davrda mustaqil izlanishga, talabaning aqliy faoliyatini takomillashtirishga, barqarorlashtirishga xizmat qiladigan ijodiy topshiriq echimini yuqori baholash maqsadga muvofiq. Talaba o‘zi uchun qulay shart-sharoitda turmush tajribasiga, o‘quv ko‘nikmalariga tayangan holda aqliy faoliyatini amalga oshiradi.<sup>28</sup>

Talabada o‘qituvchi va guruxdoshlari bilan faol hamkorlik qilish uchun psixologik jixatdan tayyorgarlik bo‘lishi ta’lim samaradorligini oshuruvchi muxim omil hisoblanadi. Auditoriyada yuzaga keltirilgan muammo echimni to‘g‘ri tushunib olishi talabaning reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllanganlik darajasiga bo‘g‘liq, chunki bu uning o‘z fikrini himoya qilish, nimadandir shubxalanish(kognitiv motiv), qiyinchiliklarning sababini aniqlash uchun juda ham muxim. Bu esa talabalarda integratsiyalashgan reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirishga kirishishdan oldin ularning oliy ta’limga o‘qishga qabul qilinishlaridan oldingi ta’lim bosqichidagi reproduktiv nutq kompetentsiyasining qay darajada shakllantirilganligini aniqlab olishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirish metodikasini yaratish, talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olgan va ularga individual

---

<sup>28</sup> [http://www.e-reading.club/chapter.php/103649/3/Gluhov,\\_Kovshikov\\_-\\_Psiholingvistika.\\_Teoriya\\_rechevoi\\_deyatelnosti.html](http://www.e-reading.club/chapter.php/103649/3/Gluhov,_Kovshikov_-_Psiholingvistika._Teoriya_rechevoi_deyatelnosti.html)

yondashgan holda samarali metod va usullarni izlab topish imkonini beradi. Shuningdek o‘qituvchi-pedagog talabalarning individual tajriba xususiyatlarini aniqlash orqali reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirishning texnologiyasi bilan ta’lim sub’ektlarini tanishtiradi.

Mazkur monografiyada olingan amaliy-miqdoriy ma’lumotlar hamkorlik faoliyatida(o‘qituvchi bilan talabalar hamda talabalararo) ta’lim oluvchilarining ijodiy fikr yuritishi, aqliy zo‘r berishga intilishi va faollik paydo bo‘lishining psixologik mexanizmini asoslashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu asoslar tinglab-tushunish va o‘qib axborot olish bilan bog‘liq integratsiyalashuv jarayonida talabalarning mustaqil fikrashi, muammolar echimini topishdagi faolliklariga taalluqlidir. Bunday mexanizm negizini o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning umumiy aqliy, fikriy xatti-harakatlar majmuasi tashkil qiladi.

### **1.3. Ingliz tiliga o‘rgatishda reproduktiv nutq maqsad va vosita sifatida**

Xorijda va Vatanimizda leksik material tasnifi masalasi metodistlar diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Chet tili o‘qitish ruhshunosi H. Hyuz ona tili bilan taqqoslash orqali chet tili leksikasini oson va qiyin guruhlarga ajratgan. Taniqli metodist H. Palmer leksikani shakl, ma’no va qo’llanish yuzasidan tasnif etgan bo‘lsa, Ch. Friz so‘zning gapdagi vazifasi va birikish xususiyatidan kelib chiqqan holda tasnifni amalga oshirgan, R. Lado leksikani tillararo interferentsiyaga bog‘lab tasnif etishni taklif etgan.

XX asrning 60-70 yillarda bu boradagi ilmiy ma’lumotlar umumlashtirildi, yangi tasnif mezonlari o‘rtaga tashlandi. Sobiq Ittifoqda I. V. Raxmanov, V. A. Buxbinder, C. V. Kalinina, L. Z. Yakushina, M. C. Latushkina, N. B. Nikolaev, A. A. Zalevskaya, M. A. Pedanova, Yu. V. Gnatkevichlar turli nuqtai nazaridan turib, chet tili leksikasini toifalarga ajratishgan bo‘lsa, o‘zbek milliy auditoriyasi uchun J. Jalolov, H. Saynazarov, M. Chorievlar ingliz tili leksikasini tasnifi ustida tadqiqot olib borishgan. Yuqoridaq tadqiqotlarda chet tili leksikasining xususiyatlari, tilning ichki va tillaro interferentsiyasiga bog‘lab tasniflash, aktiv va passiv lug‘atga xos qiyinchiliklar o‘rganilgan.

XXI asr Evropa Ittifoqi tomonidan “ko‘p tillilar asri” deb atalgan ekan, chet tilini samarali o‘rganish hamda o‘rgatish muammosi kundan-kunga dolzarblashib bormoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan dunyo bo‘ylab xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va madaniyatlararo muloqot muammosi tilga madaniyatning ko‘zgusi sifatida qaralishiga, ya’ni o‘zga tilni o‘rganish bilan birga y millat madaniyatidan xabardor bo‘lishlik zaruratiga sabab bo‘ldi va ta’limda tilni o‘qitishning nafaqat umumta’limiy maqsadi, balki tarbiyaviy ahamiyati ham alohida o‘rin tutishiga olib keldi.

Buning uchun dunyo bo‘ylab, jumladan mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ham bo‘lg‘usi mutaxassislarning etuk kadr bo‘lib etishishini ta’minalash maqsadida alohida madaniyatlararo muloqot fani o‘qitala boshladi. Biroq chet tili va madaniyatini yaxlit tarzda o‘qitish masalasi hozirgi kunga qadar ham to‘liq echimini topganicha yo‘q va jahon olimlari qatorida o‘zbek metodist-olimlari ham xalqaro ilmiy konferentsiya va jurnallarda bu borada o‘z fikrlarini bildirib kelishmoqda. Masalan, o‘zbek lingvovidaktika asoschisi J.Jalolov chet tili o‘qitish jarayonida madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish maqsadida “kommunikativ-kumulyativ” metoddan foydalanishni va uni ilmiy muomalaga kiritish taklifini bergen.

O‘zbekistonning istiqlol yillari jahon lingvovidaktikasidagi ulkan yangilanish davri bilan mos keldi. Chet tili o‘qitish metodikasi oldida til va madaniyatni umumiylilikda o‘rgatish hamda o‘rganish masalalarini hal qilish dunyo olimlari oldida turgan asosiy maqsad ekan, yurtimiz mutaxassislari va tadqiqotchilari ham ushbu muammoni hal qilishda qator fanlar bilan birga lingvokul’turologiya, kontseptologiya, psixolingvistika kabi fanlar asosida ilmiy ishlar olib bormoqdalar.

Nutqiy faoliyat deganda nutq yaratilishi va uning qabul qilinishiga oid barcha nutqiy xarakatlarni tushunish mumkin. Bu shunday o‘zaro chambarchas bog‘liq yaxlit jarayonki, unda bevosita so‘zlovchi va tinglovchi, (yozuvchi va talaba) faoliyat ko‘rsatadi. Nutqiy faoliyat ba’zan turg‘un (matn), ba’zan harakatdagi hodisa (so‘zlash va eshitish) sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra

uning ishtirokchilarini ham nutqiy vaziyatdan kelib chiqib aniqlanadi (so‘zlovchi va tinglovchi, yozuvchi va talaba, o‘qituvchi va talaba). Shuning uchun nutq ifoda etayotgan sub’ektlarga nisbatan (so‘zlovchi, yozuvchi) – produtsient, nutqni qabul qilayotgan sub’ektlarga nisbatan esa retsipient termini qo‘llanadi. Ingliz tili o‘qitish jarayonini kompleks xarakterga ega bo‘lishi, ushbu jarayonda leksika, grammatika, talaffuz va orfografik materiallar va nutq faoliyatining barcha turlari (gapishtirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv) ning integratsiyalashuvi bilan bog‘liq.

Og‘zaki nutq bilan o‘qishning integratsiyalashuvi matnni tushunish jarayonini osonlashtiradi, o‘qish faoliyati (ichda yoki ovoz chiqarib o‘qish) esa talabalarning og‘zaki nutq malakalarini shakllantirishga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Garchi xar bir darsning o‘z maqsad va vazifalari bo‘lsada yuqoridaqgi integratsiyalashuv har bir darsda kuzatiladi.

O‘qish til materialini o‘rganishda muhim vosita ekanligini ham alohida ta’kidlash lozim. Matnlarni o‘qishni o‘rgatish o‘quchilar lug‘at boyligini boyitish usullaridan biri sifatida muhim ahamiyatga egadir. Ovoz chiqarib o‘qishda talaffuz va tinglab tushunish ko‘nikmalarining integratsiyalashuvi sodir bo‘ladi. Bunday integratsiyalashuvda o‘qish vosita hisoblanadi, chunki o‘qiyotgan shaxs ayni paytda o‘z ovozini tinglash orqali talaffuz ko‘nikmalari (urg‘u, ohang, intonatsiya)ni shakllanganlik darajasini kuzatib aniqlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda o‘qish ushbu holatda talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, o‘qish gapishtirish malakalarini shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi. O‘qilgan matnlar mazmuni bo‘yicha savol – javob mashqlarini bajarish, hikoya qilib berish, suhbat jarayonida nutqiy ko‘nikmalarning integratsiyalashuvi gapishtirish ko‘nikmalarini o‘stirishda muhim rolъ o‘ynaydi. Talaba o‘qish orqali gapishtirishga material to‘playdi. Ularni chet tilida gapirib berishga tayyorlaydi.

Nutqiy ko‘nikmalarning bunday integratsiyalashuvi nafaqat reproduktiv, balki reproduktiv ko‘nikmalarni shakllantirishga ham ijobiy ta’sir etadi, chunki reproduktiv ko‘nikma hisoblangan o‘qish, reproduktiv ko‘nikma hisoblanishi

gapishtirish ko‘nikmalarini o‘stirishga ham yordam bermoqda. Tinglab tushunish esa gapishtirish malakalarini rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Yozuvni o‘rgatish nutq faoliyatining boshqa turlarini mukammal egallashda o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Yozuv reproduktiv faoliyat hisoblanib, o‘qish bilan bevosita bog‘liq, chunki yozma matn o‘qish orqali faollashadi. Ushbu jarayonda esa yozuv bilan o‘qish ko‘nikmalarining integratsiyalashuvi ro‘y beradi. Shuningdek yozuv nutq faoliyatining bir turi sifatida boshqa nutq malakalari bilan integratsiyalashuvi tufayli chet til o‘qitish va o‘rganish vositasi vazifasini ham bajarib, og‘zaki nutq va o‘qish malakalarini to‘laqonli egallashda o‘zining munosib ulushini qo‘shadi.<sup>29</sup>

Tanishish (prezentatsiya) bosqichida so‘zning shakli, ma’nosni va qo‘llanishi yuzasidan mashq bajariladi. Yangi so‘z ma’nosni bilan tanishish, ma’lumki, ikki usulda amalga oshiriladi: tarjimasiz va tarjima vositasida.

Tarjimasiz usul ichki va tashqi ko‘rgazmalilikdan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Yangi so‘z tarjimasiz usul bilan o‘rgatilganda narsa, rasm, hatti-harakat namoyish qilish shu so‘z ma’nosni va berilayotgan axborotni to‘laroq tushunib olish uchun tayanch vazifasini bajaradi. Masalan so‘z ma’nosini fahmlab oling (masalan, kitob ko‘rsatiladi va uning nomi ingliz tilida jumla tarzida aytildi) kabi topshiriq berish mumkin. Tarjimasiz usulda antonim, sinonim, so‘z yasash elementlari, kontekst va ta’riflashdan ham foydalanish mumkin. Ushbu jarayonda gapishtirish, tinglab tushunish, o‘qish ko‘nikmalarini integratsiyalashuvini kuzatish mumkin. Axborotni qabul qilishda ko‘z retseptorlarini ham ishtirok etishi o‘rganilayotgan axborotni to‘g‘ri tushunib olgan holda aniq tasavvur etish va xotirada saqlab qolishni osonlashtiradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga keldik: O‘qish ko‘nikmasining linvodidaklik tahlili asosida talabalar uchun ingliz tilidagi o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar, talabalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf qilish va ularning kelib chiqishining oldini olish yo‘llarini aniqlashga yordam beradi. Buning natijasida chet tillar fakulteti, filologiya va tillarni o‘rganish ingliz tili

<sup>29</sup> Sattarov T. Bo‘lajak chet til o‘qituvchisining uslubiyi omilkorligini shakllanti-rish texnologiyasi. – T., 2003. 47-b.

yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda shakllantirilayotgan o‘qish malakalari differential yondashuv asosida mustaqil o‘qitish va baholash tizimlari bo‘yicha aniqlashtiriladi.

Xorijiy tilni o‘qitishda kommunikativ metodning qo‘llanishi asosida nutqiy kompetentsiyani shakllantirish nutqiy vaziyatlarda amalga oshadi. Ushbu metod axborot almashuviga, shaxsning intellektual rivojlanishiga nisbatan motivatsiya hosil qiladi, ta’lim jarayoida qayta aloqani o‘rnatishga yordam beradi.

O‘qish kompetentsiyasining linvodidaklik tahlili ingliz tilidagi harflarning grafik belgilarini, orfografik qoidalarini bilish, matndagi fikrni to‘liq tushunish, axborot mavzusi, o‘zga shaxsning psixologik holati kabi omillarga e’tibor qaratiladi.

O‘qish til materialini o‘rganishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Matnlarni o‘qishni o‘rgatish o‘quchilar lug‘at boyligini boyitish usullaridan biri sifatida muhim ahamiyatga egadir. Ovoz chiqarib o‘qish talaffuzni o‘rgatishda, tinglab tushunishda muhim bosqich hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘qish gapirish malakalarini shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi. O‘qilgan matnlar maxmuni bo‘yicha savol-javob mashqlarini bajarish, hikoya qilib berish, suhbat kabilar mazkur malakalarni shakllanishida muhim rol o‘ynaydi talaba o‘qish orqali gapirishga material to‘playdi. Ularni chet tilida gapirib berishga tayyorlaydi.<sup>30</sup>

Bundan tashqari gapirish tinglab tushunish malakalarini shakllanishiga, tinglab tushunish esa gapirish malakalarini rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Yozuvni o‘rgatish nutq faoliyatining boshqa turlarini mukammal egallahsha o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yozuv faoliyati gapirish bilan yaqin aloqada bo‘ladi. Gapirishda, asosan, ma’no va tovush timsollari ishtirok etsa, yozuvda ma’no, tovush timsollariga harfiy timsollar qo‘silib, bir – biri bilan o‘zaro bog‘lanadi. Yozuv materialini puxta o‘zlashtirish, boshqa nutq malakalarini shakllantirishda vosita vazifasini bajarib, og‘zaki nutq va o‘qish malakalarini to‘laqonli egallahsha o‘zining munosib ulushini qo‘shadi.

---

<sup>30</sup> Mixaeva T.V. Metodika provedeniya sinteticheskogo chteniya na angliyskom yazike v 5 klasse. Dis. ... kand. Ped. Nauk.. -M.: 1975.

## **II. BOB. INTEGRATSIYALASHGAN NUTQIY MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI METODIK TASHKILLASHTIRISH.**

### **2.1. Til o‘rganuvchilarda integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllanganlik darajasining xozirgi xolati tahlili.**

Metodik adabiyotlarning taxliliga ko‘ra, muayyan metod va usullar yordamida talabalarning bilish faolligi ikki yo‘l bilan amalgalashadi: fanga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish, talabalarning mustaqilligini ta’minlash. Dars jarayonida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ham talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini va bilish faolligini oshiradi, talabalarning quvonch bilan ishlari va dars davomida uchraydigan qiyinchiliklarni oson engishlariga yordam beradi.<sup>31</sup>

“Metod” tushunchasiga doir ta’limshunoslik o‘qitishning umumiy nazariyasi sifatida ushbu atama keng qo‘llaniladigan atamadir. Xorij tili o‘qitish metodikasida “Metod” atamasi asosan 3 ma’noni bildiradi. Chet til o‘qitishning umumiy metodikasi mualliflari A.A.Mirolyubov, I.V.Raxmonov, V.C.TSetlin, shuningdek, C.F.Shatilov, G.V. Rogova kabi metodist olimlar ham til o‘qitishning ushbu uch bosqichini e’tirof etadilar.

Birinchidan, metodika tarixidagi butun bir yo‘nalish (tarjima metodi, to‘g‘ri metod, qiyosiy metod, aralash metod);

Ikkinchidan, yuqoridagi yo‘nalish tarkibiga kiruvchi o‘qitish sistemasi;

Uchinchidan, muallim va talabalarning o‘zaro bog‘langan faoliyati usuli (tanishish, mashq qilish va qo‘llash metodlari). Chet el o‘qitish tarixida birinchi va ikkinchi metodlar "tarixiy" metodlar nomi bilan, uchinchisi "jarayonni ifodalash" metodlari atamasi bilan yuritiladi. Tarixan metodlar to‘rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", "to‘g‘ri (yoki tarjimasiz)", "qiyosiy (yoki ongli-qiyosiy)", "aralash" so‘zlarini aniqlovchi sifatida qo‘sib aytildi. Shunday qilib, xorijiy o‘qitishning bir necha asrlik tarixidagi barcha metodlar

---

<sup>31</sup> Sherba L. Prepodovanie inostrannix yazikov v sredney shkole. Obshie voprosi metodiki. 2-e izdanie –M.: Vissaya shkola. 1924.

to'rt toifaga to'plangan. Ularning har birini qisqacha tahlil qilish talab etiladi, chunki birinchi metodikada ularning ayrim xususiyatlari muayyan shaklda qo'llanilmokda.

Hozirda esa intensiv (tezkor) metod, kommunikativ metod, interfaol metod kabi zamonaviy o'qitish metodlari chet til o'qitish amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

Nutq faoliyati turlarini o'rganish tartibi quyidagicha kechadi: tinglab tushunish - gapirish - o'qish - yozuv. Og'zaki nutq xorijiyda aloqa vositasi sifatida, yozma nutq esa og'zaki nutq materiali asosida o'rgatiladi.

Metodik adabiyotlarda metodlarni "namoyish etish, tushuntirish va mashq" nomlari bilan berish hollari uchraydi. Qanday nomlar yoki ular nechta bo'lishidan qat'iy nazar metodlar tanishtirish, ko'nikma va malaka hosil qilishga yo'naltirilgan.

OTM talabalariga ingliz tili o'rgatishdan ko'zda tutilgan yakuniy amaliy maqsad esa o'qish, og'zaki nutq (gapirish va tinglab tushunish) va yozuv kabi nutqiy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Qisqasi, ingliz tilini amaliy maqsadda o'rganish ushbu til yordamida kerakli axborotni olish va boshqalarga yetkazish ma'nosini bildiradi. O'zlashtirilgan axborot talabalarni bilim saviyasini oshirish, ularni tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Ingliz tilida muloqot orqali ta'lif, tarbiya va talaba shaxsini rivojlantirishda asos hamda sharoit vazifasini o'taydi. OTM talabasi ta'lif yakunida o'rgangan ingliz tilidagi nutqni idrok etib (tinglab yoki o'qib) tushunish va ushbu tilda fikr bayon eta olish (gapirish va yozish) imkoniyatiga ega bo'ladi. Til ta'limining rivojlanishi jarayonida paydo bo'lgan qiyosiy metod, audio-vizual metod hamda audio-lingual metod tarafдорлари esa til ta'limida ona tili va tarjimani butunlay rad qilib bo'lmasligini, ona tilini sinfdan chiqarish mumkin bo'lgani bilan talabalar ongidan chiqarib yuborish mumkin emasligini uqtiradilar.

Talabalarga zamonaviy ta'lif va tarbiya berishning murakkab vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodi, kasb mahorati, sa'nati, iste'dodi va madaniyatiga hal qiluvchi darajada bog'liqdir. G'oyaviy e'tiqodi

mustahkam, yuksak pedagogik madaniyatga ega o‘qituvchi o‘z bilimi va kasb mahoratini takomillashtirish, boyitish haqida tinimsiz qayg‘uradi, izlanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish orqali kelgusi taraqqiyotni yanada rivojlantirib, mustahkamlashga asos solinadi. Bu borada O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikri bizga ibratdir: “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi”. Har bir o‘qituvchi yaxshi biladiki, dars o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Shuning uchun o‘qituvchi, avvalo, dars o‘tish va darsni takomillashtirib borish haqida o‘ylaydi, izlanadi. Ta’limda yuqori samaradorlikka erishish uchun o‘qitishning noan’anaviy metodlaridan, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlaridan dars mavzusiga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, o‘qituvchining mashaqqatli mehnati bilan bosqichma-bosqich mahorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga ko‘tarilishidir. Yuqori ko‘rsatkichga erishishni maqsad qilgan o‘qituvchi, avvalo, har bir darsga ijodiy yondashishi, dars jarayonida ko‘zda tutilgan barcha bosqichlarni erkin amalga oshira oladigan kasbiy mahoratga ega bo‘lishi kerak. Kasbiy mahorat esa o‘qituvchi shaxsidagi tabiiy imkoniyatlar, pedagogik-psixologik iqtidor, o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarash, o‘quvchidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida sezish, bola shaxsi, talabalar jamoasiga to‘g‘ri ta’sir eta olishning amaliy namoyon bo‘lishidir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish davr talabi hisoblanadi. Zamonaviy darsda pedagogik texnologiya metodlarini qo‘llash orqali dars davomida qo‘srimcha ma’lumot (tarqatma material, test, masala, topishmoqlar, savol-javoblar, turli

krossvordlar, tajribalar va h.k.) lar asosiy mavzuni qamrab olishi kerak. Talabalar darsning yakunida o‘tilgan mavzu yuzasidan darslik asosida tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalarga bog‘liq holda ilmiy ma’lumotlar, fan-texnika taraqqiyoti sohasidagi o‘rni haqida yetarli bilimlar, shuningdek, o‘tmishda yashab o‘tgan qomusiy olimlarning mazkur soha rivojlanishiga qo‘shtan hissalari haqida ham ma’lumotga ega bo‘lishlari lozim. Buning uchun har bir darsda pedagogik texnologiyaning o‘tilayotgan mavzuga mos va qulay bo‘lgan metodlaridan foydalanish kerak. Bu faoliyatni amalga oshirishda esa o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi. Quyida fizika fanini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan ayrim pedagogik texnologiyaning metodlarini keltirib o‘tamiz.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, pedagogik texnologiyalar tushunchasi XX asrda paydo bo‘ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o‘tib kelmoqda.

Dastlab bu tushuncha 1940-yillardan 50-yillar o‘rtasigacha “ta’lim texnologiyasi” deb qo‘llanilib, o‘quv jarayonida audiovizual texnika vosi-talaridan foydalanishni ifoda qilgan.

Pedagogik texnologiyalar tushunchasi XX asrning o‘rtalarida AQShda qo‘llana boshlangan. Bunda “pedagogik texnologiya” va “ta’lim texnologiyasi” atamalari faqat texnika vositalari yordamida o‘qitishga nisbatan qo‘llangan edi.

Vaqt o‘tishi bilan ularni qo‘llash darajasi kengayib borishi natijasida mazmuni ham tegishlicha o‘zgarib bordi. Hozirga kelib esa pedagogik texnologiyalar tushunchasining zamonaviy, ilmiy asoslangan yagona ta’rifini belgilash maqsadida bir qancha yirik olimlar tomonidan turli fikr va mulohazalar asoslab berildi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tu-shunchasini ikki xil izohlash mumkin: birinchidan, uning o‘quv jarayonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalashi nazarda tutilib, ta’limdagi, o‘qitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo‘lsa, ikkinchidan, bu tushuncha o‘quv jarayonining o‘zini qurish texnologiyasini bildiradi deb xulosa chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasining mohiyatini yorituvchi

turli qarashlar va turli ta’riflar mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

Pedagogik texnologiya- o‘qitishning, ta’limning shakllari, metodlari, usullari, yo‘llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig‘indisi va komponov-kasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar majmuasi; u pedago-gik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T. Lixachyov).

Pedagogik texnologiya – o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o‘quvchi-talaba shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.P. Bespalko).

Pedagogik texnologiya-ta’limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti (I.P. Volkov).

Ta’lim texnologiyasi – didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi (M.Choshanov).

Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonining o‘quvchi-talabalar va o‘qituvchi uchun so‘zsiz qulay sharoitlar ta’minalashni loyihalash, tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha hamma detallari o‘ylab chiqilgan birgalik-dagi pedagogik faoliyat modeli (V.M. Monaxov).

Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egallahda texnika va inson resurslarini o‘zaro uzviy bog‘liq holda ko‘rib, butun ta’lim ja-rayonini loyihalashda va amalda qo‘llashda majmuali yondashuv usulidan foydalanishdir (YuNESKO).

Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalilaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig‘indisini va ularning amal qilish tartibini bildiradi (M.V. Klarin).

Pedagogik texnologiya so‘zsiz rioya qilish eng yuqori natijani kaflatlaydigan ko‘rsatmalar emas, balki qonuniyatlar bo‘lib, ularning amaliy ahamiyatidan iborat (V.Yu. Pityukov).

Pedagogik texnologiya – bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogi-kaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir (Sakomoto).

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan

o‘zlashtirish darajasiga erishishdan iborat bo‘lib, uni tatbiq etishni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini ilgaridan loyihalashtirishda namoyon bo‘ladi (U.Nishonaliev).

Pedagogik texnologiya – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoniga tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya’ni o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko‘rsatgan ta’sirini va ta’lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbirdir (B.G’. Ziyomuhhammadov).

Pedagogik texnologiya – o‘qitishga o‘ziga xos yangicha (innovation) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko‘chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L. Farberman).<sup>32</sup>

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtayi nazarlardan yondashish mumkin. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ijtimoiy hodisa sifatida ta’lim-tarbiya masalalari bilan bog‘liq motivlar: ehtiyoj, talab, manfaat, qiziqish, maqsadlardan kelib chiqadi va ularni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, xuddi shunday motivlar har bir shaxsda, oilada ham mavjud. Jamiyatni har bir a’zosining bilim darajasi ortib borishi shu jamiyat va davlat rivojining asosiy shartlaridan hisoblanadi. Bu shartning bajarilishi esa, o‘z navbatida, zamonaviy pedagogik texnologiyaning qanchalik yuqori darajada ekanligiga bog‘liq. Bundan esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar shaxs, oila, jamiyat, davlat hayotida muhim ahamiyatga ega ijtimoiy hodisa ekanligi ko‘rinadi.

Ushbu aytilganlar asosida zamonaviy pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa va umumlashtirilgan ta’rifini keltirishimiz mumkin: “Pedagogik

---

<sup>32</sup> [http://www.e-reading.club/chapter.php/10Z649/Z/Gluhov,\\_Kovshikov\\_-\\_Psiholingvistika.\\_Teoriya\\_rechevoi\\_deyatelnosti.html](http://www.e-reading.club/chapter.php/10Z649/Z/Gluhov,_Kovshikov_-_Psiholingvistika._Teoriya_rechevoi_deyatelnosti.html)

texnologiya-barkamol insonni shakllantirish faoliyati” demakdir.

Hozirda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turli yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ulardan asosiyлари empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inkluziv pedagogik texnologiyalardir.

Ta’limning har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi xususiyat-lariga moslashtirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajada bilim va tarbiya beriladi. Bu masa-lalarni o‘rganish bilan pedagogik psixologiya shug‘ullanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning fiziologik asosi talabalarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o‘g‘il bola va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar alohida hisobga olinishi lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog‘lom avlodni voyaga yetkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Psixoglarning o‘tkazgan tadqiqotlaridan shu narsa ma’lumki, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirayotgan odam eshitganlarining faqat 10 foizini, ko‘rganlarining 50 foizini, nihoyat, bevosita amaldagi bajargan ishlarining 90 foizini xotirada saqlab qoladi. Axborot oqimi shiddatli bo‘lgan hozirgi davrda ta’lim olayotganlarga yetkazilayotgan yangiliklarning asosiy qismi o‘zlashtirilishiga harakat qilinmasa, boshqa ma’lumotlar girdobida keraklisi g‘arq bo‘lishi turgan gap.

Hozirgi zamon talabasiga ta’lim berishning o‘ziga xos jihatlaridan biri kun sayin ta’lim tizimining takomillashib borishi bilan bir qatorda, professional kadrning shaxsiy sifatlari, u egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka hamda ko‘nikmalarga bo‘lgan talablar ham ortib borayotganligidir. Zero, bugunning mutaxassisidagi davlat ta’lim standartlari o‘z ichiga olgan murakkab bilimlar majmuyini ongiga singdirib olishi uchun auditoriyada o‘qigan o‘quvchi-professor ma’ruzalarni sust o‘zlashtiruvchi bo‘lishi bilan cheklanishi sira mumkin emas.

Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaviy qarashlaridagi o‘ziga xos pedagogik texnologiyalar elementlari – ta’lim-tarbiyaning yuqori samaradorligi, talabaning ilm va kasb-hunar o‘rganishi uning istagi va qat’iyatiga bog‘liq

ekanligi, bilimlarni o‘zlashtirish uchun yetarli vaqt ke-rakligi, ta’limning jamoa tizimi, qobiliyatlar darajasida ta’lim berish, ustoz-shogird bajaradigan sharoitlar, shogirdning faolligi va o‘zi o‘zlash-tirgan bilimlarni boshqalarga o‘rgatish bilan shug‘ullanishi muhum ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari: ijtimoiy, falsafiy, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy-me’yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqalar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar manbalari: hozirgi an’anaviy ta’limdagi ilg‘or pedagogik tajribalar, didaktika, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, kompyuter texnikasi, axborot texnologiyalari, boshqa fanlar: xalq pedagogikasi an’analari, oila pedagogikasi va boshqalar.<sup>33</sup>

Keyingi yillarda oliv ta’lim tizimida ham “interfaol usullar”, “breyn-shtorming”, “keys-stadi”lar, “treninglar” kabi qator yangi atamalar ishla-tila boshlandi. Ushbu usullarning ijobiy hamda ayrim murakkab tomonlari to‘g‘risida o‘quv qo‘llanmalar, kitoblar ham paydo bo‘ldi. Quyidagi metodlar OTM talabasi ta’lim yakunida o‘rgangan ingliz tilidagi nutqni idrok etib (tinglab yoki o‘qib) tushunish va ushbu tilda fikr bayon eta olish (gapishtirish va yozish) imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodlar hamda usullarni misol qilishimiz mumkin. Interfaol metod- o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham professor-o‘qituvchi, ham talabani faollashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish usullari majmui. Ularga quyidagi usullar kiradi:

1. Aqliy hujum.
2. Erkin yozish.
- Z. Asoslangan esse.
4. FSMU.
5. Blits-so‘rov.
6. Blits-o‘yin.

---

<sup>33</sup> [http://www.e-reading.club/chapter.php/10Z649/Z/Gluhov,\\_Kovshikov\\_-\\_Psiholingvistika.\\_Teoriya\\_rechevoi\\_deyatel'nosti.html](http://www.e-reading.club/chapter.php/10Z649/Z/Gluhov,_Kovshikov_-_Psiholingvistika._Teoriya_rechevoi_deyatel'nosti.html)

7. O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma.
8. Yozma va og‘zaki davra suhbati.
9. Bumerang usuli
10. Tushunchalar asosida matn tuzish.
11. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi
12. Charxpalak

**“Blits–so‘rov” usuli.** Maqsadi: Talabalarda mantiqiy fikrlash, fan yuzasidan berilgan ma’lumotlar orasidan kerakligini ajrata olish qobiliyatini shakllantirish, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish, boshqalar bilan xamfikr bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni tarixiy jarayon ketma–ketligini aniqlash orqali shakllantirish.

“Blits–so‘rov” usulini o‘tkazish texnologiyasi:

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1. O‘qituvchi talabalarga ushbu mashg‘ulot bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tuchuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi va undan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ogohlantiradi. Tarqatma materiallar tarqatib, talabalarga uni sinchiklab o‘rganish zarurligi aytadi. “Blits–so‘rov” 10 ta savoldan iborat bo‘ladi.
2. Talabalar dastlab tarqatma materialdagi “Yakka baho” bo‘limiga o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma–ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi. Unga 5 minut ajratiladi.
3. Talabalarning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o‘qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tuzishini so‘raydi. Ular hamfikrlikda tarqatma materialdagi “Guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar. Unga 5 minut ajratiladi.
4. Barcha kichik guruhlarda ishlar tugagach, o‘qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo‘yicha to‘g‘ri javobni beradi va talabalar “To‘g‘ri javob” bo‘limiga raqamlarni yozib chiqadilar.
5. O‘qituvchi “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlar bilan “Yakka baho” va “Guruh bahosi” bo‘limidagi raqamlarni solishtrib, katta–kichikligini ayrib,

farqini chiqarib, “Yakka xato” va “Guruh xatosi” bo‘limlariga yozishlarini so‘raydi.

6. O‘qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo‘yicha tuchuncha beradi va ularni alohida sharhlaydi.
7. Talabalar tarqatma materialda berilgan ballar asosida o‘z bahosini chiqaradilar va ular jurnalga qayd qilinadi.
8. Mashg‘ulot yakunlangach, o‘qituvchi mashg‘ulotni o‘tkazish jarayonida talablarning va guruhlarning faoliyati to‘g‘risida o‘z fikrini bildiradi.

5-6 to‘g‘ri javob "qoniqarli"

7-8to‘g‘ri javob "yaxshi"

9-10 to‘g‘ri javob "a’lo"

**Charxpalak usuli.** Maqsad: talabalarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda bayon eta olish, o‘zlarini baholash xamda yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga xurmat bilan qarashga, ko‘p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o‘rgatish.

Charxpalak usulini o‘tkazish texnologiyasi:

1. Talabalar (sharoitga qarab) guruhlarga ajratiladi.
2. O‘qituvchi mashg‘ulotni o‘tkazish qoidalarini tanishtiradi.
9. Tarqatma materiallar guruh a’zolariga tarqatiladi. Topshiriq 20 ta savoldan iborat bo‘ladi.
3. Dastlab guruh a’zolari yakka tartibda berilgan vazifani ishlab chiqishadi va tarqatma materialning o‘ng tomoninga o‘z belgisini yoki ismi familiyasini yozadi. Talaba to‘g‘ri deb bilgan javobini + belgisi bilan ruchkada belgilab chiqadi. 10 minut ajratiladi.
4. Bajarilgan vazifa boshqa guruh a’zolari bilan almashtiriladi. Ular ham tarqatma materialning chap tomoninga o‘zining belgisi yoki ismini yozib, noto‘g‘ri deb bilgan javoblarni x belgisi bilan to‘g‘ri javobini belgilaydilar. Unga 5 minut ajratiladi.
5. Tuzatilgan, o‘zgartirilgan materiallarni yana bir marta guruhlar bo‘yicha

almashtirish mumkin.(guruhan soninga qarab)

6. Oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'latgan materialni tanlab oladilar va unda belgilangan javoblar taqqoslanadi va taxlil qilidilar.
7. O'qituvchi tarqatma materialda berilgan to'g'ri javobni o'qiydi va talabalar ularni o'z javoblari bilan solishtirib boradilar.
8. Xar bir talaba to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar o'rtaqidagi farqni aniqlab, to'plagan balini xisoblab, o'zini o'zi baholaydi.

9-12 to'g'ri javob "qoniqarli"

1Z-16 to'g'ri javob "yaxshi"

17-20 to'g'ri javob "a'lo"

**"Bumerang" usuli.** Maqsadi: O'quv jarayonida talabalarga tarqatilgan materiallarni ular tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallar, undagi matnlarni qaydarajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash.<sup>34</sup>

"Bumerang" usulini o'tkazish texnologiyasi:

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi.

1. Talabalar kichik guruhlarga bo'lib olinadi.
2. Mashg'ulotning maqsadi va tartibi tanishtiriladi.
3. Talabalarga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi.
4. Talabalar tomonidan berilgan matnlar yakka tartibda mustaqil ravishda o'rganiladi. 15 minut vaqt ajratiladi.
5. Har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi.
6. Yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbat bilan mustaqil o'rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar va matnni o'zlashtirib olishlariga erishilari lozim. 10 minut ajratiladi.
7. Berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni bir-birlar bilan savol javob qiladilar. 5 minut

---

<sup>34</sup> [http://www.e-reading.club/chapter.php/10Z649/Z/Gluhov,\\_Kovshikov\\_-\\_Psiholingvistika.\\_Teoriya\\_rechevoi\\_deyatelnosti.html](http://www.e-reading.club/chapter.php/10Z649/Z/Gluhov,_Kovshikov_-_Psiholingvistika._Teoriya_rechevoi_deyatelnosti.html)

ajratiladi.

8. Yangi guruh a'zolari avvalgi holatdagi guruhlarga qaytadi.
9. Talabalarning ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda "guruh hisobchisi" tayinlanadi.
10. Guruhlar o'rtasida matnlarni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash uchun og'zaki savol-javoblar o'tkaziladi.
11. Savollarga berilga javoblar asosida guruhlarning to'plagan umumiyl balli aniqlanadi.
12. Har bir guruh a'zolari tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bitta savol tuziladi.
13. Guruhlar tomonidan tayyorlangan savollarni bir-biriga berishlari lozim va unga xam belgilangan ball beriladi.
14. Guruh a'zolari tomonidan to'plangan umumiyl ballar yig'indisi aniqlanib, guruh a'zolari o'rtasida teng bo'linadi.
15. Talabalarning to'plangan ballari guruh jurnaliga qayd qilinib, o'qituvchi mashg'ulot yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

## **2.2. Integratsiyalashgan reproduktiv nutq malakalarni shakllantirishda texnologik yondashuv**

Yondashuv (eng - Approach; rus – podxod, podstup) atamasiga lug'atlarda biror masalani hal etish yoki muammoning echimini topish uchun ma'lum nazariyaga asoslanish degan, mazmunda ta'rif beriladi. Chet til o'qitish metodikasida mazkur atama dastlab E.M.Antoniy tomonidan til xususiyati va uni o'rganish/o'rgatish usullariga taaluqli qonuniyatlarni ifodalash maqsadida qo'llanilgan bo'lib, unga quyidagicha ta'riflar berilgan:<sup>35</sup>

Yondashuv til o'rgatish va o'rganish xususiyatlariga taaluqli tushunchalar yig'indisidir. Yondashuv aksiomaviydir. U o'qitiladigan predmet mazmunini tasvirlaydi.

---

<sup>35</sup> Antoniy, E. M. "Yondashuv, usul va texnologiyalar". ELT jild. XVII jild, 2-son, 1963 yil, 63-bet. 67. DOI: 10.1093/elt/XVII.2.63.

Yondashuv- til o‘qitish mazmuni va til o‘rganish xususiyati hamda ularni pedagogik jarayonga joriy etish imkoniyatlari haqidagi nazariy jihatdan yaxshi yoritilgan pozitsiya va nuqtai nazar.

Entoniyning fikricha, yondashuv til xaqidagi, uni o‘rganish va o‘rgatish xususiyatlarining printsip yoki tushunchalar yig‘indisi bo‘lib, metod unga moslashtiriladi yoki nazariy jihatdan unga asoslanadi. Ya’ni, yondashuv atamasi orqali chet til o‘qitish amaliyoti va printsiplarining manbaasi bo‘lib xizmat qiladigan til va til o‘rganish haqidagi nazariya ifodalanadi.

Yondashuv til o‘qitish sistemasi zamiridagi fundamental komponent bo‘lib, o‘qitishning umumiy metodologik asosi sifatida gavdalanadi va (til) o‘quv fanining maqsadi va vazifalari hamda ta’lim jarayonida ularni amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydigan ta’lim mazmuni xaqidagi mavjud nuqtai nazarlar bilan xarakterlanadi. Metodistlarning fikricha, yondashuv o‘quv fanining mazmuni xaqidagi qarashlarni umumiylashtiradi, konkret bilim sohasidagi monografiyaning umumiy metodologik asosi sifatida foydalanilinadi, tatqiqotchi faoliyatining y yoki bu hodisalarni o‘rganish bo‘yicha yo‘nalishini aniqlaydi.<sup>36</sup>

Chet til o‘qitish metodikasida yondashuvning yagona klassifikatsiyasi mavjud emas. Masalan, A.N.Shukin yondashuvlarni tilga nisbatan o‘qitish ob’ekti va o‘qitish vositasi nuqtai nazaridan qaraydigan guruhlarga ajratadi. Tilga o‘rganish ob’ekti nuqtai nazaridan qaraydigan:

- a) tilni o‘rganishga,
- b) nutqni o‘rganishga
- v) nutq faoliyati turlaridan bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar farqlanadi.

Tilga o‘rganish vositasi nuqtai nazaridan qaraydigan

- a) to‘g‘ri (intuitive),
- b) ongli (cognitive),

---

<sup>36</sup> Antoniy, E. M. "Yondashuv, usul va texnologiyalar". ELT jild. XVII jild, 2-son, 1963 yil, 63-bet. 67. DOI: 10.1093/elt/XVII.2.63.

v) shaxsga yo'naltirilgan (lichnostno orientirovanniy) va faoliyatga yo'naltirilgan (deyatel'nostniy) yondashuvlarni farqlash mumkin.

Shaxs va uning faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuvlar ingliz tilidagi adabiyotlarda "Humanity approach" deb nomlanmoqda. Lekin, yondashuvlarni tilga nisabatan qanday nuqtai nazardan qaralishini yoki til o'rganish jarayonlarini optimallashtiruvchi ma'lum omillarni e'tiborga olib klassifikatsiyalanishi bizningcha to'g'ri emas.

Shunday yondashuvlar borki ular tilga ham o'rganish ob'ekti ham vositasi nuqtai nazaridan e'tibor qaratish bilan birga til o'rganish samaradorligini ta'minlovchi har qanday omilni tan olish mumkinligini tavsiya etadi. Chet til o'qitishga kommunikativ yondashuvining Natural Approach, Cooperative Language Learning, Content-Based Instruction, Activity-Based Instruction, Task-Based Language Teaching kabi metodlari buning yorqin misolidir.

Til rivojlanish ontogenezi va filogenezi sohasida olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, bola o'z ona tildan

- a) biror narsani qo'lga kiritish (instrumental funktsiya),
- b) xatti harakatni boshqarish (regulyativ funktsiya),
- v) atrofdagilar bilan interaktsiyani sodir etish (interaktiv funkciya),
- g) shaxsiy xis-tuyg'ular va ma'nolarni ifodalash (personal funktsiya),
- d) o'rganish va kashf qilish (evristik funktsiya),
- e) o'z tasavvuridagi olamni yaratish (tasavvur funktsiya),
- j) axborot almashish (komunikativ funktsiya) maqsadlarida foydalanadi.

Piaje va Vigotskiyning nazariyalari farqlansada, umumiy jihatlardan holi emas. Masalan, ikkala nazariya ham ta'lim jarayonida a) o'rganuvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishiga keng imkoniyat yaratilishi, b) shaxsiy yoki hamkorlikdagi tajribalar asosida bilimlarni kashf qilib egallanishi (selfinitiated discovery approach, assisted discovery approach), v) talabalarning bir-birlaridan individual jihatdan farqli ekanliklarini hisobga olinishi zarurligini targ'ib etadi. Ya'ni, ta'lim jarayonida talabalarning bilimlarni mustaqil egallah layoqatini rivojlantirish, ularni fikran uyg'otish, faol, erkin va ijodiy tafakkurini

avj olishini ta'minlovchi optimal vaziyat yaratilishiga ustuvor ahamiyat qaratish targ'ib etilmoqda.

Jahon hamjamiyati bilan integrallash jarayoni ta'limda ham xorijdagi yangi o'qitish texnologiyalaridan, boy tajribadan, foydalanish imkoniyatlarini yaratdi. Bundan tashqari hozirgi paytda erishilayotgan fan va texnika yutuqlaridan, ayniqsa, tilshunoslik, pedagogika, didaktika, psixolingvistika va psixologiya fanlarida erishilayotgan yutuqlaridan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda foydalanish taqazo etilmoqda.

Integrattsiya qanday ma'noni anglatadi?

Biz narsalarni integrattsiyalashtiranimizda ular o'zaro bog'lanadi yoki birgalikda yanada samarali bo'lishi uchun faoliyat olib boradi. Integrattsiyalashgan tizim turli fikrlarni bir yo'lda mujassamlashtirib foydalilik darajasini oshiradi. Shunisi aniqki, muloqot jarayonini yaxshilash uchun til o'rganish ko'nikmalari ham bog'liq tarzda o'rgatilishi zarur.

Ko'nikma bu xarakatlarni doimiy tarzda qaytararib turishga qaratilgan, insonning ongli faoliyatiga xos xususiyat. Parranda va xayvonlarda bunday xarakat instinkt deb ataladi.

- Qobiliyatlarni doimiy tarzda yaxshilab borish va mustakamlab turish lozim aks holda ular osonlik bilan yo'qoladi.
- Agar mashhur futbolchi Runiy shug'ullanishni to'xtatganda hozirgi muvaffaqiyatlariga erisha olarmidi?
- Duradgor yoki san'atkorch? Ular ham o'z kasbi bilan bog'liq kasbiy xarakatlarni ko'p marta takrorlab turganliklari uchun kasbiy maxoratga erishganlar.
- Mahoratli insonlar o'zlarida biror faoliyatni boshqalarga nisbatan yaxshiroq amalga oshirishlarini namoyon etadilar-mahoratli futbolchi gol uradi fortopianachi go'zal asarlar yaratadi duradgor esa bir- biridan chiroyligi jihozlar tayyorlaydi.
- Biz mahorat bilan tug'ilmaymiz, maxoratni shakllantiramiz.
- Odatda ko'nikma va mahorat hayotimiz davomida orttiriladi va shakllantirib boriladi.-Runiy, pianinochi va duradgor ham mahoratga ega bo'lishdan oldin o'z

ustida doimiy ishlab borgan. Kasbiy xarakatlarni ko‘p qaytarilishi natijasida u kasbiy ko‘nikmaga aylanadi.

Til ko‘nikmalari xususida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

- Mutloq samaradorlikka erishish uchun barcha til ko‘nikmalarida: o‘qish, yozish, eshitish, og‘zaki muloqot shuningdek fikrlashda mukammalikka ega bo‘lishi lozim.
- Til ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘srimcha til ko‘nikmalarining o‘rni ham ahamiyatlidir.
- Qo‘srimcha til ko‘nikmalarni, nutqiy muloqotni amalga oshirishda yordam beruvchi tayanch xarakatlar deyish mumkin. Nima uchun ular muhim va qachon foydalilanadi?
- Tildan foydalanish chog‘ida iinsonlar bir qancha qo‘srimcha til ko‘nikmalariga ham ega bo‘ladilar.
- Qo‘srimcha ko‘nikmalar topshiriqlar asosida tanlab olinadi.

Til ko‘nikmalari va qo‘srimcha ko‘nikmalar:<sup>37</sup>

- Ko‘zdan kechirish
- qayd qilib borish
- Namoyish eta bilish
- Tahlil etish

Til o‘rganuvchining mahorati turli ko‘nikmalarda turlicha namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining muayan bir vazifasi bu o‘rganuvchilarga o‘zлari nisbatan kuchsizroq bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirib borishlarida yaqindan yordam berish. Shuningdek biz ularga qaysi topshiriq uchun qaysi ko‘nikma mosligini aniqlab ko‘rsatishimiz kerak.

Nima uchun biz to‘rtta til ko‘nikmasini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishimiz kerak?

- Shunday holatlar borki, bunda bizdan bir emas bir necha til ko‘nikmalarini foydalanish talab etiladi.

Qanday qilib til ko‘nikmalarini integrattsiyalashtirish mumkin?

---

<sup>37</sup> Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. - T.: «O‘qituvchi», 2012. -294-b.

- Integratssiyalashning eng oson usuli qabul qiluvchi ko‘nikmalardan namoyish etuvchi ko‘nikmlarga o‘tishdir.
- Ikkinchi tur esa mukammal integratssiya.<sup>38</sup>

Reseptiv	Produktiv
Og‘zaki usul	Eshitish
Og‘zaki nutq	Gaprish (og‘zaki)
Yozma usul	O‘qish
Yozma nutq	Yozuv (yozish)

O‘rganuvchilarni foydali va samarali bo‘lgan strategiyalardan foydalanishga yo‘naltirish mobaynida o‘qituvchi turli topshiriq va mashg‘ulotlardan foydalanishi mumkin.

Mashg‘ulotlar va topshiriqlarni shakllantirishda ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan jihat shuki ular turli bosqichlar asosida shakllantirilishi lozim.

Jarayon oldi topshiriqlar:

Bu turdagi topshiriqlardan maqsad o‘rganuvchilarning avvaldan shakllanib kelgan bilimlarini namoyon etish. Bu turdagи topshiriqlar yordamida o‘qituvchi o‘z talabalarini asosiy topshiriqlarga tayyorlab boradi.

Asosiy topshiriqlar:

Bu bosqichning maqsadi o‘rganuvchilarga taqdim etilgan matn ma’nosini hamda nazariy tuzulishini o‘rganishga ko‘maklashish

Oxirgi bosqich topshiriqlari:

Ushbu turdagи topshiriqlar egallangan bilimni yanada mustahkamlash va chuqur tushunishni ta’minlashni nazarda tutadi. Oxirgi bosqich topshiriqlari o‘quv materialida keltirilgan masalalarni muhokama va tahlil etishga o‘rganuvchilarni da’vat etadi.

Odatda foydalilanidigan o‘quv materiallari har tomonlama o‘zini qo‘llashiga qaramasdan autentik o‘quv materiallarini qo‘llash ham yahshi natija beradi.

---

<sup>38</sup>Jalolov J.J. CHet til o‘qitish metodikasi. - T.: «O‘qituvchi», 2012. -294-b.

Autentik material deganda darslikdan tashqari manbalardan olingan o‘quv materiallari tushiniladi.

Hozirgi paytda ta’limdagi eng muhim masalalardan yana biri o‘qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va o‘qitish jarayonida o‘rganilayotgan fan materiali asosida tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish hisoblanadi.

Ma’lumki uzlusiz ta’lim tizimidagi eng muhim bo‘g‘inlardan biri oliy ta’lim hisoblanadi, chunki oliy ta’lim xalq xo‘jaligining turli soxalari uchun har taraflama etuk, bilimdon va malakali kadrlar tayyorlashdagi muhim bo‘g‘in xisoblanadi.

Ta’limda yuqori sifatga erishilishda va malakali kadrlar tayyorlashda o‘qituvchi omili, uning bilim darajasi, kasbiy mahorati eng muhim omillardan biridir. Oliy ta’limda kadrlar tayyorlashda ikki muhim narsaga e’tibor qaratmoq lozim.<sup>39</sup>

1. Kelajakdagi ya’ni bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi.
2. Uning pedagogik nuqtai-nazardan tayyorgarligi.

Birinchisi uchun o‘qitish maqsadi, mazmuni, ya’ni nimani o‘qitishni aniqlash bo‘lsa ikkinchisi uchun o‘qitish metodlari, ya’ni qanday o‘qitish yo‘llari bilan bog‘liq muammolarni xal qilish muhim. Bu esa hozirda ta’limda keng qo‘llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, o‘qitishdagi interfaol usullardan keng foydalanishni taqazo etadi.

Yurtimizda qabul qilingan muhim xujjatlar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta’lim to‘g‘risida qonun»larda ham hozirgi paytda chet tili o‘qitishda ham ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va interfaol metodlardan samarali foydalanish zarurligi ko‘rsatilgan.

Chet tili o‘qitishdagi zamonaviy texnologiyalar xususida so‘z yuritishdan oldin «texnologiya» atamasining moxiyatini aniqlay olish maqsadga muvofik “Texnologiya” so‘zi yunon tilidagi “teshe” so‘zidan olingan bo‘lib, y mahorat, san’at ma’nolarini anglatadi. “Logos” esa so‘z, ta’limot ma’nolarini anglatadi.

---

<sup>39</sup> Alimov F. Effective ways of improving the written speech skills of the nonphilological faculty students/ Eastern European Scientific Journal. № 3. [www.Auris-Verlag.de](http://www.Auris-Verlag.de) Germany.2016. P. 156-158.

Metodik adabiyotlarda juda xilma-xil texnologiya so‘zi bilan bog‘liq atamalarni uchratish mumkin: pedagogik texnologiya, texnik texnologiya, ta’lim texnologiyasi, o‘qitish texnologiyasi, yangi texnologiya, zamonaviy texnologiya, gumanitar texnologiya va xokazo.

Bu haqida so‘z yuritganda eng avvalo texnologiyaning uch turini aloxida ko‘rib o‘tish zarur<sup>40</sup>:

1. Texnik texnologiya.
2. Ta’lim texnologiyasi.
3. O‘qitish texnologiyasi.

Texnologiya aslida ta’lim jarayoniga ishlab-chiqarishdan kirib kelgan. Ishlab chikarishda «texnologik jarayon», «texnologik operatsiya», «texnologik xarita», «texnologik rejim» atamalari keng qo‘llanadi. Texnologik jarayon maxsulot ishlab chikish jarayonidagi texnologik operatsiyalarining birligidan iborat. Texnologik operatsiya esa ishchi tomonidan bajarilayotgan xarakatlar majmuini tashkil qiladi.

Texnologik xarita esa ma’lum bir maxsulotni ishlab chiqarishdagi barcha bajariladigan operatsiyalar (harakatlar)ning ketma-ketligini bayon qiluvchi xujjatdir. Texnologik rejim deganda esa texnologik operatsiyalarini amalga oshirish vaqtini, shartini, tartibini belgilash tushuniladi.

Pedagogik texnologiya shaxsni shakllantiruvchi, uning sifat va xususiyatlarini rivojlantiruvchi texnologiyani va o‘qituvchi, o‘rgatuvchi texnologiyalarini ya’ni didaktik texnologiyalarini o‘z ichiga olgan xolda qo‘llanilmokda.

Chet tillarni o‘qitishda yangi zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash xususida so‘z yuritilar ekan, o‘qitish ya’ni ta’lim texnologiyasini aloxida olib karalishi maksadga muvofikdir, chunki ta’lim texnologiyalarida insonning ichki resuruslarini (imkoniyatlarini), ta’lim shakllarini optimallashtirish jarayonidagi hamkorligini xisobga olgan xolda darsni tashkil kilish, bilimlarni o‘zlashtirishning samarali usullarini izlab topish, yaratish tushuniladi.

---

<sup>40</sup> Alimov F.Sh. Samples of exercises on improving written speech competence of Uzbek students of non-philological faculties teaching English/ European Journal of Research and Reflection in Educational Science. www.idpublications.org Vol.4 № 5 England (UK) 2016. P.67-70.

O‘qitish texnologiyasi ham ta’lim texnologiyasining uzviy qismi bo‘lib unda o‘qitish maqsadi aniqroq qo‘yiladi, ya’ni aniq bir mavzuga oid maksadni amalga oshirish uchun belgilangan, ma’lum ketma-ketlik bajariladigan didaktik xarakatlar (operatsiyalar) orqali ko‘zlangan yoki belgilangan, natijaga erishishning kafolatganligini ta’minlovchi jarayondir.

### **2.3.Ingliz tilidagi integratsiyalashgan reproduktiv nutq kompetentsiyani shakllantirish texnoligiysi**

Ma’lumki, «kompetentsiya» atamasi ilk bor N.Xomskiy tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, y til tizimi haqidagi bilimlarga ega bo‘lishni, ya’ni layoqatlilikni ifodalovchi «lingvistik kompetentsiya» ma’nosida ishlatila boshlagan. Ammo bu tilni real nutqiy vaziyatlarda qo’llay olish layoqatini ifodalamagan.

Metodik adabiyotlarda «kompetentsiya» atamasi bilan bog‘liq ko‘plab atamalarni uchratish mumkin: lingvistik kompetentsiya, diskursiv kompetentsiya, pragmatik kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya, strategik kompetentsiya, ijtimoiy madaniy kompetentsiya va hokazo kabilar. T.V.Xilchenko ushbu kompetentsiyalar qatoriga kasbiy kompetentsiyani ham qo‘sishni taklif qiladi.<sup>41</sup>

Lingvistik kompetentsiya leksik birliklar va grammatik qoidalardan foydalana bilish layoqatini hisobga olsa, diskursiv kompetentsiya yozma matn hosil qilish va uni interpretatsiya qila bilish layoqatini o‘z ichiga oladi.<sup>42</sup>

Pragmatik kompetentsiya nutqiy muloqotni qo‘yilgan yoki ko‘zlangan maqsadga mos tashkil qila bilish va kerakli axborotni olish yoki berishda til vositalaridan to‘g‘ri foydalana bilish layoqatini bildirsa, strategik kompetentsiya muloqot jarayonida kelib chiqadigan qiyinchiliklarda nutqiy vaziyatga tegishli

---

<sup>41</sup> Xilchenko T.V. Organizatsionnie formi samostoyatelnoy uchebnoy deyatelnosti studentov po sovershenstvovaniyu inoyazichnoy pismennoy rechi. // Teoriya i praktika razvitiya sovremenennogo visshego professionalnogo obrazovaniya: materiali mejdunar. nauch.-prakt, konf. - Shadrinsk, 2006. - CH. 2. - C. 139-142.

<sup>42</sup> Rogova G.V., Rabinovich F.M., Saxarova T.11 Metodika obucheniya inostrannim yazikam v sredney shkole. -M.: Prosveshenie, 1991.

o‘zgartirishlar kiritish orqali mushkul vaziyatdan chiqib ketish layoqatini ifodalaydi.<sup>43</sup>

Bunday holatda nutqiy faoliyat ishtirokchisi, so‘z ma’nosini konteksdan anglab olish va noto‘g‘ri ishlatilgan til vositalarini fahmlab to‘g‘ri variantni aniqlay bilish ko‘nikmalariga, shuningdek, zarur bo‘lganda yozma (yoki og‘zaki) kontekstni istak-xohish va ma’no-mazmuniga ko‘ra o‘zgartira olish malakalariga ham ega bo‘lishi talab etiladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentsiya muloqot mavzusi, nutqiy vaziyatlarni tanlay bilish, talabalarni tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan tanishtirishda ularda o‘zga madaniyat va ushbu madaniyat sohibi bilan bo‘lgan nutqiy muloqotda tolerantlik (bag‘rikenglik) layoqatiga ega bo‘lishni nazarda tutadi.

Ushbu aytilganlarning barchasi kommunikativ kompetentsiyaning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shuning uchun ham talabalarda ingliz tilidagi yozma kompetentsiyani shakllantirishda kommunikativ kompetentsiyaning yuqorida qayd etilgan komponentlarini ham hisobga olgan holda reproduktiv nutqiy kompetentsiyasini shakllantirish maqsadga muvofiq, chunki ular o‘rtasidagi bog‘liqlik nofilologik fakultet talabalarining o‘rganilayotgan chet tildagi kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishga ham ijobiy ta’sir etadi.

Biz T.V.Xilchenkoning kasbiy kompetentsiya haqidagi fikriga qo‘shilgan holda nofilologik fakultet talabalarining ingliz tilidagi yozma nutq kompetentsiyasini shakllantirishda ularning kasbga doir yozma nutqiy kompetentsiyasini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratmoq lozim, deb o‘ylaymiz. Bu nofilologik fakultet talabalarining bo‘lg‘usi kasblariga xos bo‘lgan yozma matnlar, axborotlar tayyorlashdagi va chet tildagi yozma manbalardan o‘z kasblariga oid kerakli axborotni olishdagi layoqatlarini belgilab beradi.<sup>44</sup> Talabalarining yozma nutq kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik omillari haqi-da so‘z yuritganda til o‘rganuvchilarning yoshi, yozma nutq

<sup>43</sup> Kudryashova O.V. Komponenti kommunikativoy kompetentsii pri obuchenii pismennoy rechi. // «Vestnik YuUrGU», 2007, № 15.

<sup>44</sup> Sherba L. Prepodovanie inostrannix yazikov v sredney shkole. Obshie voprosi metodiki. 2-e izdanie –M.: Vissnaya shkola. 1924.

jarayonidagi kreativligi, o‘rgani-layotgan chet tilini ularning kelgusi kasbiy faoliyatlarida tutgan o‘rni kabi omillarni misol qilib keltirish mumkin. Bilimlarni o‘zlashtirish oson ish emas, bunda o‘qituvchi bilim berish bilangina chegaralanmasdan tarbiyaviy masalalar bilan hamshug‘ullanishi talab etiladi. Bu nafaqat bog‘cha, maktab, akademik litsey sharoitida, balki kollej va oliy ta’lim muassasalarida ham olib borilishi lozim. Inson jamiyatning bir bo‘lagi, demak jamiyatdagi o‘zgarishlar, ijtimoiy holat shaxs tarbiyasiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonining markazida ham inson shaxsi va uni har tomonlama kamolga etgan shaxs sifatida tarbiyalash masalasi turadi.

Ma’lumki, barkamol avlodni tarbiyalash, unda insoniy, axloqiy xislatlarni shakllantirishda pedagogik omillar: shaxsning xarak-teri, qiziqishi, til o‘rganishga qobiliyati, o‘zining kelajakdagi kasbiga bo‘lgan munosabati kabi omillar individual hisoblanib, y turli shaxslarda turlicha shakllangan bo‘lishi mumkin. Talabalarning ingliz tilidagi o‘qish kompetentsiyasini shakllantirishda ushbu omillar ham hisobga olinmog‘i lozim, zero talabalarning xarakteri, qobiliyati, ingliz tilidagi og‘zaki va yozma nutqqa bo‘lgan munosabati turlichadir. Bu esa o‘qituvchidan pedagogik mahoratni, ya’ni talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olib topshiriq, ko‘rsatma va maslahatlar berishni, shuningdek, yozma axborotlar tayyorlash bilan bog‘liq topshiriqlar berishda talabalarning qiziqishlari, qobilyatlarini hisobga olishni va shundan kelib chiqib ta’lim usullari hamda shakllarini tanlashni talab qiladi. O‘qib o‘rganish jarayonida talabalarni faollashtirish hamisha muhim rolб o‘ynagan.

O‘qishga, o‘qib tushunishga o‘rgatish yozma shakldagi axborotni o‘qib idrok etishni ko‘zda tutib, nutq faoliyatiga o‘rgatishning tarkibiy qismlaridan biridir. O‘qib tushunishga o‘rgatish, fikrni yozma bayon qilishga o‘rgatish, nutqni tinglab tushunish singari reproduktiv (qabul qilib olinadigan) nutq faoliyati hisoblanadi. Lekin nutqni tinglab tushunishdan farqli o‘laroq talaba axborotni ko‘rish sezgisi orqali, xarflar kodi yordamida qabul qilib oladi. O‘qish paytida ko‘rish, yozish va nutq xarakat sezgilari o‘rtasida bevosita aloqa paydo bo‘ladi. Odatda o‘qishga

o'rgatish deganda xarfiy belgilarda ifodalangan nutq axborotini idrok etish, uning mazmunini tushunish jarayoni ko'zda tutiladi.

O'qib tushunishga o'rgatishni talabalarga matn mazmunini tushunish va o'qish texnikasiga o'rgatish tashkil etadi. Matndagi axborotni o'zlashtirish, ya'ni o'qib tushunishga o'rgatish ovoz chiqarmay o'qish va matndagi axborotni o'zgalarga etkazish maqsadida ovoz chiqarib o'qish orqali amalga oshiriladi. Ovoz chiqarmay o'qilganda ham nutqni idrok qilish, ya'ni ichki nutq axborotni qabul qilish jarayoni sodir bo'ladi. Bu xodisa o'qish turlariga o'rgatishning metodik sistemasiyi yaratishni ko'zda tutadi.

Matnni boshdan oxirigacha tarjima qilishga o'rgatish, o'qib tushunishga o'rgatish emas, tarjima qilishga o'rgatishdir. Bu lug'atga qarash, gap tuzish kabi murakkab jarayonni o'z ichiga oladi. O'qib tushunishga o'rgatish esa uni o'qish jarayonining o'zidayoq idrok qilish, axborotni tushunishga o'rgatadigan jarayondir. Matnni takror-takror o'qitib, xar safar alohida topshiriq berish mumkin. Matnni to'la tushunib o'qish uchun matn oldi mashqlarini tashkil qilish lozim. Matnni ovoz chiqarib o'qish esa ta'limning dastlabki bosqichida o'qish texnikasiga o'rgatish jarayonida bajariladi. Asosiy maqsad matndan axborot olish bo'lganligi uchun matnni talabalar ichida o'qisalar ham bo'ladi. O'qib tushunish jarayonida matn tahliliga hojat yo'q chunki bunday metodik tadbir matngacha qilinadigan mashqlar jarayonida tashkil qilinadi, yoki mакtab sharoitida matn tahlili amaliyotini qo'llamaslik kerak. Notanish so'zlarni esa kontekst ichida faxmlab olishga o'rgatish muhimdir. Axborot olishdagi qiyinchiliklar matnni o'qish jarayonida kontekst yordamida bartaraf qilinadi.<sup>45</sup>

O'qib tushunishga o'rgatishda ham muayyan printsiplarga amal qilinadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'qib tushunishga o'rgatish faoliyatiga o'rgatish deb qaralmog'i lozim. An'anaviy o'qishga o'rgatish jarayonidagi metodik xato hisoblanmish matnni tarjima qilish yoki mazmunini gapirib berish, gapirishga va tarjima qilishga o'rgatish bo'lib, y o'qib tushunish maqsadlariga yo'naltirilmagan usuldir.

<sup>45</sup> Sattarov T. Bo'lajak chet til o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. – T., 2003. –47-b.

2. O‘qib tushunishni o‘rgatish axborot olish va bilish jarayonini tashkil qilishdir. Bu o‘rinda matn mazmunning boshqacha bo‘lishi talabalarining axborot olishiga intilishlarini belgilovchi, ularni maroq bilan o‘qishga undovchi omil vazifasini bajaradi.
3. Talabalarining ona tili va xorijiy tilda shakllangan, malakalariga tayanilib talabaning chet tilida o‘qishga munosabati shakllantiriladi. Bu o‘rinda talaba uchun “O‘qisam tushunaman” degan fikriga amal qilish zarurati to‘g‘iladi.
4. Talabalar xorijiy tildagi matn mazmunini o‘qib tushunishlari uchun matndagi leksik, grammatiq orfografik hodisalarni avvaldan o‘rgangan bo‘lishlari, o‘qish jarayonida ularni farqlashlari lozim.
5. O‘qib tushunishga o‘rgatishda nafaqat reproduktiv, balki reiroduktiv faoliyat ham yuz beradi. Ya’ni, matn mazmunini tushunish jarayonida talabaning ichida gapirish jarayoni ham sodir bo‘ladi.

Bugungi kunda, yosh avlodning intellektual salohiya-tini yuksaltirish, yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ta’lim muassasalarini badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop va tarbiyaviy adabiyotlar bilan ta’minlashni yanada kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilayotganligi hech kimga sir emas. Mamlakatimiz jadal rivojlanayotgan bir davrda ajdodlarimiz, donolar fikrida o‘z aksini topgan kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.<sup>46</sup>

Kitob kishilik jamiyatining doimiy ma’naviy ehtiyoji bo‘lganligi sabab uning mutolaasiga chorlov va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish targ‘iboti hamisha kerak. Ayniqsa, bugun aholida kitobxonlik ishtiyoqini uyg‘otish har qachongidan ham dolzarb tus oldi. Yosh avlodning har tomonlama barkamol shakllanishida kitob mutoalasining o‘rni beqiyosligini anglagan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvarda “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi qabul qilindi.

---

<sup>46</sup> Qodirov B.R. Aqliy iste’dod XXI asrning eng qimmatli mulkidir. TDPU. 1999. // O’zb. Resp. Psixologlari. T.: 2001. – 99 b.

Bu hujjatda aholining keng qatlamini kitob o‘qishga jalg qilish, kitob o‘qish va kitobxonlikni targ‘ib etish, voyaga etgan farzandlarimizni bog‘cha yoshidan boshlab kitobga mehrli qilib tarbiyalash, kitob mahsulotlarining mazmuniga e’tibor berish, ularni chop etish sifatini yaxshilash, turli mazmundagi kitoblar bilan to‘ldirilgan kitob do‘konlarini ko‘paytirish, kitoblar fondini yanada boyitish ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 13 sentyabr kunidagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli Qarori hamda ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishga muhim qadam bo‘ldi. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha to‘rtinchi tashabbus tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Madaniyat, madaniyatilik g‘oyatda keng tushunchalar, biroq kim nima demasin, kim qanday talqin qilmasin, bu tushunchalarning mohiyatida tarbiya, tarbiyalanish hodisasi yotadi. Inson-tarbiyalanuvchi mavjudot. Tarbiyaning shakllari esa ko‘p. Ammo uning o‘zak va tayanch nuqtasi mutolaa va yana mutolaadan bino bo‘ladi! Mutolaa madaniyatini egallagan kishi manbani to‘laqonli tushunadi, undan estetik zavq ola biladi, muallif fikri va g‘oyasini anglab etadi hamda uni baholay oladi. Bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, o‘zini qiziqtirgan masalalarga doir manbalarni topib olib, iste’foda qilish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan bo‘ladi. Kitobni tanlay bilish, uni yuqori sur’at bilan o‘qish, avaylab, saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyatiga kiradi. Unda avvalo o‘qigan kitoblari vositasida ezgu xarakter, ezgu xulq-odob, sog‘lom dunyoqarash, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy faollik shakllangandagina amalga oshadi. Yoshlarga yaxshi, zarur, foydali axborotni, kitobni ajratib berishda tajribali murabbiylar, o‘qituvchilar va adabiyotshunoslar ko‘magiga ehtiyoj katta.

Uzluksiz ta’lim muassasalarining barcha bo‘g‘inlarida bolalar, o‘smir va yoshlarda kitob o‘qish ko‘nikmasini hosil qilish uchun ularga bosqichma-bosqich takomillashib boradigan mutolaa madaniyati texnologiyalarini joriy etish kerak. Buning uchun mutasaddi tashkilotlar va ilm dargohlari har bir yoshdagি kitobxonning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mutolaa madaniyatini shakllantirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishi zarur.

Xulosa qilib aytganda inson shaxsini tarbiyalash, undagi qobiliyatni rivojlantirish ko‘p jihatdan jamiyatning ijtimoiy xarakteriga, uning ma’naviy tizimiga bog‘liqdir. Respublikamiz o‘quv yurtlari “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning sifat bosqichida qo‘yilgan vazifalarni bajara borib, talaba yoshlarni qobiliyat va iste’dodlarini erta aniqlab va rivojlantirib ushbu soxa taraqqiyoti yo‘lida ta’limning zamonaviy yangi pedagogik texnologiya usullarini qo‘llashmoqda, tarbiyaviy tizimni takomillashtirmoqda. Talaba yoshlarning individual qobiliyatini o‘stirishda barcha pedagogik imkoniyatlardan unumli foydalanim, bu sohada bir muncha ijobiy tajribalarni ham qo‘lga kiritdik desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Odam psixologiyasining eng muhim xususiyatlaridan biri kompensatsiya qobiliyatidir. Ya’ni kishining psixikasida bo‘lgan bir imkoniyati o‘rnini bir qancha boshqa imkoniyatlar bilan to‘ldirish mumkinligidir; demak kishida biron qobiliyat yo‘q bo‘lsa, boshqa juda yaxshi o‘sgan qobiliyatlar uning o‘rnini bosa oladi. Boshqacha aytganda, bir ishning bar xil darajada yaxshi bajarishning asosi odamdagи turli qobiliyatlarning turlicha qo‘shilishi bilan ham bo‘lishi mumkin. Bu hol insondagi qobiliyatlarning haqiqatdan cheksiz o‘sishiga imkon beradi” .

Talaba yoshlarning dunyoqarashini, uning ijodiy qobiliyatini o‘stirish masalasi muhim masalalardan bo‘lib, hamma vaqt va davrlarda ham o‘ta dolzarb bo‘lib kelgan. O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri-ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a’zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydi. Jamiyatda mutolaa madaniyatini oshirish, deganda faqat kitob o‘qishnigina tushunish ham bir tomonlama yon-

dashuvga olib keladi. O‘qish bilan birga odamlarga foy-dasi tegadigan, ezgu bilimlarni tarqatadigan, jamiyat axloqini takomillashtirishga xizmat qiladigan kitoblar-ni chop etishdan tortib, ularning kitobxonlar, jumladan farzandlarimiz tomonidan o‘zlashtirilishi, qalbiga jo qilinishigacha bo‘lgan barcha jarayonlar mutolaa madaniya-tining tarkibiy qismlaridir.

### **3. BOB. INGLIZ TILIDAGI REPRODUKTIV NUTQ**

#### **KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH YUZASIDAN TAJRIBA**

#### **SINOVNI TASHKILLASHTIRISH XUSUSIDA.**

##### **3.1. Tajriba sinovni tashkil qilish bosqichlari.**

Jahon amaliyotida talabalarning xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ingliz tilidagi reproduktiv malakalarni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir innovatsion faoliyatni modernizatsiyalash, o'qish texnikasi va nutqning boshqa turlariga nisbatan differentsial yondashgan holda reproduktiv malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, lingvodidaktik va psixologik omillar ta'sirini aniqlash alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan kompetentsiyaviy yondashuv asosida talabalarda integratsiyallashgan til ko'nikmalarini shakllantirish orqali reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirish, tinglab va o'qib axborot olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Garchi o'qish bilan tinglab tushunish reproduktiv nutq faoliyati turlari bo'lsada, ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga oid reproduktiv ko'nikma va malakalarni shakllantirishda differentsial yondashuv talab etiladi.

Tilning mukammal o'rganish uchun talabalardagi o'qish, yozish, gapirish, eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, hamda talabalarning tilni mukammal o'rganishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ko'nikmalarini rivojlantirish orqali talabalarda chet tilida muloqot qila olish va o'z fikrlarini erkin bayon qilish imkoniyatlari yaratiladi .

Darsga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar, ko'nikmalarni rivojlantirish talabalarda o'zlariga bo'lgan ishonchni oshiradi va ularni til o'rganishlariga yaqindan ko'mak beradi. Bu o'rinda talabalarni bilim darajasiga katta e'tibor qaratish va ularning bilim darajasidan kelib chiqqan holda ularga mavzu tanlab, mashg'ulotlarni tashkillash maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir o'qituvchi darsni qiziqarli tashkillash uchun mashg'ulotlar davomida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishlari va dars davomida talabalarni zeriktirib qo'ymasligi darkor. Dars davomida turli mashqlardan, ko'rgazmalardan, texnik

vositalardan unumli foydalanish darsning samarali tashkillanishiga yaqindan ko‘mak beradi. Talabalarning darsda faol ishtirok etishlari o‘qituvchining darsni qay tarzda tashkillaganiga, mavzuga bog‘liq bo‘lgan mashqlarning xilma-xilligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Talabalar yangi so‘zlarni faqat yodlash bilan emas, balki so‘z o‘rganish bilan bir qatorda ana shu so‘zlar yordamida matn tuzish, ularni kundalik hayotga tatbiq eta olishlari ham muhimdir. Ular so‘zlar bilan ishlash mobaynida, berilgan so‘zlarni izohlashlari, ular yordamida so‘z birikmalari tuzishlari hamda ularni qatnashtirib dialog tuzishlari ham mumkin. Bu usul bevosita talabalarning chet tilida bemalol muloqot qilishlariga yordam beradi.

Darsga bo‘lgan zamonaviy yondashuvning asosiy talablaridan yana biri, darsda nafaqat matnlardan foydalanibgina qolmay, balki tili o‘rganilayotgan mamlakatning adabiyoti bilan ham talabalarni tanishtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi..Bundan tashqari talabalarga, mavzuga doir biror bir videofilmni namoyish etish va ana shu film xususida ularning fikrlarini bilishdir. Bunda talabalar filmdan olgan taassurotlarini va yoki, filmni qisqacha mazmunini so‘zlab berishlari kerak. Filmga o‘xshash biror boshqa filmlar xususida so‘zlab berish ham ulardagagi gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga ijlbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Darsni qanday tashkillash va olib borish o‘qituvchining mahoratiga va uni tajribasiga ham bog‘liqdir. Darsga bo‘lgan zamonaviy yondashuv va dars davomida yangi pedagogik usullardan samarali foydalanish o‘qituvchilarni o‘z faniga bo‘lgan qiziqishlari, yangiliklarga bo‘lgan intilishlariga ham bog‘liq bo‘ladi.

Demak, har bir mashg‘ulotga tayyorgarlik va darslarga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar o‘qituvchini ham talabani ham dars davomida zerikmaslika va mashg‘ulotlarni samarali tashkillanishiga olib keladi. Bu yondashuvlar talabalarni til ko‘nikmalarni rivojlantiradi va albatta, tilni mukammal egallahlariga o‘rganayotgan tillarida bemalol muloqot qila olishlariga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnika va texnologiyalarni qo‘llash, bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga milliy va jahon ta’lim tajribasi mavjud yondashuvlarga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali

mamlakatimiz intellektual resurslari potentsial ulushini oshirish dolzarb vazifalar sifatida qaralmoqda.

2022-2023 o‘quv yillari davomida Farg‘ona davlat universiteti nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar (nemis va fransuz tili yo‘nalish talabalari) hamda Andijon mashinasiozlik institutidan iqtisodiyot fakulteti va avtomobilsozlik fakulteti yo‘nalishi talabalari bilan tajriba-sinov ishlari amalga oshirilgan. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda 158 nafar talaba ishtirok etgan.

Shundan, 79 nafar talaba tajriba guruhi va 79 nafar talaba nazorat guruhi sifatida belgilab olinib, tajriba-sinov ishlari o‘tkazilib, olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilingan.

Bundan kelib chiqib, talabalarning xorijiy tillar bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ingliz tilidagi reproduktiv nutq malakalarni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir innovatsion faoliyatni modernizatsiyalash, o‘qish hamda tinglash texnikasi va nutqning boshqa turlariga nisbatan differentsial yondashgan holda reproduktiv malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, lingvovidaktik va psixologik omillar ta’sirini aniqlash;

-Ingliz tilini o‘qitishda va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodik ta’minoti va lingvovidaktik tahlil asosida mutaxassislik o‘quv materiallarini tizimlashtirish bo‘yicha reproduktiv nutq kompetentsiyasini o‘stirishni tahlil qilib borishiga;

- Integratsiyalashgan reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirish va o‘stirishda interfaol usullar va didaktik o‘yinlar texnologiyasidan foydalanish;

- Integratsiyalashgan o‘qish malakalarini shakllantirishda turli hil strategiyalarni maqsadga muvofiq qo‘llash texnikasini tadbiq etish;

- Kommunikativ metod talablari va tamoyillari asosida o‘zbek talabalarining ingliz tilidagi reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirish usullarini ishlab chiqish.

Tajriba-sinov davrida ta’lim jarayonida o‘qitishning inovatsion usulida yaratilgan, TPRS (Teaching Proficiency through Reading and Storytelling)

metodikasiga asoslangan ingliz tili audio-darsligidan foydalanildi. Bu kitobda talabalarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqi inobatga olingan. Tajriba-sinov paytida nomutanosibliklarni bartaraf etish yo‘llari, usullarini aniqlash kabi omillarga alohida e’tibor berilgan.

TPRS yordamida o‘qituvchilar, talabalar orasida tilni bilishni kontekstli, takrorlanadigan va tushunarli bo‘lgan bolalar romani, qiziqarli hikoyalari va interaktiv materiallar orqali targ‘ib qilinadi. Yoki oddiy qilib tushuntirilganda o‘qituvchi yuqorida aytib o‘tganimizdek tushunarli va qiziqarli bo‘lgan hikoyalardan dars jarayonida foydalanadi.

O‘qituvchi hikoyani muhim, e’tiborga molik nuqtasida aytishni boshlaydi va sinfga ko‘plab savollarni beradi:

- a) sinfning tilni tushunishini ta’minlash;
  - b) hikoyaga shaxsiy, qiziqarli va tushunarli detallarni qo‘sish.
- Talabalar esa asosan sinfda yaratilgan hikoyalarni, undan tashqari qo‘sishmchasiga boshqa sinflar tomonidan yaratilgan hikoyalar, ayrim talabalar tomonidan yozilgan hikoyalarni, jurnallar va gazetalardan e’lonlarni va maqolalarni, bolalar kitoblari va TPRS sinflari uchun yozilgan kichik romanlarni o‘qishadi. Bir so‘z bilan aytganda, TPRS o‘z ichiga tabiiy frazalar, ko‘p ishlataladigan so‘zlar va idiomalarni olgan turli xil hikoyalarni aytish, tinglash va ularni ustida qisqa va oddiy bo‘lgan savol-javoblar olib borishdan iborat hisoblanadi. Bu esa talabalarning ingliz tilini o‘raginshga bo‘lgan qiziqishlarini oshirdi.

Tadqiqot uchun Farg‘ona davlat universitetidan 2 ta guruh 1) Chet tillari fakulteti 1-bosqich 22-118 Nemis tili yo‘nalishi talabalari hamda 2) Chet tillari fakulteti fakulteti 1-bosqich 22-120 Fransuz tili yo‘nalishi hamda Andijon mashinasozlik institutidan 2 ta guruh 1) Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich K15-22 Menejment yo‘nalishi talabalari hamda 2) Avtomobilsozlik fakulteti 1-bosqich Msms 24-22 Metrologiya standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti yo‘nalishi talabalari tanlab oldi.

- 1) Chet tillari fakulteti 1-bosqich 22-118 Nemis tili yo‘nalishi talabalari tajriba sinov sifatida tanlab olindi. Shu guruh bilan ilmiy ish doirasida reseptiv

ko‘nikmalarni o‘stirish maqsadida yaratilgan “ZERO BOOK” nomli audio-video kitobdan tarqatma materiallar tayyorlanib, shu materiallar bilan talabalarning ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun mahorat darslari o‘tildi.

2) Chet tillari fakulteti fakulteti 1-bosqich 22-120 Fransuz tili yo‘nalishi talabalari ham tajriba sinov sifatida tanlab olindi, lekin bu guruhda o‘z darsliklari bo‘yicha o‘tilayotgan darlikdan foydalanildi.

3) Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich K15-22 Menejment yo‘nalishi talabalari tajriba sinov sifatida tanlab olindi. Shu guruh bilan ilmiy ish doirasida reseptiv ko‘nikmalarni o‘stirish maqsadida yaratilgan “ZERO BOOK” nomli audio-video kitobdan tarqatma materiallar tayyorlanib, shu materiallar bilan talabalarning ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun mahorat darslari o‘tildi.

4) Avtomobilsozlik fakulteti 1-bosqich Msms 24-22 Metrologiya standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti yo‘nalishi talabalari ham tajriba sinov sifatida tanlab olindi, lekin bu guruhda o‘z darsliklari bo‘yicha o‘tilayotgan darlikdan foydalanildi.

Tadqiqotchi M.A.Nazaralievning tadqiqot ishi bo‘yicha olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalari oliy ta’lim muassasalari ta’limdagi an’naviy o‘qitish bilan innovatsion yondashuvni qiyosiy tahlil qilish orqali innovatsion yondashuvning samaradorligi aniqlab berildi. Nutqiy mexanizmni shakllantirish, nutqiy faoliyat nazariyasi, tilni muloqot vositasi sifatida o‘rganishning psixologik xususiyatlari, mazkur tadqiqotning psixologik asosini tashkil qildi. O‘quv jarayonini kuzatish, o‘qish va tinglash strategiyalarining unumli qo‘llanishi va talabalar bilan suhbat reproduktiv nutq malakalarini shakllantirish jarayonidagi psixologik qiyinchiliklar (orfografik qoidalarni bilmaslik, xato qilishdan qo‘rqish, motivatsiyani yo‘qligi)ni aniqlashga, tahlil qilishga va ularni bartaraf qilish yo‘llarini ishlab chiqishga yordam berdi.

Tajriba sinovda ishtirok etgan talabalardan reproduktiv ko‘nikmalarni o‘stirish maqsadida yaratilgan kitobdan darslar olib borilganda ularda ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari qay darajada oshganini quyiodagicha ifoladilar:

45% talaba:

Menda ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishim uncha rivojlanmagan edi. Ingliz tilini hikoyalar yordamida o‘stirishga qaratilgan kitob bu tilni o‘rganish uncha qiyin emasligini ko‘rsatdi.

20% talaba:

Men frazaleologik brikmalarni eslab qolishda qiyalar edim, lekin bu kitob savol-javoblar yordamida ularni yodlab qolishimni osonlashtirdi.

35% talaba:

O‘qish ko‘nikmasini o‘stirish boshqa ko‘nikmalarga nisbatan ancha zerikarli hamda uzoq jarayon, lekin uni tinglash orqali o‘qib kuzatish menga juda yoqdi.

Hullas, talabarning ko‘pchiligi bu tajriba sinov ularga ingliz tilini o‘rganishda ijobiy turdki bo‘lganini hamda bu ularga ingliz tilini o‘rganish talabalar o‘ylaganchalik qiyin emasligi, aksincha bu ularga ancha yordam bergenligi haqida iliq fikrlar bildirdilar.

Tajriba sinovda ishtirok etgan talabalardan 2-guruh talabalar ham o‘zlari o‘tayotgan kitob qiziqarli, lekin ingliz tilini o‘rganishga biroz murakkab ekanini aytilib o‘tdilar.

Xulosa qilib aytganda, nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar (nemis va fransuz tili yo‘nalish talabalar) bilan olib borgan tadqiqot ishlari natijalari talabalarning raqamlı ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitishga tayyorlashning mazmuni va mutaxassislik qamrovi jihatidan sifatining oshgani tajriba-sinov ishlarining samarali o‘tkazllganidan dalolat beradi.

### **3.2. Integratsiyalashgan reproduktiv nutq malakalarini shakllantirish yuzasidan tashkil qilingan tajriba sinov natijalari tahlili**

Ingliz tilini o‘rgatishda amaliy mashg‘ulotlarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda. Yangi metodik usullardan foydalanish nafaqat talabalarga, balki o‘qituvchiga ham ta’lim berish jarayonini engillashtirib bermoqda. Har bir usul belgilangan muayyan maqsadni echishda o‘z o‘rnida ishlatilsa, y shubhasiz faoldir. Pedagogik texnologiyalar talabalar faolligining yuqori darajasini ta’minlash asosida oldindan

belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan. Integratsiyalashgan usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabaning faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish talaba uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi.

Integratsiyalashgan usullar qo‘llanilganda talabalar o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.

Hozirgi paytda darsning xilma-xil noan’anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar talabaning ijodiy qobiliyatini o‘sirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to‘la qabul qila olish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptiradi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o‘zlashtirish sifati oshadi. Shuningdek, chet tilida talabalarning o‘zaro munosabatlari va ular tomonidan berilayotgan savollarning ham inobatga olinishi ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o‘kitishda yangi o‘quv metodlarning asosiy mohiyati ta’limda talabalarni qiziktirib o‘qitish va bilimlarni to‘lik o‘zlashtirishga erishishdir. Ta’limda berilayotgan bilimlarni talabalarning aksariyat ko‘pchilik kismi puxta o‘zlashtirishi yangi o‘quv metodlarning joriy etishning asosiy maksadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya asosida dars o‘tishda eng asosiy talab talabaning xayotiy tajribasi avval o‘zlashtirgan bilimlari va kiziqishlari asosida bilim berishni ko‘zda tutadi. Talabalarning til bo‘yicha o‘rganilayotgan bilimlarni esga tushirish, jonlantirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga asos bo‘ladi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash talabani faollashtirish va bilim o‘zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi.

Mazkur tadqiqot natijalari 2022-2023 o‘quv yillari davomida Farg‘ona davlat universiteti nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar (nemis va fransuz tili yo‘nalish talabalari) hamda Andijon mashinasozlik institutidan iqtisodiyot fa-

kulteti va avtomobilsozlik fakulteti yo‘nalishi talabalari bilan olib borilgan tajribasinovalarida ijobjiy natijalarga erishildi.

Ta’lim jarayoni uning sifati va ahamiyati talabaning bilimini oshirishga yordam beradigan usul va vositalar o‘qituvchining ko‘nikma va malakalari yangi pedagogik texnologiya va informatsion texnologiyalar zamonaviy ta’limning asosiy belgilaridan biri bo‘lib, ularni amalga oshirish orqali yuqori samaraga erishiladi.

“O‘qituvchi qo‘llanmasi” kitobida Stefen va Suzan Judiy darsni samarali tashkillashga yordam berish uchun instrukturaviy o‘rin tutgan muhim narsalarni tavsiya qilishadi. Boshlang‘ich maqsadlar va narsalarning quyidagi ro‘yxati struktura, materiallar va talabalarni jalg qilish jihatdan uyg‘unlashtirilgan kurslarni shakllantirishga yordam berishi lozim.

Shuningdek uyg‘unlashgan mashg‘ulotlarning hammasi talabalarning til o‘rganishdagi rivojlanishni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, mavzular turli masalalarga, masalan, oila, erkak va ayol, keksayish, inson qadri, shhaharlar va qahramonliklarga asoslangan bo‘lishi lozim. Qo‘sishma ravishda, tematik asosning o‘ziga xos xususiyati shundaki, haqiqiy uyg‘unlashish sodir bo‘lishini ta’minlaydi. Umumiyligi maqsadsiz turli xil, ya’ni tinglash, gapiresh, o‘qish va yozish mashg‘ulotlari hech qo‘siga olib bormaydi. Shuningdek, tanlovlar va mashqlar turliligi talabalarning bilimini oshiradi.<sup>47</sup>

Uchinchidan, darslik va materiallar hilma-hilligi ingliz tili darsining muhim qismidir. Turlilik xato bo‘lmashligi kerak chunki y darsning maqsadiga etishish vositasidir. Mavzuning bor imkoniyatini ko‘rstishda talabalarlar ko‘proq manba va tajribalar bilan ta’minlash muhim. Undan tashqari, ko‘p materiallar talabalarni mavzu bilan yaxshiroq tanishtiradi. Natijada, talabalar identifikatsiyasi qiziqishni oshiradigan shaxsiy ahamiyatni oshiradi va ularni darsga jalg etadi.

To‘rtinchidan yozish nazariyasini tarkibiy jarayon sifatida kursning muhim qismidek rivojlantirilishi lozim. Urg‘u reja tuzish, qoralash, ko‘rib chiqish, tahrir

---

<sup>47</sup> [http://www.e-reading.club/chapter.php/103649/3/Gluhov,\\_Kovshikov\\_-\\_Psiholingvistika.\\_Teoriya\\_rechevoi\\_deyatelnosti.html](http://www.e-reading.club/chapter.php/103649/3/Gluhov,_Kovshikov_-_Psiholingvistika._Teoriya_rechevoi_deyatelnosti.html)

va nashlarga qaratilishi kerak. An’anga ko‘ra, yozish ko‘nikmasi sinfdan tashqari dars sifatida yakkalanib qoladi. Shuningdek yozish ko‘nikmasi boshqa til ko‘nikmalari bilan munosabatga kirishadi. Misol uchun, butun sinf yoki kichik guruh yozishni rivojlantirishga yordam berishga tinglash va gapirishaga murojaat qiladi. Qoralamada talabalarlar yolg‘iz ishlashadi, lekin ular guruh bilan bir xil vazifa bajarganda o‘zgacha ishtiyoq bilan bajarishadi. Ko‘rib chiqish, tahrirlash va nashr bosqichlari til jarayonlarini bevosita birlashtiradi. Yozishning oxirgi bosqichlari davomida o‘zlari va do‘sclarining varoqlarini o‘qishadi, og‘zaki va yozma javob berishib ularni tushuntirishadi, o‘zlarining yozuvini potentsial o‘qish materiali sifatida tengdoshlariga tayyorlashadi. Shuning uchun yozish ko‘nikmasi nazardan qochirilmasligi kerak.

Bunday usullardan samarali foydalanish uchun, avvalambor, o‘qituvchi o‘z fanini puxta bilishi, ilg‘or zamonaviy o‘qitish usullaridan yaxshi xabardor bo‘lib, ulardan samarali foydalanish yo‘llarini kashf eta olishi lozim. Shundagina o‘qitish sifati ham, talabalarning fanni o‘zlashtirish darajasi ham yuqori bo‘ladi.

### **3.3. Ingliz tilida integratsiyalashgan reproduktiv nutq malakalarini shakllantirish yuzasidan ko‘rsatma va maslaxatlar**

Chet tilini bilish dunyoda muhim o‘rin tutadi. Bir yoki bir nechta chet tilida gapirish qobiliyati biz uchun dunyo eshagini ochadi va bizga muvaffaqiyatli shuhratga erishishga imkon beradi. Afsuski, ko‘plab talabalar chet tilida mukammal o‘qishlarida muammolarga ega. Chet tilida o‘qishning muammozi qobiliyati yomon, chet tili bilishning etarli emasligidami yoki umuman imkoniyatlarni etarli bo‘lmasligidami, ya’ni, o‘qiyotgan talaba o‘zining ona tilida o‘qisa ham, muammolari bormi? Talabalarning chet tilida juda qiyinchiliksiz o‘qishlarini ta’minlash uchun, o‘qituvchilar birinchi navbatda o‘z tillarida o‘qish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak.<sup>48</sup>

---

<sup>48</sup> Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: —Niholl nashriyoti, 2016.–279 b.

Maktabda va uyda muntazam o‘qishni mashq qilish haqiqatdan qobiliyat rivojlanishiga olib keladi. O‘qishning yana bir muammosi – chet tilida bilimning etishmasligidir. Biz tez-tez bu muammoga duch kelamiz. Agar talabalar chet tilida bilimga ega bo‘la olmasalar, o‘qituvchi bunday talabalardan ushbu tilda o‘qishlari mumkinligini kutmaydi. O‘qishdan oldin o‘qituvchi talablarga mashq qilish orqali o‘qish kompetentligini rivojlantirish kerak. Talabalar ham o‘z o‘rnida hech bo‘lma ganda grammatika va lug‘at haqida asosiy bilimlarga ega bo‘lishlari kerak bo‘ladi. Chet tilini o‘qish, o‘z ona tilida o‘qishdan ko‘ra ko‘proq vaqt talab etadi. Talabalar matnning kontekstiga darhol tushuna olmaydilar. O‘qituvchilar bunga sabr-toqatli bo‘lishlari kerak, chunki o‘z ona tilida va chet tilida o‘qiyotgan talabalar o‘rtasida katta farq bor.

Sokin muhit o‘qish uchun eng yaxshi muhitdir. O‘qishning afzalliklari uch punktda mavjud:

- Talaba muallif tomonidan yaratilgan dunyoni baham ko‘radi;
- Talaba o‘z tajribasini matndagi voqealar bilan taqqoslaydi;
- Talaba matnning ma’nosini tushuntiradi.

O‘qish biz o‘ylaydiganlardan ko‘ra samarali jarayondir. Talabalar o‘zlarining fikrlash tarzini rivojlantiradi va o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan reaktsiyalarini qo‘llaydi. O‘qituvchilar to‘g‘ri matnni tanlash va undan to‘g‘ri foydalinish orqali juda samarali ta’limni amalga oshirishlari mumkin.

Talabalar o‘qish asosini (motivini) ular bilan zo‘r berib o‘qiy olishlari uchun bilmog‘i lozim. Ko‘pgina talabalar bu hodisada televizor fenomeniga murojaat qilishadi. Chunki bu fenomenda vaqtning davomiyligi bo‘lib, unda sahnalar va voqealarni tez-tez o‘zgartiradilar. O‘qish badiiy matnlar o‘qishda talabalardan kontsentratsiyasi va mashaqqatli ishslashini talab etadi. Talabalar uchun muhim motvatsiya (sabab) shundan iboratki, matn talabalarga yaqindan aloqador bo‘lishi kerak. Talabalarni rag‘batlantirish uchun o‘qituvchilar badiiy matnlardan bir nechta tsitatalar tanlash va ulardan darsda foydalana olishi kerak.

Darslarning boshida matnga bevosita o‘tish mumkin emas. O‘qituvchi matnni talabalarga taqdimotni chet tilida tushuna olishlari kerakligi borasida ham chuqr

o‘ylab ko‘rishimiz kerak. Avval matn bilan tanishish zarur. O‘qituvchi matnning muallifi haqida qiziqarli narsalarni gapira boshlaydi. Shundan keyin kitob yoki matn nomiga keladi. Talabalar esa tasavvurlarini qo‘sishmcha qiladilar.<sup>49</sup>

Masalan:

- Warum heißt das Buch „Die Ilse ist weg“, was meinst du?

Das Buch heißt „Die Ilse ist weg“, weil...

- Der Titel des Kapitels lautet Ein Meerschweinchen, eine ekelhafte Schwester und Ohrfeigen. Was glaubst du, wovon handelt der Text?

Savollar matnning taqdimotida muhim ahamiyatga ega. Savollar matnni o‘qishdan oldin munozara qilinishi kerak, chunki talabalar o‘qishga diqqat qilib, buni bilib olishlari va ular ham savollar berishlarini ta’minalash kerak.

Matnni o‘qib bo‘lgandan keyingina savollarga javob beriladi.

Munozara - talabani qiziqtiradigan yana bir muhim usuldir. Munozara davomida talabalar o‘zlarining tajribalarini, bilimlari va fikrlarini sinf bilan baham ko‘radilar. Ushbu usullar dars uchun juda samarali usul bo‘lib, munozara vaqtida gaplarni grammatik xatolarini to‘g‘rimaslik bu usulni ahamiyatli jihatidir.

Bunday vaziyatda talabalar xatolar qilishiga qaramasdan o‘z-o‘zidan ko‘proq chet tilidan foydalanadilar.

Kellerning aytishicha, o‘qituvchilar talabalarga ko‘rsatmalar berish singari, usullarni 5 bandga ajratish mumkin:

- Ko‘rsatmali materiallar kichik qismlarni tashkil qiladi;
- Materiallar asosan yozma so‘zlardan iborat bo‘lib, og‘zaki yo‘riqnomadan qochish kerak;
- Ma’ruzala talabalarning qiziqishini uyg‘otishga xizmat qiladi;
- Talabalar o‘zları ko‘rsatmalar bilan materiallarni o‘ziga xos tezlik bilan ishlashadi va buning uchun etarli vaqt bo‘ladi;
- O‘qituvchilarning roli talabalarni doimo nazorat qilmaslikdir.

---

<sup>49</sup> Saxarova T.E. Situativnie uprajneniya dlya obucheniya nemetskoy dialogicheskoy rechi studentov pervix kursov yazyikovogo vuza. Dis. kand. ped. nauk. -M., 1968.

Madaniyat, bugungi kunda, ta'limning muhim qismidir. Shuning uchun matnni tanlashda ehtiyot bo'lishimiz kerak. O'qituvchi adabiyotni noto'g'ri tanlashi orqali bir necha talabalarga noqulay vaziyatni keltirib chiqaradi. Matnning to'g'ri tanlovi ham talabalar bilimiga bog'liqdir. Qachonki talabalar o'z bilimlarini chet tili darsida qo'llay olsalar, o'qituvchilar uchun samarali muhokamani o'tkazishlari ham mumkin. Misol uchun, mustamlakachilik haqidagi matndan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki talabalarda bu mavzu bo'yicha ma'lumot yo'q. Agar o'qituvchi darsda sport tarixi haqida mavzuni muhokama qilsa, darsda sport mavzusi haqidagi bilimlardan foydalanish mantiqqa to'g'ri keladi.

Quyida berilgan misollar reproduktiv nutqni shakllantirish uchun tajriba davomida talabalarga juda qulay hamda ma'lumotlarga boy bo'ldi.<sup>50</sup>

### **EXAMPLE 1: READING ACTIVITIES**

Here are the examples of some reading activities, which I have used in my own experience.

Pre-reading task: Look at the sentence. "Great Britain" has several different names, some people say "Britain", or "the United Kingdom", or just "the UK". Answer the questions: 1. How many names of the country are mentioned?

2. What do you think is the official name of the state?
3. What is the abbreviation?
4. What do you already know about this country?

While reading tasks: 1. Look at the map of Great Britain.

Read the text about this country.

There are four different countries in the United Kingdom: England, Scotland, Wales and Northern Ireland. Altogether more than 56 million people live in Britain, many of them in big industrial cities like London, Liverpool and Manchester. Northern Ireland is situated in the northern part of Ireland. The

---

<sup>50</sup> [http://www.e-reading.club/chapter.php/103649/3/Gluhov,\\_Kovshikov\\_-\\_Psiholingvistika.\\_Teoriya\\_rechevoi\\_deyatelnosti.html](http://www.e-reading.club/chapter.php/103649/3/Gluhov,_Kovshikov_-_Psiholingvistika._Teoriya_rechevoi_deyatelnosti.html)

territory of the United Kingdom is about 244 square kilometers and it takes the 75th place among other countries in the world. The capital of the country is London.

2. Look at the sentences and correct them if necessary:

- There are five different countries in the United Kingdom.
- Altogether more than 56 million people live in Britain.
- Northern Ireland is situated in the northern part of Britain.
- The territory of the United Kingdom is about 422 square kilometers.
- The capital of the country is London.

3. Make three groups. Each group gets:

- the geographical map of the UK;
- short information about mountains, rivers or waters that wash Great Britain;
- new words with the transcription to help you to read new geographical names.
- Read the texts and put them in correct order to make the story about Great Britain.

The task for group 1: Great Britain is separated from the continent by the English Channel, the narrower part of which is called the Strait of Dover. The British Isles are surrounded by the shallow waters of the Irish Sea and the North Sea, the North Channel and the Atlantic Ocean. Britain is comparatively small, but there is hardly a country, in the world where such a variety of scenery can be found.

The task for group 2: Great Britain can be divided into two parts: Lowland Britain in the south and east, and Highland Britain in the North and West. The most important mountain territories are those located in the north of Scotland. Geologically these North West Mountains and the Grampians are among the oldest in the world. The highest peak is Ben Nevis (1Z4Z m.). In the centre of England is a range of mountains called the Apennines. The Cambrian Mountains occupy nearly the whole of Wales. The highest peak there is Snowdon (1085 m.).

The task for group 3: The rivers of the region are short and of no great importance as waterways. The longest of them are the Severn (254 km) and the Thames, which is 346 kilometers long. Other comparatively long rivers are: the Trent, the Tweed, and the Wye. Lakes are found in the Lake District in England and in the highlands of Scotland. One of the best known lakes is Loch Ness in Scotland, famous for its ‘Loch Ness Monster’.

After-reading tasks:

1. Share the information. (Students speak and listen to each other in order to get first outlook.) Don’t forget to use the maps.
2. Here are the models of the maps where you can see only the shape of the country. Your task is to colour them, write all the geographical names there and speak about the geography of the UK using your own maps.

## **EXAMPLE 2: READING ACTIVITIES**

Here is another example of the tasks. The text is dedicated to the national symbols and the life of people of these countries.

Pre-reading task: Do you think the following statements are true or false? 1. English people keep their traditions with great honour.

2. Every country in the UK has got its own symbol.
3. The symbol of Ireland is a red rose.
4. The shamrock is the most famous symbol of Wales.
5. Everyone in the UK speaks English.

While-reading task: Work in pairs Read a magazine article about people of Britain. Six sentences have been removed from this text. Choose which sentences (A–G) fit into the gap (1–6). There is one extra sentence.

- A. Red dragon is probably the oldest symbol of Wales.
- B. They like to speak Welsh, to sing Welsh songs.
- C. Green is one of the symbols of Ireland and everyone wears green on St. Patrick’s Day.
- D. The English are famous for their love of animals.

E. People from Scotland, Wales or Northern Ireland are not English.

F. Traditional tartan skirts are called kilts and many Scots wear them.

G. Every country in the UK has got its own symbol.

People in Britain. The symbol of England is a red rose, and English people are crazy about gardening.

1. A lot of families have pets. English football is famous, of course, but there is another national sport too, cricket.

2. Scotland is very famous for its beautiful scenery and the lakes called lochs. An important symbol of Scotland is a special kind of material called tartan. Another symbol of Scotland is the thistle.

3. Another symbol of Wales is a vegetable called the leek. People wear them on their coats on St. David's Day, the Welsh national holiday. Welsh people are famous for their singing and their musical festivals. The most famous symbol of Ireland is shamrock. In Ireland, you may see different shades and tones of green.

4. The Irish are famous for their playing, singing and dancing. Everyone who was born in Britain is British. People from England are the English.

5. They are Scottish or the Scots; the Welsh and the Irish. People from Scotland and Wales do not like when they are called the English. Everyone in Britain speaks English. However, in some parts of Scotland and Wales people speak different languages as well. The Welsh are especially proud of their language.

6 Everyone in the UK speaks English but they all speak it differently.

After-reading task: Choose A, B, or C.

1. The United Kingdom consists of four different countries . . . .

A. England, Scotland, Wales and Ireland.

B. England, Scotland, Wales and Northern Ireland.

C. Britain, Scotland, Wales and Northern Ireland.

2. Great Britain is separated from the continent by . . . .

A. the English Channel. B. the North Channel. C. the Irish Sea.

3. The highest peak in Great Britain is . . . .

A. Ben Nevis. B. Showdown. C. Loch Ness.

4. The longest rivers in the UK are ....

- A. the Trent and the Tweed.
- B. the Wye and the Strait of Dover.
- C. the Severn and the Thames.

5. The British Isles are surrounded by the shallow waters of ....

- A. the Irish Sea and the North Sea, the North Channel and the Indian Ocean.
- B. the Irish Sea and the Black Sea, the North Channel and the Atlantic Ocean.
- C. the Irish Sea and the North Sea, the North Channel and the Atlantic Ocean.

6. The population of the United Kingdom is ....

- A. 48 mln people.
- B. 56 mln people.
- C. 244 mln people

7. The symbol of England is ....

- A. a thistle.
- B. a rose.
- C. a daffodil.

8. What colour are London's buses ....

- A. black.
- B. red.
- C. black and white.

Shuning uchun o‘qishni o‘rgatish qiyin ishdir. O‘qituvchilar talabalar erishayotgan yutuqlardan xabardor bo‘lishlari va ko‘rsatmalarni o‘quvchilarning o‘zgaruvchan qobiliyatlariga moslashtirishlari kerak. Shuni ham yodda tutish kerakki, o‘qishdan maqsad matnlarni tushunish va ulardan saboq olishdir. O‘qish - bu uni o‘rgangan har bir kishiga kuch beradigan mahorat. Ular bosma materiallardagi bilimlar zaxirasidan foydalanishlari va pirovardida bu bilimlarga hissa qo‘sishlari mumkin bo‘ladi. Yaxshi o‘qitish talabalarga o‘qishni o‘rganish va o‘rganish uchun o‘qish imkonini beradi.

Retseptiv nutq malakalarini shakllantirishda ko‘rsatmalar va maslaxatlarga amal qilganda ko‘proq foyda olishingiz mumkin. Bu eng ko‘p tavsiya etiladigan ko‘rsatmalar va maslaxatlardan ba’zilaridir:

1. Topshiriqlarni aniqlash: Retseptiv nutq malakalarini shakllantirish uchun topshiriqlarni aniqlash kerak. Topshiriqlarda maqsad, muddatlar va ko'rsatmalarni aniqlash juda muhim.

2. Tezkor natijalarni tezkor tuzatish: Ko'rsatmalarni tezkor natijalarni tezkor tuzatish imkoniyatini beradi. Maslaxat: Topshiriqlarni belgilash va ishni tezkor tuzatish uchun dasturlardan foydalanish.

3. Integratsiyalash uchun tajribalar: Integratsiyalash uchun reproduktiv nutq malakasini shakllantirishda tajribalardan foydalanish kerak. Bu, ishni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishingizga yordam beradi.

4. Chegaralarni belgilash: Ko'rsatmalarda chegaralarni belgilash kerak. Bu, ishni muddatiga, resurslarga va maqsadlarga mos keltirish imkoniyatini beradi.

5. Texnik dasturlardan foydalanish: Retseptiv nutq malakalarini shakllantirish uchun texnik dasturlardan foydalanish kerak. Bu, ishni sifatli va muvaffaqiyatli amalga oshirishingizga yordam beradi.

Ushbu ko'rsatmalar va maslaxatlarni ijtimoiy tarmog'da, onlayn platformalarda yoki joylashuv bilan amalga oshirishingiz mumkin. Bu o'z vaqtingizni sifatli istifoda qiluvchi va muvaffaqiyatli reproduktiv nutq malakalarini shakllantirishingizga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki o'qish biz o'ylagandan ko'ra ancha samarali jarayon ekanini o'tkazilgan tajriba-sinovlarda ko'rib chiqdik. Talabalar o'zlarining fikrlash doirasiini rivojlantiradi va o'z-o'zidan paydo bo'lgan reaktsiyalarini qo'llaydi. O'qituvchilar to'g'ri matnni tanlash va undan to'g'ri foydalanish orqali juda samarali ta'limni amalga oshirishlari mumkin.

Talabalar o'qish asosini (motivini) ular bilan zo'r berib o'qiy olishlari uchun matn qiziqarli bilmog'i lozim. Ko'pgina talabalar bu hodisada televizor fenomeniga murojaat qilishadi. Chunki bu fenomenda vaqtning davomiyligi bo'lib, unda sahnalar va voqealarni tez-tez o'zgartiradilar. Badiiy matnlar o'qishda talabalardan kontsentratsiyasi va mashaqqatli ishlashini talab etadi. Talabalar uchun muhim motivatsiya (sabab) shundan iboratki, matn talabalarga yaqindan aloqador bo'lishi kerak. Talabalarni rag'batlantirish uchun o'qituvchilar badiiy

matnlardan bir nechta tsitatalar tanlash va ulardan darsda foydalana olishi muxim ro'l o'yaydi.

Integratsiyalashgan usullar qo'llanilganda talabalar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. Har bir usul belgilangan muayyan maqsadni echishda o'z o'rnida ishlatilsa, y shubhasiz faoldir. Pedagogik texnologiyalar talabalar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan. Integratsiyalashgan usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabaning faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish talaba uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Shu jihatdan kompetentsiyaviy yondashuv asosida talabalarda integratsiyallashgan til ko'nikmalarini shakllantirish orqali reproduktiv nutq kompetentsiyasini shakllantirish, tinglab va o'qib axborot olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Garchi o'qish bilan tinglab tushunish reproduktiv nutq faoliyati turlari bo'lsada, ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga oid reproduktiv ko'nikma va malakalarni shakllantirishda differentsial yondashuv talab etiladi.

Tilning mukammal o'rganish uchun talabalardagi o'qish, yozish, gapirish, eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, hamda talabalarning tilni mukammal o'rganishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali talabalarda chet tilida muloqot qila olish va o'z fikrlarini erkin bayon qilish imkoniyatlari yaratiladi .

Tajriba sinov natijalarini shakllantirish yuzasidan tashkil etilgan integratsiyalashgan reproduktiv nutq malakalari bo'yicha tahlili quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Maqsad va hadlar: Birinchi qadamda, sinovning maqsadi va hadlari muayyanlanadi. Masalan, reproduktiv nutq malakalarini oshirish yoki takomillashtirish, o'rganilayotgan tilni nima uchun o'rganilayotganining asl moxiyatini tushunish va qo'llab-quvvatlash, yoki boshqa maqsadlar. Sinovning maqsadlari yordamchi maqsadlarni, o'rnatish ko'llab-quvvatlashni yoki xarakatga o'z ta'sirini belgilash yoki nutq malakalarini oshirishdan iborat bo'lishi mumkin.

2. Metodologiya: Sinovda qo'llanilgan metodlar va muhit (misollar: suhbatlar, rollar, o'ynanishlar) tahlil qilinadi.

3. Me'yorlar: Tajriba-sinovning me'yorlari belgilanadi. Bu me'yorlar sinovning muvaffaqiyatli amalga oshirishini yoki amalga oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

4. Natijalar: Sinovning natijalari aniqlanadi, masalan, ko'rsatilgan maqsadlarga ega bo'lishi, ulardagi ortcha natija, ularning me'yorlar bilan muvofiqligi. Sinovni o'tkazish uchun muayyan turlarni (misollar: o'qish, muloqot, amaliy ish) va ularning qo'llab-quvvatlash hajmlarini belgilash.

5. Tahlil va mulohazalar: Sinovning natijalari tahlil qilinadi va takliflar beriladi. Bu mulohazalar asosida kelishuvlar va takliflar ko'rsatiladi.

6. Jamoa qarorlari: Natijalar asosida kelishuvlar qabul qilinadi va kelajakda amalga oshirilishi muammolar yoki o'zgartirishlarni ko'rsatadi.

## XULOSA

Talabalarning o‘quv fanlarini o‘zlashtirish yoki ularning ijodiy qobiliyatları yo‘nalishi va darajasiga ko‘ra ta’limni joriy etish, birinchidan, bilim, ko‘nikma va malakalarни shakllantirish davrida qobiliyatli bolalarning imkoniyatlarini yanada rivojlantirish; ikkinchidan, ularning vaqtini behuda isrof qilmaslik; uchinchidan, talabalar o‘rtasidagi munosabatning mo‘tadilligini ta’minlashga imkon beradi.

Ta’lim muassasalarida ijodiy qobiliyatli talabalarni saralash bevosita ular qobiliyatlarining yo‘nalishlari va darajalariga ko‘ra muayyan guruhlarga biriktirish asosida integratsiyalashgan ta’lim asosida o‘qitilishini talab qiladi. Albatta, integratsiyalashgan ta’lim o‘ziga xos afzalliklarga egadir.

Integratsiyalashgan ta’lim asosida har bir o‘qituvchi qobiliyatli talabalarning ichki imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish, ularda ijodkorlik xislatlarini shakllantirishga o‘z hissasini qo‘sha olishi talab etiladi. Ta’lim muassasasi talabalarlarining ijodiy qobiliyatları ta’lim muassasasi jamoasi e’tiborini yagona maqsadga qaratish, shuningdek, bu jarayonga jamoatchilikni faol jalb etish orqali erishiladi.

Integratsiyalashgan deganda ta’limning shunday tizimini tushunamizki, bunda har bir talabalar doimiy o‘zgaruvchi hayotiy shart-sharoitlarda minimal darajadagi umumta’lim tayyorgarligiga ega bo‘lgan holda o‘zining intilishiga afzal darajada diqqat-e’tibor qaratishga huquq va kafolat beradi.

Turli dasturlar bo‘yicha o‘qitish jarayonini ixtisosiy rivojlantirishning tub mohiyati talabalarlarning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha maksimal darajada rivojlanishlari maqsadida ularning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat ekanligini bildiradi.

Shunga mos ravishda ixtisosiy rivojlantirish o‘quv dasturida ko‘rsatilgan o‘quv materiali uni bayon qilishda chuqurlashtirilganligi va kengaytirilganligi, o‘quv ma’lumotlarining hajmi hamda ularni o‘rganish uchun kiritilgan masalalar yo‘naltirilganligi va tatbiqiyligini nazarda tutadi.

Pedagoglarning asosiy vazifasi jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan mutaxassislarini

tayyorlash, ushbu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini etirof etish emas, balki ularga nisbatan ijodiy yondoshuvni shaklantirish va mustaqil fikrlash sifatlarini tarbiyalashdan iborat.

Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayoni sifatini oshirishning samarali yo‘llarini izlash bir paytning o‘zida turli yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Nofilologik oliy ta’lim muassasalari ingliz tili kurslarida muloqotning kasbiy va ijtimoiy sohalari bilan bog‘liqlikda talabalarni nutqiy faoliyatga maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tayyorlash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Mualliflar turli yo‘nalishlar bilan bog‘liq dasturlarni ishlab chiqishsada, yagona maqsad sifatida aniqlangan “nostandart echimlar, murakkab so‘zlarni o‘rganish, tilga oid noodatiy nutqiy vosita, usullarni egallah, fikrlashni shakllan-tirish” ga yo‘naltirilgan o‘zga tilga xos nutqiy ko‘nikmalarni samarali o‘zlashtirishni ta’minalash belgilab olingan.

Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishning umumqabul qilingan yo‘nalishlari sifatida kontekstli va kasbiy-yo‘naltirilgan ta’lim aks etadi. Talabalarning bo‘lajak mutaxassislik bilan bog‘liqlikda lingvistik tayyorgarligini shakllantirishda kasbiy yo‘naltirilgan ta’limning tayanch kontsepti sifatida kontekst muhim ahamiyat kasb etadi.

Reproduktiv nutq ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim bo‘lgan zamonaviy strategiyalarni qanday qo‘llash kerakligi va ulardan kutiladigan natija talabaga qaydarajada yordam berishi izlanish mobaynida o‘rganilib chiqildi. Monografiya izlanishlar davrida integratsiyalashgan reproduktiv ko‘nikmalarni talabada qanday qilib shakllantirish uchun qator olimlarning ham ushbu mavzuga oid ilmiy ishlari (kitob va maqolalari) o‘rganib chiqildi.

Tajriba natijalarining ishochliligi, ishda qo‘llanilgan yondashuvlar, usullar va nazariy ma’lumotlar ishonchli manbalardan olinganligi, integratsiyalashgan reproduktiv nutq malakalarini shakllantirish uchun muhim bo‘lgan lingvistik, psixologik, va didaktik omillar asosida yoritilganligi, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan

natijalarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi. Tadqiq etilayotgan muammoga falsafiy hamda ilmiy-pedagogik yondashuv monografiya maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalg etilgan oliy ta'lif muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuni, shuningdek, monografiya muammosiga tizimli va izchil yondashuv, tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik monografiyalarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga mosligi bilan monografiya natijalarining ishonchliligi ta'minlangan.

Integratsiyalashgan nutqiy malakalarni shakllantirishda tilni o'rganishda psixologik omillarga ham e'tibor berish muhimdir. Ma'lumki, ta'lif jarayonining samaradorligi talabalarlarni ma'lum faoliyatga undovchi ularni ushbu faoliyatni bajarishga qiziqtiruvchi sabab bu bajarilayotgan ish natijasidan manfaatdorliga bevosita bog'liqdir. Shu sababli leksik mashqlarni tanlashda sub'ektiv omillarni inobatga olish zarur. Bundan tashqari, ushbu tanlovda til o'rganuvchi talabanint yoshi bilan bog'liq bo'lgan fikrlash, tafakkur, eslab qolishga ilinjidagi farqlar ham albatta hisobga olinadi. Ilmiy adabiyotlarda har bir yosh ruhiy shakllanuvchi psixologik xususiyatlar orasida talabalarning barcha psixologik sifatlarini shakllanish bosqichida turuvchi asosiy bog'lanishni farqlash muhim uslubiy ahamiyat kasb etishligi qayd etilgan.

O'rganilayotgan ma'lumotga e'tiborni kuchaytirib, diqqatni shakllantirish va takomillashtirishning o'ziga hos xususiyatlarini ham kiritish lozim. Bu xususiyat talabalarlarning o'quv materialini ahamiyatini, uning amaliy natijasini baholashda o'z aksini topadi. O'quv materialining ahamiyatini tushungan talabalar uni o'zlashtirishga faol kirishadi. Agar o'quv materiali unchalik zarurdek tuyulmasa, unga bo'lgan munosabat kuchsizlanadi. Ayni shu xildagi psixologik xususiyatlar asosida talabalarning xorijiy leksikani o'zlashtirishda qo'l keladigan mantiqiy asoslangan o'quv faoliyati yuzaga keladi. Talabalarlar tomonidan leksikani o'zlashtirishda o'zlarining bilimlarini bir tizimga solishga urinishlari muhimdir.

O‘zlapggirilgan bilimlarni ma’lum bir tizimga solishga intilish ko‘nikmasini shakllantirishning ta’lim jarayonida tutgan o‘rniga alohida e’tibor berish lozimligi olimlar tomonidan alohida ta’kidlangan. Haqiqatdan ham, talabalarlar o‘zlar o‘zlashgirgan bilimlar miqdori hajmidai, ya’ni voqealari hodisalar to‘g‘isidagi ma’lumotlardan to‘liq qoniqmaydilar va o‘z bilimlar doirasini kengaytirish, to‘ldirish va tartibga solish ehtiyojini sezadilar. Bildirilgan fikrlardan ikki muhim xulosaga kelish mumkin: o‘quv materiali talab qilingan darajada to‘liq, barcha kerakli ma’lumotlarni qamragan holda berilishi lozim; talabalarlarning o‘quv faoliyati esa ularning to‘liq va tizimlashgan ma’lumot olishiga yo‘naltirilishi lozim.

